O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

G.S.TURDIEVA, B.S.QURBONOV,
G.Y. BO’RONOVA

TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Barcha yo`nalishlar uchun

“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2021

UO'K 37:004.9(075)
74.263.2ya73
T 87
Turdieva, G.S., Qurbonov, B.S., Bo'ronova, G.Y.
Ta'limda axborot texnologiyalari [Matn] : o'quv qo'llanma / G.S. Turdieva, B.S. Qurbonov, G.Y. Bo'ronova.-Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona,2021.-268 b.

KBK 74.263.2ya73

Mazkur o'quv qo'llanma ta'limda axborot texnologiyalarining tutgan o'rni va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan ta'lim jarayonida, xalq xo'jaligida foydalanish jarayonlari ko'rib chiqilgan.
Bunda fan doirasida talabalarga turli sohalarda mavjud axborot texnologiyalarini qo'llashda va joriy etishda bilimlar berish bilan bir qatorda ularda tizimli yondashuvni shakllantirishga qaratilgan.
O'quv qo'llanma 110000-"Pedagogika" ta'lim sohasining barcha ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar va o'qitayotgan professor o'qituvchilar uchun mo'ljallangan, shu bilan birga magistrlar ham mustaqil ishlarida foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

B.B.Mo'minov - Muxammad al-Xorazmiy nomidagi TATU "Informatika asoslari" kafedrasi mudiri, texnika fanlari doktori, prof.

J.Jumayev - Buxoro Davlat universiteti "Axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti

Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 3566-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 356/7-106.

ISBN 978-9943-7699-2-2

Турдиева Г.С, Курбанов Б.С, Буранова Г.Ё. Informatsионные технологии в образовании. Учебное пособие. – Бухара, БухДУ, 2021, 220стр.

В данном учебном пособии рассматривается рол informatsионных технологий в образовании, а также рассмотрены protseссы применения informatsионных технологий в образовании и народном хозяйстве.

В учебном пособии наряду с предоставлением знаний студентам в применении и внедрении informatsионных технологий в различных областях науки, даётся направление на формирование системного подхода к полученным знаниям. Учебное пособие предназначено для студентов, обучающихся по всем направлениям области образования 110000 - “Педагогика”, а также для преподавателей, преподающих по етим направлениям образования. Учебное пособие также может быт исползовано для самостоятелной работы магистров.

Petsензенты:

Б.Б.Муминов - Заведующий кафедрой «Основ информатики» ТУИТ им. Мухаммада аль-Хорезми, доктор технических наук,проф.

Ж.Жумаев- dotsент кафедры “Informatsионный технологий” Бухарского государственного университета

Turdieva G. S., Kurbanov B.S., Buranova G.Y. Information technology in education. Textbook. – Bukhara, BukhSU, 2021, 220 c.

This textbook examines the role of information technology in education, as well as the processes of application of information technology in education and the national economy.

In the textbook, along with the provision of knowledge to students in the application and implementation of information technology in various fields of science, the direction of the formation of a systematic approach to the knowledge. The manual is intended for students studying in all areas of education 110000 - “Pedagogy”, as well as for teachers teaching in these areas of education. The manual can also be used for independent work of masters.

Reviewers:

B.B. Muminov - Head of the Department of Fundamentals of Informatics, TUIT named after Muhammad al-Khwarizmi, Doctor of Technical Sciences, Prof.

J. Jumaev - Associate Professor, Department of Information Technology Bukhara State University

MUNDARIJAI

Kirish 6
1-mavzu: Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o’rni va imkoniyatlari 10
2-mavzu: Taqdimot yaratishning zamonaviy vositalari va ta’lim jarayonida qo’llanilishi. 39
3-mavzu. Elektron darslik 60
4-mavzu. Bilimni baholash tizimlari 83
5-mavzu: Ta’lim jarayonida animatsiyalardan foydalanish va ularning afzalliklar. 102
6-mavzu. Animatsiyalarni yaratish dasturlarida ishlash asoslari. 117
7- mavzu. Ta’lim resurslarini ishlab chiqishda audio materiallarga ishlov berish. 130
8- mavzu. Ta’lim resurslarini ishlab chiqishda video materiallarga ishlov berish. 147
9-mavzu. Ta’lim jarayonida web texnologiyalarlardan foydalanish. 166
10-mavzu. Google ta’lim veb-xizmatlari 193
11-mavzu. Elektron ta’lim va uni tashkil etish asoslari..... 211
12-mavzu. Elektron ta’limni boshqaruv tizimi moodleda kurs yaratish. 230
13-mavzu. Elektron ta’limni boshqaruv tizimi moodleda foydalanuvchilari bilan ishlash. 234
14-mavzu. Smart o’qitish ta’lim vositalari 240
15-mavzu. Smart interaktiv ta’lim vositalari. 256
Foydalanilgan adabiyotlar 265

СОДЕРЖАНИЕ

Введение 6
1-тема: Роль и возможности информatsионных и коммуникационных технологий в образовательном процессе 10
2-тема: Современные средства создания презентации и их применение в учебном процессе. 39
3-тема. Электронный учебник 60
4-тема. Системы оценки знаний 83
5-тема: Использование анимации в образовании и их преимущества. 102
6-тема. Работа в анимационных программах. 117
7- тема. Обработка аудиоматериалов при разработке образовательных ресурсов. 130
8- тема. Обработка видеоматериалов при разработке образовательных ресурсов. 147
9-тема. Использование веб-технологий в образовании. 166
10-тема. Веб-службы Google Education 193
11-тема. Основы электронного обучения и его организация 211
12-тема. Система управления электронным обучением Создание курса в Moodle. 230
13-тема. Система управления электронным обучением Работа с пользователями в Moodle. 234
14-тема. Умные учебные пособия 240
15-тема. Интеллектуальные интерактивные инструменты обучения. 256
Список литературы 265

CONTENT

Introduction 6
1-topic: The role and capabilities of information and communication technologies in the educational process 10
2-topic: Modern means of creating a presentation and their application in the educational process. 39
3-topic. Electronic textbook 60
4-topic. Knowledge assessment systems 83
5-topic: The use of animation in education and their benefits 102
6-topic. Working in animation programs. 117
7- topic. Processing of audio materials in the development of educational resources. 130
8- topic. Processing of video materials in the development of educational resources. 147
9-topic. The use of web technologies in education. 166
10-topic. Google Education Web Services 193
11-topic. Basics of e-learning and its organization 211
12-topic. E-Learning Management System Creating a Course in Moodle. 230
13-topic. E-Learning Management System Working with Users in Moodle. 234
14-topic. Smart tutorials 240
15-topic. Intelligent Interactive Learning Tools. 256
List of references 265

KIRISH

Ta’lim sohasida axborot texnologiyalari bevosita ta’lim tizimini va xalq xo’jaligining turli sohalarini rivojlantirishga va zamonaviy ish o‘rinlarini yaratishga asos solmoqda. Ta’lim tizimida axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha bir qator ishlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi, «Elektron tijorat to‘g‘risida»gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to‘g‘risida»gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori asos qilib olinmoqda. Mazkur qonun, qaror va farmonlarda «...maktablar, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy o'quv yurtlarining ta’lim jarayoniga zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalarini egallashga hamda ularni faol qo‘llanishga asoslangan ilg‘or ta’lim tizimlarini kiritish» vazifalari belgilab qo'yilgan. Shuning uchun ham har bir mutaxassis o‘z sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqamli texnologiyalarning ko'payishi bilan ta'lim uzluksiz, individual yo'naltirilgan, moslashuvchan va dinamik jarayon shaklini oladi. YuNESKO zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda 21-asrning yuqori texnologik ta'lim kompetentsiyalari va ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'z vazifasiga muvofiq, YuNESKOning Ta'limdagi Axborot Texnologiyalari Instituti (IITE) YuNESKOning AKTdan turli sohalarda va ta'limning turli darajalarida foydalanish bilan bog'liq dasturlarini amalga oshirishda ishtirok etishga chaqiriladi.

O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasida ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilgan bo’lib, ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo’yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

1.Raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali mutaxassis-texngik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;

2.Zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integrastiyasini ta’minlash, bu borada pedagog-kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo’shimcha sharioitlar yaratish;

3.Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar asosida individual-lashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “Blended learning”, “flepped classroom” texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;

4.Zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish;

5.Ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o’zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarda yuklovchi “e-minbar” platformasini amaliyotda joriy etish, ta’lim jarayonlarida “Bulutli texnologiyalardan” foydalanish;

6.Masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta’lim muassasasida o’qishni tamomlagandan so’ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishni yo’lga qo’yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish;

7.Milliy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog’ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o’quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish.[3].

Ta’limda axborot texnologiyalari fani axborot texnologiyalari ta’lim jarayonida foydalanish asoslarini o’zida mujassamlashtirgan bo’lib, unda turli zamonaviy o’quv texnik vositalar bilan ishlash, multimedia o’quv materiallarini yaratish usul va vositalari, zaruriy dasturiy ta’minotlar, internet tarmog’idan ta’lim tizimida foydalanish kabi bilim va ko’nikmalar hosil qilishga yo’naltirilgan materiallar aks ettirilgan.

Ushbu o‘quv qo'llanma takomillashtirilgan dastur asosida yaratilgan bo‘lib, uning mazmunida an’anaviy mavzular bilan bir qatorda, yangi mavzular ham o‘z aksini topgan. Jumladan, masofaviy ta’lim texnologiyalari, Big data, cloud texnologies, Smart texnologiya-lar va google sayt xizmatlari haqidagi ma’lumotlar va axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi kabi mavzular bo'yicha

bilimlarni va mustaqil o'qish uchun yetarli nazariy ma’lumotlami o‘z ichiga olgan.

O‘quv qo‘llanma 15 ta mavzudan iborat bo‘lib, har bir bob nazorat savollarini o‘z ichiga oladi. Keltirilgan materiallar mualliflar tomonidan yillar davomida axborot texnologiyalari, axborot tizimlari kabi fanlardan to‘plangan tajriba asosida shakllantirilgan. Mazkur qo’llanma bakalavriat yo’nalishining 5111400-Xorijiy til va adabiyoti (Tillar bo’yicha) ta’lim yo’nalishida o’qitiladigan “Ta’limda axborot texnologiyalari” o’quv fani bo’yicha tuzilgan.

1-MAVZU: TA’LIM JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O’RNI VA IMKONIYATLARI

1.Ta’lim jarayonida axborot-kommunikastiya texnologiyalarining o’rni va imkoniyatlari.
2.Ta’lim jarayonida qo’llaniladigan axborot–kommunikastiya texnologiyalari, texnik va dasturiy vositalardan foydalanish.
3.Zamonaviy o’quv-texnik vositalari va ularning tasnifi.
4.Pedagogning axborot- kommunikastiya texnologiyalari kompetentligi.

1.1.Ta’lim jarayonida axborot-kommunikastiya texnologiyalarining o’rni va imkoniyatlari.

XXI-asr axborot texnologiyalari asridir. Axborot texnologiyalari hayotimizning barcha jabhalariga kirib kelgan va mustahkam joy olgan. Hozirda qanday soha bo’lmasin, uni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Xo’sh, axborot texnologiyalari o’zi nima?
Axborot texnologiyalari – bu obyekt, jarayon yoki hodisalar holati haqidagi ma’lumotlarni bir ko’rinishdan ikkinchi, sifat jihatdan mutloq yangi ko’rinishga keltiruvchi ma’lumotlarni to’plash, qayta ishlash, uzatishning vosita va usullari majmuasidan foydalanish jarayonidir. Bu, albatta, keng ma’nodagi ta’rifdir, chunki evolyusiya jarayonida insonlar bir-biri bilan aloqaga kirish uchun turli bosqichlarda muayyan aloqa vositalaridan foydalanganlar. Lekin hozirgi kunda barchamiz kompyuter, mobil aloqa vositalari, internet va telekommunikasiya vositalaridan foydalanar ekanmiz ushbu texnologiyalarining markaziy qismi hisoblash mashinasi bo’lganligi sababli axborot texnologiyalarini torroq ma’noda, kompyuter axborot texnologiyalari ma’nosida ishlatganimiz ma’qulroq. Shundan kelib chiqqan holda, **zamonaviy axborot texnologiyalari** – bu kompyuter yordamida axborotni qabul qilish, saqlash, qayta ishlash va uzatish usul va uslublaridir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, «Ta’limda axborot texnologiyalari” kursining asosiy maqsadi talabaning kasbiy faoliyati bo’yicha qo’yilgan masalalarni yechishda zarur dasturiy vositalarni to’g’ri tanlash, olingan bilimlari asosida qo’yilgan masalalarni yecha olish,

zamonaviy axborot texnologiyalari vositalaridan mustaqil foydalana olish ko’nikmalariga ega bo’lishga qaratilgan.

Talabalarni zamonaviy texnika vositalari va axborot texnologiyalari asoslari bilan tanishtirish, erishilgan yutuqlar va axborot texnologiyalarining imkoniyatlari mohiyatini tushuntirish va ularni ta’lim olish jarayonida amaliy qo’llay olish fanning asosiy vazifasi deb hisoblanadi.

Oliy ta’lim tizimi talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bo’lajak o’qituvchining chukur bilim va samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo’lishi ma’lum fan asoslari borasida unda etarli nazariy va amaliy bilimlarning, ta’lim jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining nechog’lik shakllanganiga bog’liqdir. Bakalavriat yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo’yicha pedagog kadrlar tayyorlashning sifatini ko’tarishda, fan taraqqiyotining eng so’nggi natijalari bilan talabalarni xabardor qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fan va texnika yangiliklarini o’quv dasturlari mazmuniga tez kiritilishini ta’minlash talabalardash zamonaviy bilim hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga zamin yaratadi. Bundan tashqari zamonaviy o’qitish texnologiyalari va ular bilan bog’liq metodik yondashuvlar bo’lajak o’qituvchilarda zaruriy bilimlar, muhim qonuniyatlar va qo’plab fundamental tushunchalarni nisbatan engil va mustahkam shakllanishi uchun yaxshi sharoit yaratadi.

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llashning zamonaviy tendensiyalari.

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasida ta’limga juda katta ahamiyat berib kelinmoqda. Darxaqiqat, har qanday davlat ravnaqini belgilab beradigan eng asosiy omil – kadrlar deb hisoblanadi. “Ta’lim to’g’risida”gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida izchil olib borilayotgan islohatlar bunga yaqqol misol bo’la oladi. O’sib kelayotgan barkamol, har tomonlama rivojlangan, keng tafakkurga ega bo’lgan avlodni tarbiyalash hamda jahon hamjamiyatiga integrasiya qilish maqsadida chet tillarni o’qitish hozirgi kunda davlatimizning ustivor vazifalaridan deb hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yildagi 1875-sonli “Chet tillarni o’qitish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari” to’g’risidagi farmoni ushbu yo’nalishdagi vazifalarni belgilab berdi. Jumladan, yuqori malakali

chet tili o’qituvchilarini tayyorlash, ta’limida axborot va media-texnologiyalaridan keng foydalanish, darsda interfaol metodlarni qo’llash kabi vazifalar shular sirasidandir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidkentining 2013 yil 23 maydagi PQ-1971-sonli “O’zbekiston davlat jahon tillari universitetining faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorida O’zbekiston davlat tillari universitetiga chet tillari o’qitishning zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish malakasiga ega bo’lgan umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-xunar ta’lim muassasalari uchun chet tillari bo’yicha yuqori malakali o’qituvchilarni tayyorlash vazifasi yuklatilgan. «Axborot texnologiyalari” fanining maqsadi aynan mana shu ustivor vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan.

Xorijiy tillarni samarali o’qitishda axborot texnologiyalarining imkoniyatlari juda katta va shuning uchun pedagog kadrlarni tayyorlashda uning o’rni alohida. Xorijiy tillarni o’qitishda qo’llaniladigan axborot texnologiyalari, texnik va dasturiy vositalarni bilish bilan birga xorijiy tillarni o’qitishda multimedia resurslarini yaratish va ishlov berish texnologiyalari, shaxsiy elektron ta’lim resurslarini shakllantirish, xorijiy tillarni o’qitish bo’yicha elektron o’quv kurslarini loyihalashtirish, o’quvchilar bilimini baholash tizimlari, xorijiy tillarni o’qitishda internet texnologiyalari, masofaviy o’qitish texnologiyalari va uni tashkil qilish usullaridan foydalanish, video konferensiya, ommaviy on-line ochiq kurslar(Coursera, edX, Khan Academy, MIT Open Course Ware)ni tashkil etish kabi malakalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik faoliyatda amaliy dasturiy vositalardan foydalanish, ular yordamida elektron darsliklar, trenajyorlar, virtual laboratoriya mashg’ulotlarini yaratish usullarini bilish, Misrosoft Word, Excel, Power Point va boshqa dasturlarida elektron o’quv-metodik materiallarini yaratish usullariga ega bo’lish bilan birga Web 2.0/3.0 texnologiyalari yordamida elektron didaktik materiallarni yaratish va ta’lim jarayonida qo’llash chet tili o’qituvchisi mahoratini belgilashning muhim omillaridan deb hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimini modernizastiya qilish, o’qitishning

zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo’yicha keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy sohaning ehtiyojlaridan kelib chiqib, hududlarda yangi oliy ta’lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlash bo’yicha yangi zamonaviy ta’lim bosqichlari, yo’nalishlari va mutaxassisliklari ochilishi xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta’lim va o’rta maxsus tizimini yaratish eng ustuvor vazifadir.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim va ilm-fan tizimini rivojlantirish bo’yicha olib borilayotgan keng ko’lamli izchil ishlar yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo’lgan sharoitlarni ta’minlashga zamin yaratdi. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan ishlarning tahlili oliy ta’lim tizimi oldida turgan vazifalarni samarali tashkil qilish, amalga oshirishga to’sqinlik qilayotgan ayrim muammo va kamchiliklar mavjudligini ko’rsatmoqda. *Xususan:*

birinchidan, oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimida o’qitishni tashkil etish jarayoni, ta’lim berayotgan professor-o’qituvchilar tomonidan fan mazmunini etkazish va ta’lim olayotgan talabalarni o’zlashtirish hamda ularning bilimini to’g’ri baholash tizimi talab darajasida emas;

o’quv jarayonini zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etish borasida ta’lim dasturlari mazmuni va ularni yangilab borish sur’atlari bugungi kunda izchil rivojlanayotgan iqtisodiyot tarmoqlari va mehnat bozorining o’zgaruvchan talablariga to’laqonli javob bermaydi;

ikkinchidan, professor-o’qituvchilarning o’z ustida doimiy ishlamaganligi, bilimi, pedagogik ko’nikmasi va mahoratining pastligi, innovastion ta’lim texnologiyalaridan foydalanmaganligi bitiruvchilarni buyurtmachi (ish beruvchi) talabiga javob bermasligiga olib keldi;

uchinchidan, oliy ta’lim va o’rta maxsus muassasalari innovastion va texnologik g’oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlariga aylanmaganligi, tegishli sohalarda mavjud muammo va kamchiliklarning tizimli o’rganilmaganligi sohada ilm-fan yo’nalishlarining rivojlanmaganligiga olib keldi;

to’rtinchidan, oliy va o’rta maxsus ta’lim muassasalaridagi zamonaviy axborot-kommunikastiya texnika va texnologiyalari

boshqaruvi, o’quv-jarayonini tashkil etish, dasturiy vositalarni ta’lim mazmuniga singdirish masalalari talab darajasida emas;

oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va modernizastiya qilish, ularni zamonaviy o’quv laboratoriyalari hamda axborot-kommunikastiya texnologiyalari bilan ta’lim yo’nalishlarining dasturlari talablariga muvofiq ravishda ta’minlanmagan.

O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo’nalishlariga muvofiq xalqaro talablarga mos oliy va o’rta maxsus ma’lumotli mutaxassislarni sifatli tayyorlashni tashkil etish borasida oliy va o’rta maxsus ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida ta’lim sohasiga doir bir qancha farmon va qarorlar ishlab chiqilgan.

O’zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909 sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” qaroriga asosan:

- ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o’quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o’qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish;

- Oliy ta’lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo’yicha eng muhim vazifalar etib quyidagilar belgilansin: oliy ta’lim muassasalarini zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari vositalari bilan jihozlash, oliy ta’lim muassasalari talabalari, o’qituvchilari va yosh tadqiqotchilarining jahon ta’lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma’lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Prezident Farmoni bilan O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasi tasdiqlandi.

Konstepstiyaga binoan, 2030 yilga borib quyidagilarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda:

-Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo’yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

-raqamli iqtisodiyot uchun yuqori malakali muhandis-texnik kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish;

zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integrastiyasini ta’minlash, bu borada

pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo’shimcha sharoitlar yaratish;
- ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish;
-zamonaviy axborot-kommunikastiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish;
-ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar, seminarlarni onlayn kuzatish va o’zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi «E-MINBAR» platformasini amaliyotga joriy etish, ta’lim jarayonlarida «bulutli texnologiyalar»dan foydalanish;
-masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta’lim muassasasida o’qishni tamomlaganlaridan so’ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo’lga qo’yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish;
-milliy elektron ta’lim resurslari yaratilishini jadallashtirish, xorijiy elektron ta’lim resurslarini tarjima qilish ishlarini tashkil etish, ta’lim jarayonida elektron resurslar salmog’ini bosqichma-bosqich oshirib borish, elektron o’quv adabiyotlar yaratish, ularni mobil qurilmalarga yuklab olish maqsadida kutubxonalarda QR-kod yordamida elektron resurslar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;
-oliy ta’lim muassasasining konferenstiya materiallari, bitiruv-malakaviy ishlar, magistrlik va doktorlik dissertastiyalaridan iborat ilmiy-texnik ma’lumotlar elektron bazasini yaratish, kelgusidagi ilmiy-texnik ma’lumotlar yangiligini ta’minlash maqsadida antiplagiat tizimidan foydalanishni keng joriy etish;
-ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklarining o’ziga xosligidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo’llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish;
Bundan ko’rinadiki ta’lim sohasida axborot texnologiyalaring o’rni beqiyosdir.

1.2.Ta’lim jarayonida qo’llaniladigan axborot–kommunikastiya texnologiyalari, texnik va dasturiy vositalardan foydalanish.

Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud bo’lib, ularni quyidagicha tavsiflash mumkin:

Ichki omillar - bu axborotning paydo bo’lishi (yaratilishi), turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash imkoniyatidir.

Tashqi omillar - bu axborot texnologiyasining texnika-uskunaviy vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Ta’limda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishiga bir tomondan ularning texnik va dasturiy yechimlarida yangidan yangi g’oyalar bo’lsa, boshqa tomondan foydalanuvchilarga ularning ma’qul kelishi sabab bo’lmoqda. Masalan, mobil aloqa. Hozirgi kunda mobil aloqa vositalari ekranga va virtual klaviaturaga ega bo’lib, kompyuter, faks apparati, telefon apparati, qaydlar kitobchasi vazifalarini bajaruvchi ko’p maqsadli abonent tizimiga aylanmoqda, ularning imkoniyatlari kundan-kunga kengaymoqda, mobil aloqa vositalariga xizmat qiluvchi tizimlar jadal suratlarda rivojlanib bormoqda. Mobil aloqa vositalalari rivojlanishi bilan birga mobil aloqadan ta’lim muhitida foydalanish ham rivojlanib bormoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining vositalari qatoriga: kompyuter, skaner, videoko’z, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqlari, mobil aloqa tizimlari, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun’iy intelekt tizimlarini kiritish mumkin. Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o’zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o’z ichiga oladi:

- kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proektori, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta’minoti;
- uskunaviy dasturiy ta’minot;
- virtual matn konstruktorlari, multiplikastiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik xaritalar, ekran prostessorlari va h.k.;
- axborotlar majmui — ma’lumotnomalar, enstiklopediyalar, virtual muzeylar va x.k.;

- texnik ko’nikma trenajyorlari (tugmachalar majmuidan tugmachalarga qaramasdan ma’lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o’zlashtirish va h.k.).

Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir. ***Hozirgi kunda kompyuterlar ta’lim tizimida asosan to’rt yo’nalishda:***

- o’rganish ob’ekti sifatida;
- o’qitishning texnik vositalari sifatida;
- ta’limni boshqarishda;
- ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda.

O’quv jarayonida kompyuterlar asosan quyidagicha foydalanilmoqda:

- passiv qo’llash – kompyuter oddiy hisoblagich kabi;
- faol muloqat – kompyuter o’quvchiga yo’l – yo’riq berish va imtihon olishda;
- interfaol muloqat – kompyuter sun’iy intellekt sifatida, ya’ni o’quvchi bilan muloqot qilishda foydalaniladi.

Ta’limda zamonaviy axborot va kommunikastiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- fan sohalarini axborotlashtirishni;
- o’quv faoliyatini intellektuallashtirishni;
- integrastiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- ta’lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta’lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o’quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini;
- pedagoglar o’rtasida vazifalarning taqsimlanishini;
- ta’lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’lim jarayonlariga joriy etilishi:

- o’rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o’zlashtirilishiga;
- o’quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga tinglovchining mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;

- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o’qitish jarayonini individuallashtirish va differenstiyalashtirishga;

- sun’iy intellekt tizimi imkoniyatlaridan foydalanish orqali tinglovchining o’quv materiallarini o’zlashtirish strategiyasini egallashiga; - axborot jamiyati a’zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;

- o’rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, o’quvchilarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanish quyidagi natijalarga olib keladi:

- berilayotgan materialni chuqur va mukammal o’zlashtirish imkoniyati va uni ta’lim oluvchi xotirasida uzoq muddat saqlanishi va zarur bo’lganda amaliyotga qo’llash darajasi ortadi;

- axborotni turli shaklda (matn, video, ovoz, grafika, animastiya) berilishi ta’lim oluvchilarni diqqatini tortadi va ularni fanga qiziqishini uyg’otadi;

- kompyuter “nazoratchi” funkstiyasini bajarib ta’lim oluvchining didaktik topshiriqlar, test savollari, muammoli vaziyatlarga bergan javoblarini, ya’ni o’zlashtirganlik darajasini aniqlab natijalarini monitorda ko’rsatadi;

- dars jarayonida ta’lim oluvchilar faoliyatini boshqaruvchi vosita bo’lib xizmat qiladi va bajarilishi lozim bo’lgan topshiriqlar soni keskin ortadi, buning natijasida egallanishi lozim bo’lgan bilimlar xajmining oshishiga olib keladi;

- o’quv mashg’ulotining tarkibiy tuzilishini modifikastiyalash, ya’ni o’qituvchi tomonidan bajarilayotgan ko’pgina tashkiliy ishlarni kompyuter texnikasi yordamida amalga oshirilib vaqt tanqisligi muammosi kamayadi;

- ta’lim oluvchi faol ishtirokchiga aylanib, mustaqil ta’lim olish imkoniyati sohalari kengayadi va o’qituvchi bilan erkin hamda teng muloqatga kirisha oladigan hamkorga aylanadi.

Multimedia texnologiyalari. Mul’timedia bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida audio, video, matn, grafika va animastiya effektlari asosida o’quv materiallarini o’quvchilarga etkazib berishni mujassamlangan holdagi ko’rinishidir.

Multimedia– bu zamonaviy kompyuterli axborot texnologiyalari bo’lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvir va animastiyani

(multiplikastiyani) yaxlit kompyuter tizimiga birlashtirish imkonini yaratadi. Multimedia amaliyotdagi ish tartibi – bu apparat-dasturiy muhit bo'lib, kompyuterga axborotni kiritish, ishlov berish, saqlash, uzatish va matn, chizmalar, videotasvir, tovush hamda nutqlarni insonga zarur va qulay holatda etkazishdir.

Multimedia mahsuloti – tarkibida musiqa taraladigan, videokliplar, animastiya, rasmlar va slaydlar galereyasi, turli ma'lumotlar bazalari va boshqalar kirishi mumkin bo'lgan interfaol, kompyuterda ishlangan mahsulotdir. Multimedia texnologiyasi axborotni bir vaqtning o'zida insonga tushunarli, ko'p shakllar (jumladan, nutq, rasm, chizma, tasvir, musiqa, raqam va harflar) kombinastiyasida havola qila oladi. Bu texnologiya axborotni qidirish, nusxa olish va boshqa biror kompyuterga ko'rsatilgan shaklda ko'chirib o'tkaza oladi hamda ularning xohlagan kombinastiyasini yarata oladi. Undan tashqari multimedia texnologiyasidan foydalanuvchi o'zi dizayn bilan shug'ullana olishiga imkon beradi, shuningdek statik (harakatsiz) va dinamik (harakatlanuvchi) tasvirlarni yaratishi hamda o'z ijodiy ishining natijalarini aloqa kanallari orqali tashqi muhitga tar- qatishi mumkin.

Mobil aloqa muhiti– tayanch stansiyalar va bir guruh abonentlar tizimidan iborat bo'lib, abonentlarning bir-birlari bilan o'zaro axborot almashinuvini ta'minlovchi texnik-dasturiy vositalar majmuasidir.

Mobil aloqa xizmati operatorlari – abonentlar (mijozlar) uchun mobil aloqa xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotdir. Operatorlar vazifasiga radio chastotadan foydalanish va xizmat ko'rsatish uchun kerakli hujjatlarni olish, o'zining mobil tarmog'ini tashkil qilish, foydalanish, xizmat shartlarini ishlab chiqarish, xizmat to'lovlarini yig'ish va texnik xizmat ko'rsatish kiradi. Hozirgi paytda O'zbekiston hududida 5 ta mobil aloqa operatori xizmat ko'rsatmoqda, ular - UMS, Bilayn, Ucell, Perfektum Mobayl, O'zbektelekom Mobayl. Ushbu 5 ta mobil operator tomonidan bugungi kunda mobil so'zlashuv, SMS, MMS, GPRS, Internet va boshqa turli xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Foydalanishda esa hajmi kichikligi va bejirimligi tufayli kompyuterdan ancha afzaldir. Ularning ba'zi turlarini ko'rib chiqaylik:

Smartfon (*smartphone*) inglizchadan «aqlli telefon» ma'nosini anglatadi. Funksionalligi jihatidan cho'ntak shaxsiy kompyuteriga yaqin bo'lgan mobil telefon. Unda cho'ntak kompyuterining barcha imkoniyatlari mujassam topgan.

iPhone- to’rt diapazonli multimediyali smartfonlar. iPhone o’zida telefonning asosiy vazifalaridan tashqari kommunikator va internet planshetlarning asosiy vazifa(funksiya)larini ham qamrab olgan.

Internet planshetlar– bu maxsus mobil qurilma bo’lib, shaxsiy kompyuterning klassik namunasidir. Planshetlar (masalan: iPad) tashqi ko’rinish jihatidan kompyuterdan butunlay farq qiladi. Planshetlar faqatgina ekrandan tashkil topgan bo’lib, boshqa qo’shimcha qurilmalar (sichqoncha, klaviatura) virtual ko’rinishda tashkil etilgan. Planshetlar to’liqligicha mobil aloqa muhiti orqali Internet xizmatlaridan foydalanishga va hujjatlar bilan ishlashga ixtisoslashgan.

Axborotlarni uzatish yaqin patylargacha Bluetooth, SMS va MMS texnologiyalari yordamida amalga oshirilgan bo’lsa, hozir asosan Messengerlardan, ayniqsa ommalashib ketgan Telegrammdan foydalnilmoqda. Mana shu misol ham axborot texnologiyalari xizmatlari tez rivojlaniyotganligidan dalolat beradi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi foydalanuvchilar auditoriyasiga ta’sir etishini Web-texnologiyalari misolida ko’rishimiz mumkin. Masalan, Web.1 muhitida foydalanuvchilar Internetdagi ma’lumotlarni faqat o’qishi (yoki ko’chirib olishi) mumkin edi. Web.2 muhitida esa foydalanuvchi o’zi forum yoki konferensiyalar tashkil etishi, o’zining blogini e’lon qilishi, elektron resurslarni yaratib (m-n, rasmlar) Internetda joylashtirishi, muloqotdoshlari bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlar yaratishi mumkin. Hozirgi kunda har qanday davlatning qudrati qandaydir ma’noda Internet makonida milliy Internet-resurlarining ko’lami bilan, boshqa milliy resurslarga nisbatan ko’proq bo’lishi, kezi kelsa, butun jahon tarmog’ida taniqliroq bo’lishi bilan bog’liq bo’lib qoldi. Web.2 texnologiyalar mavjudligi tufayli elektron resurslar shunchalik ko’payib ketdiki, sifatli elektron resurslarni tez ajratib olish katta muammoga aylandi. Kerak bo’lsa, Internet – ong uchun kurash maydoniga aylandi. Ayniqsa yoshlarning endi shakllanib borayotgan ongiga internet orqali ta’sir ko’rsatish g’arazli kuchlarga juda qo’l kelmoqda. Bizning mentalitetimizga zid bo’lgan ommaviy madaniyat yoki terrorizmga da’vatlar shular qatoridadir. Shuning uchun, bir tomondan, foydalanuvchilarda yovuz ta’sirlarga qarshi immunitetni shakllantirish muhum bo’lsa, boshqa tomondan milliy internet resurslarni yetarli darajada ko’paytirish zarurdir. Sifatli elektron resurslarni saralab beruvchi tizimlar (miksherlar) hozirgi kunda Web.3 muhitining qiyofasini belgilab

bermoqda. Bundan kelib chiqmodaki, zamonaviy internet foydalanuvchisi - bu sifatli elektron resurslarni yaratuvchi va internetga joylashtiruvchi shaxs deb qaralishi kerak.

Elektron resurs axborot texnologiyalarida hujjat deb nomlanadi.

Hujjat -matn, tovush yoki tasvir shaklida yozilgan axborot bo'lib, zamon va makonda uzatish hamda saqlash va jamoat tomonidan foydalanish uchun mo'ljallangan moddiy obyektdir.

Hujjatlarni shakliga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- Matnli hujjatlar - qog'ozga qo'l yoki kompyuter vositalari yordamida tushirilgan qandaydir ma'no beruvchi so'zlar ketma-ketligi.
- Tovushli hujjatlar - ovoz yozish vositalari yordamida yozib olingan tovushli axborot.
- Tasvirli hujjatlar - fotosurat, rang tasvir mahsuli.
- Elektron hujjat - elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatni identifikasiya qilish (tanib olish) imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga (ma'lumotlarga) ega bo'lgan axborot.

Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va saqlanadi. Bunda bir tomondan maxsus amaliy dasturlar qo'l keladigan bo'lsa, boshqa tomondan internetda axborot tizimlarining o'zida bunday imkoniyatlar mavjud. Bunga Googledagi masalan test yaratish va ishlatish imkoniyatlari va unga o'xshash tizim xizmatlari yaqqol misol bo'laoladi.

Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat bosqichida mamlakatimizda axborot kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish, ta'lim tizimiga horijiy ilg'or tajribalarni, texnologiyalarni jalb etish va ulardan amalda foydalanish ta'lim sohasining muhim vazifalardan biri deb sanaladi. Masalan, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallariga videokonferensiya aloqa terminallarining o'rnatilishi yuqori malakali professor-o'qituvchilarining ma'ruzalarini tinglash, unda filial talabalarining virtual tarzda ishtirok etishini ta'minlash, amaliy mashg'ulotlarni birgalikda bajarish, ilmiy-amaliy konferensiya, semenar, treninglar, vertual ko'rgazmalarni hamkorlikda o'tkazish imkonini berdi. Ayni

vaqtda filial professor-o’qituvchilari va talabalari VPN tarmog’i orqali xohlagan axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo’ldilar.

Ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini qo‘llash borasidagi dolzarb vazifalar va ustuvor yo‘nalishlari.

Bugungi kunda, o'qish-o'qitish jarayonini yangi axborot tehnologiyalarni qo'llanilishi siz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu o'z navbatda: programmalashtirilgan o'qitish (bilimlarni o'zlashtirish jarasnini avtomatlashtirilgan dastur asosida boshqarish yo'li bilan o'qitish), interfaol o'qitish, multimedia taqdimotlar, Internet resurslar, dasturiy vositalar va x.k.larni o'z ichiga olgan. Yuqorida keltirilganlarni, amaliyotga samarali joriy etish jarayoni ishlatilayotgan tehnik vositalar bilan bevosita bog’liq.

Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanib, ta’lim sohasida, o‘quv faoliyatida va o‘quvchilar ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yangi imkoniyatlar yaratiladi. Axborot texnologiyalari ta’limni amalga oshish jarayonida hayot bilan uyg‘unlashtirishga imkon beradi. O‘qitishni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi. Axborot texnologiyalarini qo‘l-lashda o‘quvchi shaxsining butun imkoniyatlarini amalga oshirishga: kompyuter vositalari orqali bolaning bilishga oid, axloqiy, ijodiy, muloqot qilish va estetikaviy imkoniyatlarini, qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilish lozim. Kompyuter va axborot texnologiyalarini o‘quvchi shaxsini rivojlantirishning to‘laqonli vositasiga aylantirish uchun o‘qituvchining o‘zi axborot texnologiyalari sohasida bilimdon (salohiyatli) bo‘lishi kerak.

Jahon pedagogikasi amaliyotida qator olimlar, jumladan, M. V. Bulanova-Toporkova va boshqalar o‘qituvchining axborot texnologiyalari sohasidagi bilimdonligini quyidagi sifatlar bilan baholaydilar:

1) zamonaviy axborot muhitida faoliyat tajribasini baholash va integratsiyalashga qodirlik;

2) shaxsiy ijodiy sifatlarini rivojlantirishga intilish;

3) umumiy komunikativ (o‘zaro muloqot qilish) madaniyatining yuqori darajada bo‘lishi;

4) axborot vositasida o‘zaro birlashib xatti-harakatlarni bajarish masalasida nazariy tushunchalarning va uni tashkillashtirish tajribasining bo‘lishi;

5) o‘zini refleksiyalash (o‘z ruhiy holatini tahlil qilish) ehtiyojining bo‘lishi;
6) axborotni qabul qilish, tanlash, saqlash, qayta tiklash, taqdim etish usullarini, uni o‘zgartirish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o‘zlashtirish.

Kompyuterning imkoniyatlari juda katta, biroq pedagogik maqsadlarda u yetarli darajada foydalanilmayapti. O‘qitish maqsadidagi axborot uni loyihalashtirish bosqichida kiritiladi. Xususan, axborot — avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimlarining ma’lumotlar bazasini yaratishda, elektron darsliklarni tuzish uchun o‘quv materialini tayyorlashda, modellashtiriuvchi turdagi kompyuter tizimlari bilan o‘quv ishlarining ssenariylarini, masalalar va mashqlar, test topshiriqlari tuzishda kiritiladi. Axborot texnologiyalari bir yo‘la bir necha fan sohalariga informatika, matematika, kibernetika, psixologiya, pedagogika kabi fanlarga oid ma’lumotlarni birlashtiradi. Biroq bu uyg‘unlikda psixologik-pedagogik asos yetakchi o‘rin tutadi. Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va o‘qitish jarayoniga joriy qilish muhim o‘rin egallaydi. Yangi axborot texnologiyalari o‘quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlari uchun katta ahamiyatga ega. Odatdagi ta’limiy texnologiyalardan farqli ravishda, axborot texnologiyalarida mehnat predmeti va uning natijasi sifatida axborot, mehnat quroli bo‘lib esa axborotlashtirishning texnikaviy vositalari xizmat qiladi. Kompyuter vositalari o‘quv-tarbiya jarayonining turli bosqichlarida:

- o‘quvchilarga o‘quv materiallarini taqdim etish bosqichida;
- kompyuter bilan interfaol o‘zaro birgalashib, harakat qilish jarayonida o‘quv materialini o‘zlashtirishda;
- o‘zlashtirilgan bilimlar, malakalar va ko‘nikmalarni takrorlash va mustahkamlashda;
- o‘qitishda erishilgan natijalarni oraliq va yakuniy nazorat qilish va o‘z-o‘zini nazorat qilish bosqichida;
- o‘quv materialini qismlarga bo‘lish, uni klassifikatsiyalash va tizimlashtirishni takomillashtirish orqali o‘qitish jarayoniga va uning natijalariga tuzatishlar kiritish bosqichida foydalanilishi mumkin.

Axborot muhiti zamonaviy darajadagi axborot bazalari, gipermatn va multimediya, imitatsion o‘qitish, elektron kommunikatsiyalar, ekspert tizimlarini kiritadi. Hozirgi kunda kompyuter o‘qitishning qudratli

vositasiga aylangan. *Kompyuterli texnologiyada o‘qituvchinng ishi, V. K. Selefko ta’kidlaganidek, quyidagilardan iborat:*

1. butun sinf o‘quv predmeti darajasida o‘quv jarayonini tashkillashtirish (o‘quv jarayoni grafigi, sirtqi tashhis, yakuniy nazorat);
2. sinf ichida o‘quvchilarni faollashtirish va ularning ishini muvofiqlashtirish, ish o‘rinlarini joylashtirish, yo‘riqnoma berish, sinf ichkarisidagi tarmoqni boshqarish kabilar;
3. o‘quvchilarni individual kuzatish, individual yordam ko‘rsatish, bolalar bilan individual «insoniy» munosabat. Kompyuter yordamida individual o‘qitishning ko‘rish va eshitish obrazlarini foydalanuvchi mukammal variantiga erishiladi;
4. axborot muhiti tarkibiy qismlarini tayyorlash, ularning ma’lum bir o‘quv fani mazmuni bilan bog‘liqligidan iborat.

Kompyuter o‘qituvchining faol yordamchisiga aylanadi. Kompyuter slaydlarini foydalanish evaziga interfaol darslar bilishga taqdim etiladigan axborot mazmuni bilan birga, ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Dars mavzusini bayon qilishda o‘qituvchi illyustratsiya sifatida slaydlardagi axborotni kerak joylarda taqdim etib boradi. Rasmlar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar, formulalar ovoz jo‘rligida, multiplikatsiya elementlari hamkorligida taqdim etilib, o‘qituvchining izohlari bilan beriladi.

1.3.Zamonaviy o’quv-texnik vositalar

Kompyuterlar katta kompyuterlar va kichik kompyuterlar sinfiga bo’linadi. Katta kompyuterlar sinfiga serverlar va superkompyuterlar kiradi. Kichik kompyuter sinfiga esa shaxsiy kompyuterlar (ShK), portativ kompyuterlar kiradi.

Server kompyuteri deb kompyuter tarmog’ida asosiy axborotlar bazasini saqlovchi maxsus ajratilgan kompyuterga aytiladi.

Superkompyuterlar – juda katta tezlikni talab qiladigan va katta hajmdagi masalalarni yechish uchun mo’ljallangan kompyuterlardir. Ular oddiy shaxsiy kompyuterlarga nisbatan bir necha yuz barobar tez ishlaydi va maxsus amallarni bajaradi.



Shaxsiy kompyuterlar (ShK) hammabop va qo'llashda turli xil talablarni qondiruchi, bir kishi foydalanadigan kompyuterlardir. Shaxsiy kompyuterlarga kundalik ishlarimizda qo'llaydigan, uyda, ish joylarida joylashgan kompyuterlar, masalan, Pentium tipidagi kompyuterlar kiradi.

1.1-rasm.Shaxsiy kompyuterlar

Portativ kompyuterlar yo'lda olib yurishga mo'ljallangan ko'chma shaxsiy kompyuterlardir. Portativ kompyuterlarga Lap Top, Note Book, Palm Top, Elektron kotiblar (PDA), organizer kabi kompyuterlarni kiritishimiz mumkin.

«Lap Top» turidagi portativ kompyuterlar «diplomat» hajmidagi kichiq chemodanchalar ko'rinishida tayyorlanadi. Apparat va dasturiy ta'minot ularning eng yaxshi ko'chmas ShKlar bilan muvaffaqiyatli raqobatlashishiga imkon beradi.

Kompyuter-bloknotlar (Note Book va Sub Note Book, shuningdek, ularni Omni Book – «har yerda hozir» deb ham atashadi) stolda foydalaniladigan ShKlarning barcha vazifalarini bajaradi. Ular uncha katta bo'lmagan kitob hajmidagi chemodancha ko'rinishida tayyorlanadi. O'z xususiyatlariga ko'ra ko'p jihatdan Lap Topga mos keladi, faqat o'lchami va bir qator kichik hajmdagi operativ va diskli xotirasi bilan farqlanadi.

Kompyuter-bloknotlarning ko'pgina modellari aloqa kanaliga va shunga muvofiq hisoblash tarmog_iga ulanish uchun modemlarga egaaloqani ta'minlaydi. Ular uncha katta bo'lmagan hajmdagi suyuq kristalli monoxrom va rangli displeylarga ega. Klaviaturasi har doim qisqa, Tpack Point va Tpack Pad turidagi manipulyatorlarga ega.

Cho'ntak kompyuterlari (Palm Top, bu «kaftdagi» degan ma'noni bildiradi) 300 gramm og'irlikka ega. Ular to'laqonli shaxsiy kompyuterlar bo'lib, mikroprotsessor, operativ va doimiy xotira, odatda monoxrom suyuq kristalli displey, ixcham klaviatura, ko'chmas ShKgaaxborot almashuv maqsadlarida ulanish uchun port bo'limlariga ega.

Elektron kotiblar (PDA-Personal Digital Assistent, ularni ba`zan Hand Help – qo'l yordamchisi deb atashadi) cho'ntak kompyuteri

shakliga ega (og’irligi 0,5 kg dan ortiq emas), biroq Palm Topga nisbatan keng funksional imkoniyatlarga ega (xususan: nomlar, manzilgohlar va telefon raqamlarini saqlovchi elektron

ma‘lumotnomalar, kun tartibi va uchrashuvlar, joriy ishlar ro’yxatlari, harajatlar yozuvlari va boshqalar haqidagi axborotni tashkil qilishga yo’naltirilgan apparat va maxsus dasturiy ta‘minot), maxsus matnli, ba`zan esa grafik muharrirlik, elektron jadvallar tayyorlaydi.

Elektron yozuv daftarchalari (organizer – organayzerlar) ixcham kompyuterlarning «eng yengil sinfi»ga kiradi (bu sinfga ulardan tashqari kalkulyatorlar, elektron tarjimonlar va boshqalar kiradi); ularning og’irligi 200 grammdan oshmaydi. Organayzerlar foydalanuvchi tomonidan dasturlashtirilmaydi, biroq sig’imli xotiraga ega. Unga zarur axborotni yozish va uning yordamida maxsus matnni tahrir qilish, ish xatlari, bitim, shartnomalar matnlari, kun tartibi va ish uchrashuvlariga tegishli matnlar saqlanishi mumkin.

Kompyuter ikkita tarkibiy qismdan iborat. Ular asosiy va qo’shimcha qurilmalardir.

Shaxsiy kompyuterning asosiy qurilmalari quyidagicha.

1. Tizimli blok (Protsessor).
2. Ekran (Monitor).
3. Klaviatura.
4. Sichqoncha.

Qattiq disk (HDD) tashqi xotira hisoblanib, kompyuterda asosiy axborot saqlovchi qurilmadir. Unda barcha dastur va ma‘lumotlar saqlanadi. Qattiq disklarda tashuvchilar aylanadigan ferromagnetik qatlam bilan qoplangan alyuminiyli va karamikali disklardan iborat bo’lgani uchun ko’pincha qattik disk deb ataladi. Qattiq disk o‗lchamlari turlicha bo’lishi mumkin. Hozirgi kunda vinchesterlarning 80-1000 Gb dan 1 Tb gacha bo’lgan o’lchamdagi turlari mavjud.

CD-ROM (Compact Disk) va DVD-ROM (Digital Versatile Disk). Disklardagi ma‘lumotlarni o’qish va ularga ma‘lumotlar yozish uchun xizmlat qiluvchi qurilma. Dastlab bunday tashuvchilar ma‘lumotlarni faqat o’qish uchun mo’ljallangan bo’lib, ulardagi ma‘lumotlarni o’zgartish va qaytadan yozish imkoniyati yo’q edi. Hozir disk va disk yurituvchilarning ma‘lumotlarni yozadigan (writeable) va ko’p marotaba yozadigan (rewriteable) modellari mavjud.

Modem *(Modulyator-Demodulyator)* – telefon tarmog’i orqali boshqa kompyuterlar bilan axborot almashishni ta‘minlaydi.

Modem - aniq bir aloqa kanalida ishlatish uchun qabul qilingan signallarni to’g’ri (modulyator) va teskari (demodulyator) o’zgartirish qurilmasidir.

Modem – axborotni uzatishda raqamli signalni analogli signalga, axborotni qabul qilishda esa analogli signalni raqamli signalga o’zgartiradi.



Ko’pgina modemlar ma‘lumotlarni uzatish jarayonini ta‘minlashdan tashqari, telekommunikatsiya tizimlarida bir qator boshqa foydali vazifalarni ham bajaradi, jumladan:

– tovushni raqamlash va raqamlangan tovushni qayta tiklash operatsiyalari;

– faksimil axborotlarni qabul qilish va uzatish;

– chiqarayotgan abonentning nomerini avtomatik aniqlash (NAA);

– avtojavob beruvchi va yelektron kotib vazifalari va b.

Multimediya vositalari – kompyuter yordamida musiqa va ovozli ma‘lumotlarni ko’rsatishni ta‘minlaydi.



Multimediya vositalari - bu kompyuter texnologiyasining turli xil fizik ko’rinishga yega bo’lgan (matn, grafika, rasm, tovush, animaciya (xayvonlar tasviri), video va sh.o’.) va yoki turli xil tashuvchilarda mavjud bo’lgan (magnit va optik disklar, audio- va video-lentalar va h.k.) axborotdan foydalanish bilan bog’liq sohasidir.

Multimediya vositalariga quyidagilar kiradi: ma‘lumotlarni audio - (nutqli) va videokiritish va chiqarish qurilmalari; yuqori sifatli tovushli (sound) va video - (video) platalar, videoqamrash platalari (video grabber), ular videomagnitofondan yoki videokameradan tasvirni oladi va uni kompyuterga kiritadi; yuqori sifatli kuchaytirgichli, tovush kolonkali, katta videoekranli akustik va videoqabul qiladigan tizimlar, naushnik, mikrofon, proyektor, videoglaz, Web-kamera.



Plotterlar - grafik axborotni (chizmalar, sxemalar, rasmlar, diagrammalar va b.) kompyuterdan qog’ozli yoki boshqacha ko’rinishdagi tashuvchiga chiqarish qurilmasidir.

Ish tamoyili bo’yicha plotterlar ***peroli, purkagichli, lazerli, termografik, yelektrostatik*** bo’ladi.

Planshet – kompyuterga biror chizma va tasvirni maxsus qalam yordamida kirituvchi qurilma.



1.2.Planshet

Interfaol tehnik vositalar va ularning tahlili.

Kompyuter va mobil qo'rilmalar bilan birgalikda, ta'lim jarayonida zamonaviy (interfaol) o'qitish tehnik vositalari keng qullanib kelmoqda. Interfaol vositalar yordamida, yangi mavzuni o'rganishda, talabalar bilimini mustahkamlashda va tekshirishda, grafika, tovush va zamonaviy texnologiyalari bo'yicha yaratilgan mul'timedia mahsulotlaridan maksimal darajada unumli foydalanish mumkin. Bunda bilim olish jarayoni qiziqarli va kreativ tus oladi.

Zamonaviy o'qitish tehnik vositalarini urganib chiqamiz.

ACTIVboard (interfaol doska)bu – kompyuter va proektor bilan birgalikda ishlaydigan ta'lim berishning zamonaviy texnik vositasidir. *Interaktiv doska tarkibiga interaktiv doskaning o’zidan tashqari maxsus elektron qalam (stilus), dasturiy ta'minot vositalari (interaktiv doskaning drayveri va maxsus grafik muharrir) hamda USB kabel kiradi.*

Tegishli sozlash amallari bajarilib interaktiv doska ishchi holatga keltirilgach, proektor yordamida interaktiv doska yuzasiga tushirilayotgan tasvirlar bilan interfaol usulda ishlash mumkin. Ya'ni, elektron qalam yordamida kompyuterning grafik interfeysini boshqarish, turli ob'ektlarni yaratish, oldin yaratilgan ob'ektlarni ochish, ularga tegishli o’zgartirishlar kiritish va h.k. Kiritilgan barcha o’zgartirishlar va yaratilgan yangi ob'ektlarni, ularga kelgusida qo’shimcha ishlov berish uchun kompyuter xotirasiga yozib qo’yish yoki tashqi axborot tashuvchi vositalarga ko’chirib olish mumkin.

Interfaol doska maxsus elektron qalam orqali, shuningdek qo’l barmoqlari bilan ham boshqarilishi mumkin, bu interfaol doskanining qaysi texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqilganligiga bog’liq bo’ladi. Bunda, maxsus elektron qalam yoki qo’l barmoqlari kompyuter sichqonchasi kabi ishlaydi.

Ta'lim jarayonida *interaktiv doskadan ikki rejimda foydalanish mumkin: birinchi rejimda elektron qalam faqat kompyuter sichqonchasining vazifasini bajaradi, ikkinchi rejimda esa u maxsus dasturiy ta'minotning barcha uskunalari vazifasini bajaradi (masalan - oddiy qalam, marker, mo’yqalam, o’chirgich, qaychi, lupa va boshqalar).*

Elektron qalamning doska yuzasidagi holati va harakatlariga oid ma'lumotlar elektron doskadan USB kabel orqali kompyuterga uzatiladi va ushbu ma'lumotlar qayta ishlanib elektron qalamning harakatiga mos amallar bajariladi.

Interfaol qurilma – bu proektsion doskaga (*magnitli doska, marker doskasi, sinf doskasi, sinf devori*) yoki proektorning o’ziga o’rnatiladigan va har qanday tekis, silliq ishchi yuzani interaktiv holatga keltiradigan elektron qurilmadir. Ular uchun alohida maxsus doska talab etilmaydi.

Interaktiv qurilmalar tarkibiga qurilmaning o’zi, ya'ni maxsus elektron qalamdan chiqayotgan signalni qabul qiluvchi moslama, ushbu qabul qiluvchi moslamaga infraqizil yoki ultratovushli signallarni yuboruvchi elektron qalam, interaktiv qurilma va kompyuterning o’zaro aloqasini ta'minlovchi USB kabelyoki simsiz qabul qilgich uskunasi, dasturiy ta'minot vositalari kiradi. Ular infraqizil yoki ultratovushli texnologiyalar asosida ishlaydi.



1.3-rasm.

Interaktiv qurilmalar bajaradigan vazifasiga ko’ra interaktiv doskalarga to’liq mos keladi. Lekin, ulardan farqli ravishda mobil qurilma hisoblanadi. Ixcham va yengil bo’lganligi uchun ularni bir xonadan ikkinchisiga tez olib o’tib o’rnatish mumkin, bu o’z navbatida bunday qurilmalardan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Darsdan keyin esa interaktiv qurilmani yig’ishtirib mas'ul xodimga topshirish yoki o’qituvchilar xonasidagi belgilangan maxsus joyga olib qo’yish mumkin.

Interaktiv qurilmalar kompyuterga to’g’ridan-tog’ri USB kabel orqali yoki simsiz qabul qilgich uskunasi yordamida ulanishi mumkin. Interaktiv rejimda, o’qituvchi, huddi interaktiv doskadagi kabi keng imkoniyatlarga ega bo’ladi. hususan:

• kompyuterni doska oldida turib boshqarish imkoniyati: Microsoft Office dasturlari bilan ishlash, dars jarayonini oldindan tayyorlangan taqdimotlar, videofragmentlar, tasvirlar, chizmalar bilan nomoyish etish;

• interaktiv qurilma dasturiy ta'minotining uskunalari yordamida ekrandagi tasvir ustiga yoki yangi varaq (slayd) ustiga chizish, bo’yash, rasm solish, yozish, tayyor ob'ektni o’rnatish, ob'ektlarni kattalashtirish, kichiraytirish, boshqa joyga ko’chirish, ma'lum bir qismini belgilash imkoniyatlari;

• doskada bajarilgan ishlarni fayl ko’rinishida kompyuter xotirasida saqlash yoki doskada amalga oshirilayotgan barcha jarayonlarni videofayl formatida yozib olish;

•o’zining shaxsiy interaktiv dars ishlanmalarini yaratish, bunda interaktiv qurilmaning dasturiy ta'minot kutubxonasidagi mavjud shablon va tasvirlardan foydalanish;

•interaktiv qurilmaning dasturiy ta'minoti tarkibiga kiruvchi tasvirlar kutubxonasini o’zi tayyorlagan yangi materiallar bilan boyitib borishi va boshqa imkoniyatlar.

ActivTable (interfaol stol) – o`z aktiv yuzasiga ega qurilma sanaladi. Unga foydalanuvchi talabidan kelib chiqib dasturiy ta`minotlarni yuklab olish mumkin. Bu ta`lim olish, ta`lim berish va turli xil tadbirlar uchun zamonaviy uskunadir. Bu uskuna kishilarda kuchli va qiziq shaklda aks ettirilgani tufayli kuchli taassurot tug`diradi. Bu stolni didga ko`ra 32 dan 55 dyungacha razmerlarda tanlash mumkin. Interaktiv stolning barcha turlari aviatsion alyuminiydan qilinadi va sensorli yuza 6 mm qalinlikdagi shisha bilan qoplanadi.

Interaktiv stolning eng muhim komponenti yorqin sensorli ekran sanaladi. Multitach ekran hattoki yorug`likda ham a`lo darajada ko`rishni ta`minlaydi. Barcha modellarida kuchli quvvatlagich o`rnatilgan bo`lib, musiqaning va ovozli xabarlarning baland ovozda va ravshan eshitilishini ta`minlaydi. Bu stolning ishga tushirilishi juda ham oddiy bo`lib, yon tomonida joylashgan tugmacha orqali yoqish va o`cherish amalllari bajariladi. Ushbu turdagi stolning bolalar uchun mo`ljallangan turlari ham mavjud bo`lib, unga ko`plab rasmlarni o`rnatish va bir vaqtning o`zida 4 ta o`rganuvchi foydalanishi mumkin.

Interfaol proektor - bu - o’zida interkativ doskaning imkoniyatlarini mujassam etgan proektordir. Bunday proektorlar uchun alohida maxsus doska sotib olish talab etilmaydi, tasvirlar proektsiyasi oddiy sinf doskasiga, marker doskasiga yoki sinf devoriga ham tushirilishi mumkin. Oddiy proektordan farqli ravishda interaktiv proektorlar kompyuterdan tegishli signallarni qabul qilib tasvirlarni ekranga namoyish qilish bilan bir qatorda, elektron qalamning ekrandagi joriy holati va harakatlari to’g’risidagi ma'lumotlarni ham aniqlab kompyuterga yuboradi va kompyuter bilan ikki tomonlama aloqani o’rnatadi.

Overhed-proektor - A4 formatli shaffof plenkalarga qayd etilgan tasvirlarni yoritib berishda foydalaniladi. Oqirligi va hajmiga qarab, apparatlar portativ, yarim-portativli va ko'zg’almas modellarga bo'linadi. Portativli overhed-proektorlari 7 kg oshmaydigan yig’ma tuzilishga ega. Oddatda, bunday modeldagilar oson yig’ilishi bilan juda qulay bo'lib, ko'chirish uchun mahsus jamlanish sumkachalar to'plamiga ega. Odatda qo'zg’almas overhed-proektorlari 8 kgdan 17 kggacha og’irlikda bo'lib, auditoriyada doimiy ravishda o'rnatilib qo'yishga mo'ljallangan. Modellerdagi proekciyalashni umumiy hususiyatlarga ko'ra overhed-proektorlari nur o'tqazuvchi va nurni o'zida aks ettiruvchi turlarga bo'linadi.

Hujjat-kameralar - uncha katta bo'lmagan, vizual tasvirni yoritib beruvchi fotosurat,slaydlar, hujjatlarni asl nushasini elektron tasvirini tez fursat ichida namoyon qilib beruvchi oddiy qurilma.

Tuzilishi jihatidan: mahsus sharnirda yoki «egiluvchan bo'yin» aylantirish imkoni bo'lgan miniatyurali kamerali boshchadan iborat. Videokonferenciyalar vaqtida, kamerali boshchasiga bevosita mikrofon o'rnatiladi, bunday o'lchamlarda rang muvozanatlantiruvchi avtomatik ravishda amalga oshiriladi, tasvirni keskinligini oshirish ho'lda

bajariladi. Boshlang'ich darajali kameralarda 5-ta videosignal va kompozit chiqish mavjud. Bazi modellar foydalanish qo'llamini kengaytiruvchi: mikroskoplar, 35-mm slaydlar uchun adapterlar to'plamlaridan iborat. Murakab tuzilgan hujjat-kameralarida mahsus funkciya ko'zda tutilgan bo'lib, rang muvozanatlantiruvchi ham avtomatik ravishda ham ho'lda amalga oshiriladi.

Mobil qurilmalardan foydalanib masofaviy ta'limni tashkil etish

Hozirda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining shiddat bilan rivojlanishi bilim oluvchilar (o'quvchi, talaba, katta yoshdagilar va h.k.) uchun eng rivojlangan davlatlardagi yetakchi mutaxassislaridan ta'lim olish imkoniyatini vujudga keltirdi. Bunday ta'lim shakli masofaviy ta'lim deb nomlanadi. Zamonaviy mobil qurilmalarning texnik xarakteristikalari, ya'ni qurilmalar uchun yaratilgan maxsus ilovalar va veb-saytlar yordamida ta`lim oluvchilar uchun masofaviy ta'lim olish imkoniyatini yaratadi.

Mobil ta'lim (M-learning) atamasi bundan o'n besh yillar oldin ingliz tilidagi pedagogik adabiyotlarda, hozirgi kunda esa bizning mamlakatimizda ham bu atama ko'proq foydalana boshlandi. Mobil ta`lim (m-ta'lim) mobil va portativ qurilmalardan foydalanib, o'qishni va ta`limni tashkillashtirish imkonini beradi. Mobil qurilmalar yordamida nazariy va amaliy ta'lim berishga bag'ishlangan xorijdagi yirik loyihalardan quyidagilarini alohida ta'kidlash joiz: "Mobil ta'lim tizimi" (The Mobile Learning Network Project-MoLeNET) (Buyuk Britaniya), "Mobil ta'lim muhiti" (Mobile Learning Environment Project - The MoLE) (AQSH), " Butun hayot davomida ta'limda mobil texnologiyalar" (Mobile Technologies in Lifelong Learning: best practices - MOTILL) (Yevropa ittifoqi), "Mobil ta'lim konsorsiumi" (Mlearning Consortium) (Kanada).

Mobil ta'lim uchun quyidagi mobil aloqa muhiti va qurilmalaridan foydalaniladi:

- smartfonlar, ayfonlar, planshetlar;
- MP4 pleyerlari, Netkitoblar, elektron o'yinlar uchun qurilma (Nintendo DS), iPodlar, GPS- navigatorlar va h.k.;
- portativ kompyuterlar (noutbuklar, netbuklar, ultrabuklar, transformerlar).

Mobil ta'limning barcha jihatlari qarab chiqilgandan so'ng, o'qituvchi ta'lim jarayonini loyihalashtirishda ma'lum talablarni

bajarishi shart sifatida qabul qilinadi. Bunda o‘qituvchi tomonidan mobillik darajasi tanlaniladi va shu darajada qo‘llash mumkin bo‘lgan raqamli axborot ta’lim resurslari ajratib olinadi. Ushbu jarayonda elektron darslik, dasturiy ilova va so‘rovnomalar kabi ta’lim berish imkoniyatlarini oshiruvchi vositalar o‘rganiladi va tizimlashtiriladi.

Elektron darslik. Elektron darslik bu nashr etilgan kitobning PDF versiyasidan hajm jihatidan bir muncha katta hamda qidiruv va lug‘at kabi funksiyalar qo‘shilib yaxshilangan ko‘rinishi. Lekin zamonaviy elektron darslik - raqamli-birinchi yoki raqamli-yagona ko‘rinishda loyihalangan bo‘lib, o‘z ichiga multimedia materiallari (mualliflik ilovalari va video ilovalar), interaktivlik (masalan, avtomatik tarzda viktorinalarni baholash yoki simulyatorlarni qo‘lda boshqarish) va eng birinchi navbatda tarmoq imkoniyatlari(ta’lim oluvchilar va pedagoglar uchun xabarlar kanali, ijtimoiy media platform orqali ma’lumot almashuvi)ni qamrab oladi.

Dasturiy ilovalar (dasturiy ta’minot). Dasturiy ilovalar bu oddiy ilovalardan tortib to multimediali interaktiv elektron darsliklargacha bo‘lgan dasturiy ilovalarni qamrab oladi. Dasturiy ilovalar Internetdan yuklab olingan dasturiy ta’minotning bir qismi bo‘lib, mobil operatsion tizimlarda ishlash uchun mo‘ljallangan. Dasturiy ilovalar oddiy o‘yin formatida yoki biror bir predmetni o‘qitish uchun mo‘ljallangan, masalan matematika, ximiya va tillarni o‘rgatuvchi ilovalar ham bo‘lishi mumkin.

So‘rovnomalar. Pedagoglar noformal ko‘rinishdagi so‘rovnomalarni sinflarda oldindan o‘tkazib kelishadi. Faqatgina bu so‘rovnomalarga ta’lim oluvchilar qo‘l ko‘tarib javobni berishadi. So‘rovnomalarni raqamli uskunalar yordamida o‘tkazish bu jarayonni samaradorligini oshiradi. Veb-sayt, dasturiy ilovalar yoki ijtimoiy tarmoqlar yordamida ta’lim oluvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish mumkin. O‘qituvchilar ushbu so‘rovnomalar yordamida ta’lim oluvchilar yoki tinglovchilarning qiziqishlarini aniqlashlari va shu asosda ta’lim yo‘nalishlari va metodlarini o‘zgartirishlari mumkin.

Multimediani yozish. Smart qurilmalar real muhitni anglash yoki ta’lim jarayonida qo‘llash uchun multimedialarni yaratish yoki yozish uchun qo‘llaniladi. Matnli izohlar, olingan tasvirlar, audioyozuvlar va videoyozuvlar ta’lim oluvchilar uchun ta’lim olish boshqacha qilib aytganda o‘tilayotgan mavzuni o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Ta’lim oluvchilar biror bir dars jarayonini smart qurilma orqali tasvirga

olib ularni ijtimoiy media tarmoqlar (Instagram yoki Twitter, Foursquare yoki Yelp) yordamida boshqa tanishlariga jo‘natishlari, ular ham ushbu darsni ko‘rib chiqishlari va ushbu mavzu bo‘yicha o‘qituvchi va boshqa a’zolar bilan turli xil munozaralar o‘tkazishi mumkin.

QR-kod. QR-kod (angl. quick response - tez javob) - matrichniy kod (ikki o‘lchamli shtrixkod), 1994-yilda Denso -Wave nomli yapon kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan va taqdim etilgan. Ular saytlarda, reklamalar va xattoki tashrif kartochkalarida uchrashi mumkin. Ushbu ikki o‘lchamli shtrix kod OR skaner orqali skaner qilinishi va kod joylashgan sayt, buyum, reklama yoki biror bir narsa haqidagi ma’lumotni gipermurojaat orqali smart qurilma yordamida qidirib topish mumkin. Ular real dunyo (qayerda joylashishidan qat’iy nazar masalan, plakatlar yoki biror bir tekis yuza) bilan raqamli axborot va kommunikatsiya kanallarini (ijtimoiy tarmoq yoki forumlarda matn yoki video ko‘rinishda muzokara qilinadi) bog‘lab turadi.

AR-brauzerlar. Junaio, Layar va Wikitude kabi AR brauzerlar mobil qurilma va to‘ldirilgan borliq ko‘zoynaklar yordamida real dunyo bilan virtual dunyoni bog‘lashni yanada avtomatlashgan uslubini taqdim etadi. Ular QR kod kabi raqamli axborot va kommunikatsiya kanallari qatlami bo‘lib,faqatgina GPS (Global Positioning System) va Bluetooth texnologiyalariga suyanib ishlaydi. Ushbu texnologiyalar bugungi kunda rivojlanmoqda va keng tarqalmoqda hamda o‘qituvchilar va ta’lim oluvchilar uchun QR-kodlar yordamida o‘quv jarayoni bilan bog‘liq muammolarni yechishga va turli topshiriqlarni hal etishga yordam bermoqda.

1.4.Pedagogning axborot-kommunikastiya texnologiyalari kompetentligi.

Zamonaviy o’qituvchining kompetenstiyasi – o’z mutaxassisligi va ixtisosligi doirasida etarli bilim, ko’nikma, malakaga ega bo’lishi, shuningdek, shaxsiy qadriyatlari, sifatlari, malakasining dars jarayonida namoyon bo’lishi bilan belgilanadi.

“Kompetenstiya” deganda muayyan muammo va masala, hodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, malaka va ko’nikmaga ega bo’lishi va ularni hal qilishga etadigan salohiyati tushuniladi (10).

“Kompetentlik” – muayyan voqea-hodisalar, masalalar va ularning echimi yuzasidan axborotga ega bo’lish va shu sohada muayyan nufuzga erishishni o’zida ifoda etadi. “Kompetenstiya” va

“kompetentlik” atamalari o’zakdosh bo’lib, ular G’arb ilmiy adabiyotida 60-yillarning oxiri, 70-yillar boshida paydo bo’ldi. “Kompetenstiya” atamasi milliy pedagogikada XX asrning 90-yillaridan “pedagogik madaniyat”, “kasbiy layoqatlilik”, “kvalifikastiya” tushunchalariga ma’nodosh sifatida ishlatila boshlandi.

O’qituvchilarning AKT kompetentligi va uni ta’lim jarayonida to’g’ri qo’llay olish layoqatiga ehtiyoj kompyuter texnologiyalarining paydo bo’lishi bilan vujudga keldi. Axborot kommunikastiya texnologiyalarini jamiyatning turli sohalariga tatbiq qilishning dastlabki davrida aholining kompyuter savodxonligini oshirish, ya’ni texnik bilimlar, shaxsiy kompyuterdan foydalana olish, amaliy dasturiy ta’minotlarning imkoniyatlarini bilish va ularda ishlay olish, internet tarmog’idan foydalana olish kabi qoidalar AKT kompetentligi tushunchasini ifodaladi. Bugungi kunga kelib esa o’qituvchining AKT kompetentligi nafaqat turli axborot vositalarini ishlatish, balki ularni pedagogik faoliyatda samarali qo’llash hamdir.

AKT kompetentligi – rivojlanayotgan axborot jamiyati sharoitida samarali, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishda axborotdan foydalanish, izlash, yaratish, qayta ishlash, baholash va etkazish/tarqatish uchun axborot va kommunikastiya texnologiyalaridan foydalana olish qobiliyatidir. AKT kompetenstiyaning asosiy jihatlari:–AKT sohasida funkstional savodxonlikning etarli darajada yuqori bo’lishi; –ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va kasbiy muammolarni hal qilishda axborot-kommunikastiya texnologiyalaridan unumli foydalanish; –axborot-kommunikastiya texnologiyalarini ta’lim sohasidagi yangi paradigma asosi sifatida qabul qilib, axboriy jamiyatning to’laqonli sub’ekti sifatida rivojlantirishga qaratilgan.

O'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) vakolatlari bu kabi resurslarni o'quv-ta'lim jarayoniga qo'shilish uchun asosiy o'zgaruvchidir. O'qituvchilarning AKT vakolatiga oid muammolardan biri bu turli xil doiralarning ko'payishi bo'lib, bu ushbu vakolatlarning aniqlanmaganligiga olib keladi. O'qituvchilarning AKT vakolatlari modelini tasdiqlash uchun bir nechta ko'rsatkichlar va bir nechta sabablar modeli ishlatilgan. O'qituvchilarning AKT vakolatlari ikkita kichik to'plamdan, texnologik kompetensiyalar va pedagogik vakolatlardan tashkil topgan noyob to'plamni tashkil etadi. Bundan tashqari, texnologik kompetentsiyalar pedagogik ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, shaxsiy va kontekstli omillar vakolatlarning quyi qismlariga tegishli ta'sir ko'rsatishini aniqladik.

Kompetenstiya tuzilmasida o’qituvchining layoqati 6 aspektga ajratib ko’rsatiladi:

- ta’lim sohasida AKTning o’rnini anglay bilish;
- ta’lim dasturini tuzish va baholash;
- pedagogik amaliyot;
- AKTning texnik va dasturiy ta’minotini bilish;
- ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- kasbiy rivojlanish. Ushbu jihatlarning barchasi ta’lim muassasalarini axborotlashtirish jarayonidagi quyidagi 3 bosqich bilan chambarchas bog’liqdir:

1. AKTni qo’llash jarayoni – ta’lim sifati hamda samarasini oshirishda axborot kommunikastiya texnologiyalaridan foydalanishni o’quvchilarga o’rgata bilish ko’nikmasiga ega bo’lish.

2. Bilimlarni o’zlashtirish – o’qituvchining o’quvchilarga fanlar mazmunini chuqur o’zlashtirishda, kundalik hayotda yuzaga keladigan murakkab muammolarni o’z bilimlaridan foydalangan holda echishlarida ko’mak berishi.

3. Bilimlarni ishlab chiqarish – bu bosqichda o’qituvchi o’quvchilarning etuk mutaxassis bo’lib etishishlarida yordam berishi, egallangan bilimlar asosida jamiyat va fan rivojiga hissa qo’shadigan yangi bilimlarni ishlab chiqishlarida yo’nalish berishdan iborat.

O’qituvchining kompetenstiyasi, o’z yo’nalishlaridan kelib chiqqan holda, o’quvchilarning ta’lim loyihalarini amalga oshirishda axborot bilan ishlay olish qobiliyatini shakllantirishda, muammolarni tartiblash va belgilangan vazifani bajarish salohiyatini oshirishda, talabalar uchun mo’ljallangan (individual) o’quv metodlari yordamida dasturiy vositalardan foydalanish yo’llarini o’rgatishni o’z ichiga oladi. Bularning barchasi o’quvchilarning asosiy tushunchalarini chuqur tushunishlariga va murakkab amaliy muammolarni hal qilishda ulardan foydalanishga yordam beradi. Ta’lim loyihalarini guruh bilan amalga oshirish uchun o’qituvchilar o’quvchilar bilan birgalikda ishlashlari, axborot olishlari va tanlangan muammolarni tahlil qilish va hal qilishda tashqi ekspertlar bilan muloqot qilish uchun tarmoq resurslaridan foydalanishlari lozim. Shuningdek, o’qituvchilarning individual va guruh dars loyihalarini amalga oshirishda,o’quv rejalarni ishlab chiqishda va ularni bajarishda, mutaxassislar bilan aloqa o’rnatishlari

va kasbdoshlari bilan hamkorlik qilishda, o’z bilimlarini oshirishda internet tarmog’idagi ma’lumotlardan, umuman olganda, AKTdan unumli foydalana olishlari maqsadga muvofiqdir.

AKT vakolatlari quyidagilar bilan bog'liq:

- AKT resurslaridan foydalanishda ma'lum bir ko'nikmalarni qachon qo'llash yoki rivojlantirishni bilish;
- AKTdan foydalanish sabablari va uning foydalanuvchilarga ham, kontekstga ta'siridan ham xabardor bo'lish
- tanqidiy va ishonchli munosabat texnologiya bilan o'rganishga.

O'qituvchilar uchun AKT kompetentsiyasi modelini quyidagicha:
AKTdan o'quv qo'llanma, to'rt xil vakolat talab qilinadi. Ushbu to'rtta kompetentsiya - Texnologik vakolatlar (TK), Pedagogik kompetentsiyalar (PC), Didaktik kompetentsiyalar (DC) va Ijtimoiy vakolatlar (SC). Shakl-1 o'qituvchilar uchun AKT vakolatlari modelini ko'rsatadi.

1.AKTning texnologik kompetentsiyalari: Ushbu vakolatlar o'qituvchilarning AKT uskunalari va dasturiy ta'minotidan foydalanish va ularga xizmat ko'rsatish texnik bilimlari bilan bog'liq. Ushbu vakolatlar zamonaviy texnologiyalar - kompyuter, Internet va boshqalarni boshqarish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

2.Pedagogik AKT kompetensiyalari: Pedagogik kompetentsiyalar o'qituvchilarning o'quv amaliyoti va o'quv dasturlarini bilishi bilan bog'liq bo'lib, ular o'zlarining fanlari doirasida ta'lim va ta'limni qo'llab-quvvatlash va kengaytirish uchun AKTdan samarali foydalanadigan dasturlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu o'quvchilarni o'rganish, sinflarni boshqarish, dars rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda o'quvchilarni baholashning barcha masalalarida ishtirok etadigan bilimlarning umumiy shakli. U sinfda qo'llaniladigan texnikalar yoki usullar haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi; maqsadli auditoriyaning tabiati va talabalar tushunchasini baholash strategiyalari.

3.AKT bo'yicha didaktik kompetentsiyalar: Ushbu vakolatlar o'qituvchining o'rganishi yoki o'rgatishi kerak bo'lgan predmetli bilimlari bilan bog'liq. O'qituvchilar o'zlari o'qitadigan fanlarni bilishlari va tushunishlari kerak, shu jumladan ma'lum bir sohadagi markaziy faktlar, tushunchalar, nazariyalar va protseduralar to'g'risidagi bilimlar, dalil va isbot qoidalari haqidagi g'oyalarni va

bilimlarni tartibga soluvchi va bog'laydigan tushuntirish tizimlarini bilish. O'qituvchilar, shuningdek, turli sohalardagi bilim va izlanish mohiyatini tushunishlari kerak.

4.Ijtimoiy AKT vakolatlari: Ijtimoiy vakolatlar o'qituvchilarning AKT bilan bog'liq ijtimoiy va axloqiy muammolarni tushunishi bilan bog'liq va ushbu tushunchani o'z amaliyotlarida qo'llaydilar.

AKTning ba'zi muhim ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari va uning ta'limga ta'siriga guvoh bo'lmoqdamiz. O'qituvchi, o'quvchilar va ta'lim tizimining yangi rolini talab qiladigan yangi ta'lim davri boshlandi. Bu borada qabul qilinadigan strategiyalardan biri bu ta'lim jarayonida AKTdan muvaffaqiyatli foydalanish uchun kompetensiyalarni rivojlantirgan o'qituvchilarni ishlab chiqarishdir. Ushbu o'qituvchilar XXI asr o'qituvchilari deb nomlanadi, ular tarkibidagi texnologik, pedagogik, didaktik va ijtimoiy kompetensiyalarga ega bo'lib, ular o'quvchilarining shaxsiyatini konstruktivistik darajada shakllantiradilar. O'qituvchilarning AKT vakolatlarini rivojlantirishni ta'minlash uchun quyidagi tavsiyalar beriladi:

1. AKT barcha o'qituvchilarni tayyorlash muassasalarida majburiy kurs bo'lishi kerak. O'qituvchilarni tayyorlash "Kompyuter savodxonligi" bo'yicha mashg'ulotlarga asoslanmasligi kerak, balki o'qituvchilarni haqiqiy hayot sharoitida bilimlarni qurish, namoyish etish va almashish uchun texnologiyalarni ishlatishga tayyorlash kerak.
2. Izlanishlar asosida hozirgi talabimizga javob beradigan o'qituvchilarni maktabgacha ta'limning innovatsion modeli ishlab chiqilishi kerak. Shuni esda tutish kerakki, ushbu model ushbu bilim va ko'nikmalarni jihozlash va milliy va xalqaro standartlarni hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalar yordamida sinfda bilim va ko'rsatmalar bilan ishonchli ta'minlaydigan kelajak o'qituvchilarimizni tayyorlashga qodir.
3. O'qitish va o'qitish jarayonida o'qituvchilarga AKTdan foydalanish uchun etarli imkoniyatlar va resurslar berilishi kerak. Ularga o'zlarining AKTga asoslangan vakolatlarini rivojlantiradigan muhit berilishi kerak.
4. O'qituvchilarni tayyorlash muassasalarida kompleks yondashuvni amalga oshirish kerak. Ushbu yondashuvning maqsadi o'quvchilarning yuqorida ko'rsatilgan to'rt turdagi vakolatlarning mohiyatini tushunishlari va ular uchun talab qilinadigan va kutilgan tegishli vakolatlardan foydalanishlari kerak bo'lgan o'qitish-o'rganish muhitini yaratish va rivojlantirishdan iborat bo'lishi kerak.

5. Texnologik, pedagogik, didaktik va ijtimoiy vakolatlar bilan bog'liq bo'lgan nazariya ham, amaliyot ham o'qituvchini tayyorlash dasturlarining majburiy kursi bo'lishi kerak.
6. O'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham AKTdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash uchun maktablarda kompyuterlar va internet ta'minlanishi kerak.
7. O'qituvchilar uchun malaka oshirish dasturlari (PDP) tashkil etilishi kerak, bunda AKT-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

Savol va topshiriqlar.

1. Ta’limda axborot texnologiyalari kursining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Ta’lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo’llashning zamonaviy tendenstiyalari nimalardan iborat?
3. Ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini qo’llash borasidagi dolzarb vazifalar va ustuvor yo’nalishlar qanday amalga oshirilmoqda?
4. Zamonaviy axborot texnologiyalari o’quv texnik vositalarining ta’lim jarayonidagi o’rni qanday?
5. Kompyuter sinflari, multimedia proektorlar, interaktiv elektron doskalarning ta’lim jarayonidagi ahamiyatli tomonlari nimadan iborat?
6. Smart mobil qurilmalar hamda ular bilan ishlash usul va vositalari, turli operastion tizimli va boshqa ko’rinishdagi ilovalarday qanday foydalaniladi?

2-MAVZU: TAQDIMOT YaRATIShNING ZAMONAVIY VOSITALARI VA TA’LIM JARAYoNIDA QO’LLANILIShI.

1. **Taqdimot tushunchasi va ularning turlari.**
2. **Multimediyali taqdimotlar va ularni ta’lim jarayonida qo’llashning afzalliklar.**
3. **O’quv taqdimotiga qo’yilgan talablar.**
4. **Taqdimot yaratishning zamonaviy dasturiy vositalari va taqdimot yaratishning onlayn xizmatlar.**

1.1.Taqdimot tushunchasi va ularning turlari.

Taqdimot *(*ing. presentation) – audiovizual vositalardan foydalanib ko`rgazmali shaklda ma`lumot taqdim etish shakli. Taqdimot yagona manbaga umumlashgan kompyuter animatsiyasi, grafika, video, musiqa va ovozni o`zida mujassam etadi. Odatda taqdimot ma`lumotni qulay qabul qilish uchun syujet, ssenariy va strukturaga ega bo`ladi.

Taqdimotlar so`z bilan ifoda qilish qiyin bo`lgan jarayonlarni tez, aniq va tushunarli bo`lishi, axborotni qabul qilishda turli xil ko`rinishlarda aks etirilishi o`qituvchiga darsni tashkillashtirish va faol bo`lishida ko`makchi vositasini o`taydi.

Multimediali taqdimot – bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi. Bu matnli ma`lumotlar, rasmlar, slayd-shou, diktor jo`rligidagi ovoz bilan boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o`lchamli grafika tarzidagi dasturiy ta`minot bo`lishi mumkin. Taqdimotning ma`lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va interfaolligidir, ya`ni belgilangan shaklda o`zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir.

Ma`lumki, inson ma`lumotning ko`p qismini ko`rish (~80%) va eshitish (~15%) organlari orqali qabul qiladi (bu avvaldan aniqlangan va kino hamda televidenieda undan samarali foydalaniladi). Multimediali texnologiyalar ushbu muhim sezgi organlarining bir vaqtda ishlashiga yordam beradi. Dinamik vizual ketma-ketlik (slayd-shou, animatsiya, video)ni ovozli tarzda namoyish etish orqali insonlarning e`tiborini ko`proq jalb qilamiz. Shundan kelib chiqib, multimediali texnologiyalar axborotni maksimal samarali tarzda taqdim etishga imkon beradi.

Multimediali taqdimot ma`lumotni to`g`ridan to`g`ri qabul qilishni ta`minlaydi. Foydalanuvchi taqdim etilayotgan barcha ma`lumotlarni ko`radi va o`zini qiziqtirgan qismlaridan foydalana oladi. Ma`lumotni qabul qilish katta mehnat va vaqt talab qilmaydi. Ma`lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan farqli ravishda multimediali taqdimot bir necha o`n minglab sahifa matn, minglab rasm va tasvirlar, bir necha soatga cho`ziladigan audio va video yozuvlar, animatsiya va uch o`lchamli grafikalarni o`z ichiga olgan bo`lishiga qaramay, ko`paytirish xarajatlarining kamligini va saqlash muddatining uzoqligini ta`minlaydi.

Taqdimot turlari:

- **Chiziqli taqdimot** – murakkab grafika, videoqo`yilma, ovoz jo`rligidagi va navigatsiya tizimiga ega bo`lmagan dinamik rolik. Chiziqli taqdimotlar mo`ljallanishiga ko`ra shartli ravishda quyidagi shakllarga bo`linadi:

- stend shaklidagi multimedia taqdimoti;
- elektron doklad yoki jo`rlikdagi taqdimot;
- sales-taqdimot;
- promo-rolik;
- intro-rolik;
- ekran himoya lavhalari (ScreenSavers).

- **Interfaol taqdimot** – ierarxik tamoyillar bo`yicha tuzilmaga keltirilgan va maxsus foydalanuvchi interfeysi orqali boshqariladigan multimediali komponentlar to`plami. Foydalanish maqsadidan kelib chiqib, interfaol taqdimotlar shartli ravishda quyidagi turlarga bo`linadi:

- korporativ multimediali taqdimot;
- multimediali katalog;
- mahsulot taqdimoti;
- o`rgatuvchi yoki test dasturi;
- erkin foydalanishga ruxsat berilgan kompyuterlar uchun multimedia qobig`i;
- elektron nashr yoki multimedali kitob.

Axborot taqdim etishning eng samarali vositalaridan biri taqdimotlarni kompyuterlarda ishlab chiqishning eng ko`p tarqalgandir. Darslarni tashkililashtirish, ko`rgazmali, samarali bo`lishda taqdimotlardan foydalanmasdan erishish qiyin. Taqdimotning samarali bo`lishi nafaqat ilg`or goyalaringizga balki taqdimotning ko`rinishiga ham bogliq boladi.

Tinlovchilar bilan vizual aloqa o’rnatishda taqdimotning tashqi ko’rinish muhim ahamiyat kasb etadi.

O`quv taqdimotiga qo’ilgan talablar.

Dars jarayonida taqdimotlar ko’rgazmali qo`llanma sifatida foydalaniladi. Taqdimotga qo`yilgan asosiy talablarni ko`rib chiqamiz.

Multimediyali taqdimot mazmuniga qo`yilgan talablar:

- taqdimot mazmuni darsning maqsadi va vazifalariga mos kelishi;
- qabul qilingan imlo, tinish belgilari, qisqatirish va matnni kiritish qoidalariga amal qilish;

- ma`lumotlarni taqdim etishda aniq va ishonchli faktlarga asoslangan bo`lishi va bu borada xatolarga yo`l qo`ymaslik;
- slayddagi matnni qisqa va aniq bo`lishi;
- slayddagi har bir matnli ma`limot qismi mazmuni mantiqan tugallangan bo`lishi;
- bayoning qisqaligi va matnning axboriyligining yuqoriligi;
- ma`lumotning slaydda joylashuvi (ma`lumtolarning gorizatal joylashishi afzaldir, ma`lumotlarning muhim qismi slaydning o`rta qismida joylashuvi muhim; agar slaydda surat bo`lsa u holda matn uning pastki qismida joylashish maqul bo`ladi, matn chekka qismlarini tekislash zarur)
- ma`lumotni jalb qiluvchi va o`zgacha bo`lishi o`quvchi e`tiborini tortadi.

Taqdimotning ko`rinishi va ovoz effektlariga qo`yilgan talablar:

- tasvirlarning optimal ko`rinishlarini tanlash;
- taqdimot mazmuniga tasvirlarni mos kelishi;
- tasvirlarni o`quvchilar yoshiga mos kelishi;
- tasvirning sifatli bo`lishi (slayd foniga nisbatan tasvirning yorqinligi; tasvirlardagi keraksiz elemantllarning bo`lmasligi; tasvirning yorqin va mos bo`lishi; fayllar formatining bir xil bo`lish)
- ovozning bir qator sifatlari (musiqaning sifatli bo`lishi, tashqi shovqinlarning bo`lmasligi);
- qo`llanilayotga grafik ob`yeklarning asosli va maqsadga muvofiq bo`lishi;

Matnga qo`yilgan talablar:

- taqdimot slaydidagi fonga nisbatan matnning o`qish imkoniyatining yuqori bo`lishi (matnni fonda aniq k`orinishi, matn va fonning uchun bir biridan farq qiladigan rangda bo`lishi);
- harflarning o’lchami o’quvchi yosh xususiyalarini hisobga olgan holda bo`lish 24punkt dan kam bo`lmasligi kerak;
- matn shriftlarini o`qilishi oson qilib qo`llash va 3 xil shrift variantidan ko`p bo`lmasligi lozim;
- Qator uzunligi 36 belgidan oshmasligi;
- Matnlarning tagiga chizish holati faqat gipermurojaatlarda bo`lishi.

Dizayndagi talablar:

- Taqdimotlar uchun yagona dezaynni qo`llash;

- Taqdimotning bezash uslubi (grafik, ovoz, animasiya) taqdimot mazmuniga mos bo`lishi .
- slayd fonini bezashda psixologik jihatdan badastur va qulay bo`lishini ta`minlash;
- slayd foni orqada joylashgan bo`lishi lozim: slaydda joylashgan ma`lumotni ajratib, yaqqol va alohida ko`rsatishi, uni to`sib qo`ymasligi zarur;
- bir slaydda uchtadan ortiq ranglardan foydalanmaslik (birinchisi fon uchun, ikkinchisi sarlovha uchun, uchunchisi matn uchun)
- tanlanayotga shablonlarning mavzuga mos kelishi (ba`zan esa neytral bo`lish mumkin);
- animasion effektlardan maqsadli foydalanish.

Taqdimotlar so’z bilan ifoda qilish qiyin bo`lgan jarayonlarni tez, aniq va tushunarli bo`lishi, axborotni qabul qilishda turli xil ko`rinishlarda aks ettirilishi o`qituvchiga darsni tashkillashtirish va faol bo`lishida ko`makchi vositasini o`taydi.

Taqdimotlarni ishlab chiqishning turlari va vositalari juda ko`p bo’lib,bugungi kunda taqdimot yaratishning yangi –yangi zamonaviy vositalari, turlari va ko`rinishlari taqdim etib borilmoqda.

Taqdimot yaratishning bir necha dasturlari bilan tanishtiramiz.

PowerPoint yaratish fikri Berkli oliygohi talabasi Bob Gaskins (Bob Gaskins)da paydo bo'ladi. 1984-yil Gaskins Forethought firmasiga qo'shildi va Dennis Ostin (Dennis Austin) ismli dasturchini ishga yollaydi. Bob va Dennis harakatlarini birlashtirishadi va Presenter dasturini yaratishadi. Dennis dasturning original versiyasini Tom Rudkin bilan yaratadi. Keyinchalik Bob dastur nomini PowerPoint deb o'zgartirishga qaror qiladi.

Versiyalari

Yil	Versiya	Nom	Izoh
1990	2.0	PowerPoint 2.0 Windows 3.0 uchun	MS Office 1.x tarkibida
1992	3.0	PowerPoint 3.0 Windows 3.1 uchun	MS Office 3.0 tarkibida
1993	4.0	PowerPoint 4.0	MS Office 4.x tarkibida


1995	7.0	PowerPoint Windows 95 uchun	Office 95 tarkibida
1997	8.0	PowerPoint 97	Office 97 tarkibida
1999	9.0	PowerPoint 2000	Office 2000 tarkibida
2001	10	PowerPoint 2002	Office XP tarkibida
2003	11	PowerPoint 2003	Office 2003 tarkibida
2007	12	PowerPoint 2007	Office 2007 tarkibida
2010	14	PowerPoint 2010	Office 2010 tarkibida
2013	15	PowerPoint 2013	Office 2013 tarkibida
2016	16	PowerPoint 2016	Office 2016 tarkibida
2018	17	PowerPoint 2019	Office 2019 tarkibida

Taqdimotlar quyidagi (prefiks yordamida) fayl kengaytmalari ko'rinishlarda saqlanishi mumkin:

- *ppt* — PowerPoint taqdimoti
- *pps* — faqatgina PowerPoint taqdimoti
- *pot* — PowerPoint modeli

PowerPoint 2007 o'zining macOS uchun versiyasida (2008) Office Open XML formatini taqdim etdi. Shundan so'ng taqdimotlar .pptx, .ppsx, .potx ko'rinishiga ega bo'ldi. Taqdimotga audio fayl qo'shish uchun MPEG LAYER 3 18HB 11025 Hz stereo formatini ishlatish zarur.

Slaydlar ketma-ketligidan hosil bo`lgan taqdimotni kompyuter ekranida, videomonitorlar va katta ekranlarda namoyish qilish mumkin. Taqdimot yaratish – bu slaydlar ketma-ketligini qurish va bezagini berishdir. Quyidagi rasmda siz POWERPOINT dasturining ekrani va uning asosiy elementlarini ko`rib turibsiz:



2.1.Rasm. Power Point oynasi va Google prezentatsiya oynasi

Google Diskda bepul vertual ofis taqdimotni ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Google Diskda taqdimotlarni ishlab chiqish Power Point dasturidek bo`lib, onlayn tarzda ko`pgina vido o`zgarishlar ega interfeyz bir oz qisqartirilgandir. Bunda Power Point dasturining onlayn versiyasidan ko`proq imkoniyatlariga egadir.

Taqdimotni tekin ofis Google diskda ham yaratish mumkin. Google diskda taqdimot yaratish Power Point dasturida taqdimot yaratish bilan bir-hil, lekin Google diskda onlayn tarzda yaratiladi va vide o'zgarishlar bilan farq qiladi. Power POintning funksiyalaridan tubdan farq qiladi. Agar sizda litsensiyali Power Point 2013 bo'lsa, siz bilasizki boshqa hujjatlar bilan hamkorlikda ishlash mumkin va Google diskda ham boshqa hujjatlar bilan hamkorlikda ishlash oson va funksiyalari mavjud.

Google taqdimot tekin va chegarasiz imkoniyatlarga ega, lekin foydalanuvchi taqdimot yaratishda bazaviy topshiriqlarni hal qiladi.



2.2.rasm.

Flesh – taqdimotlarning zamonaviy vositalaridan biri Prezi dasturidir. Prezi dasturining o`ziga xosligi buma`lumotlarning ketma ket chiqishidir.

Powerpoint bilan Prezining eng katta farqi shundaki, Prezi asosan linyali formatga urg'u beradi. Alohida qilib qaraydigan bo'lsak Prezida ko'rish imkonyatiga katta e'tibor berilgani aniq bir farqdir. Prezi g'oya, fikr va rejalar tarmog'ini qurush uchun ishlatiladi.

ZUI **–** (zooming user interface) obyektivdagi suratni foydalanuvchilarga yaqinlashtirib yoki uzoqlashtirib ko'rsatadi. ZUI foydalanuvchilarga turli xil hujjatlarni o'zaro, to'gridan to'g'ri ko'rib, o'rganib chiqishga imkon beradi.

Umuman olganda, Prezi windowsda juda yaxshi , ammo linuxda juda yomon ishlaydi. Prezi murakkab prezentatsiya yaratishda Adobe flashdan foydalanadi va bu dastur eng ohirgi ko'rinishda bo'lishi shart. Prezi dasturining uchta turli xil shakli mavjud:

1. Prezi public
2. Prezi enjoy
3. Prezi pro

Prezi public barcha foydalanuvchilar uchun bepul bo'lsa, Prezi pro va Prezi enjoy esa ma'lum bir to'lovlarni talab qiladi.

Canvas – ("mustahkam va dag'al mato" ma'nosini anglatadi) prezentatsiya tayorlash uchun maydon. Prezi ZUI texnalogiyasidan foydalanganligi sababli har qanday berilgan convas yani maydon ko'rinib turgan hududiga nisbatan kattaroq bo'ladi. ZUI texnalogiyasi foydalanuvchilarga maydon bo'ylab erkin harakatlanish va ma'lumot qo'shish imkonyatlarini beradi.

Prezini kompyuter, planshet, mobil telefonlardan ham foydalanilishi mumkin. O'rganish juda oson va qulay bo'lganligi sababli, har bir foydalanuvchiga mos keladi.Zoom yordamida Prezi taqdimoti slaydma slayd ko'chmaydi, balki yangi joyga izma -iz ketadigan yo'lak (Pathwaypoint) dan foydalanib yaqinlashtiradi.

Haiku Deck


Haiku Deck – bu taqdimot yaratishni osonlashtirishga harakat qilishdir. Bu dastur taniqli xalqaro eksport Garr Reynolds dizayn taqdimotlari prinspiga asoslangan. Asosiy fikr-slayddagi minimal axborotlar miqdorida. Bir fikr slaydga va bir (rasmlar, diogrammalar va sxemalar)



2.3.rasm. *Haiku Deck*

Haiku Deck dasturi yordamida taqdimotlarga slayd tayyorlash va sizning fikrlaringizdagi ko'p bo'lmagan axborotlar bilan taqdimotlar yaratish juda oson. Interfeysi bezashga sifatli shablonlarga ega.

HaikuDeck-bu qiyinchiliklarsiz maksimal sodda va chiroyli taqdimot yaratishni hohlaganlar uchundir.



Slides

Slides –bu taqdimot yaratish uchun yangi zamonaviy dastur. Hamma taqdimotlar HTML da yaratiladi, bu har qanday qurilmada foydalanish imkonini beradi. HTML kodlash har qanday usulda taqdimotlarni bezash shu bilan internetdan birga har qanday amaliy

2.4.rasm. *Slides*


content qo'yish (embed) imkoniyatini yaratadi. Sizning Web brauzeringizda onlayn tarzda taqdimot ko'rsatish va har qanday qurilma yordamida oflayn ko'rinishdagi taqdimotingizni boshqarish imkoni mavjud.

Grafik muharriri interfeysi bir oz qiyinroq va hozircha standart funksyalari joylashish o'rni noqulayroq, lekin, uskunalari juda qiziqarli. Slides dasturida slaydlarni har qanday yo'nalshda harakatlantirish mumkin ya'ni o'ngdan chapga, chapdan o'nga, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga.

Slides dasturi bazaviy funksiyalari bilan tekin versiyalar mavjud, dasturning to'liq shakli pullik. Hamma taqdimotlar sizning Web brauzeringizda onlayn tarzda amalga oshiriladi, dasturning desktop va telefon versiyalari hozircha mavjud emas, faqatgina boshqa qurilmalarda dasturni yuklash imkoni mavjud.


Dasturning to'liq shakli juda qiziqarli bo'lib, kelajakda ommolashishi kutilmoqda. Agarda sizda taqdimot yaratish zururiyati tug'ilgan bo'lsa, Slidesda taqdimot yaratib ko'rishingizni maslahat beramiz.

SlideDog



2.5.rasm. *SlideDog*

SlideDog – Power Point yoki Keynote dasturlariga o'xshagan taqdimot muharriri emas. Siz bu dasturda taqdimot yarata olmaysiz, lekin dastur yordamida siz taqdimot uchun qulay playlist tayyorlashingiz mumkin. Taqdimotlar Power Point va Keynote, PDF hujjatlari, vidioroliklar, rasmlar va veb sahifalarni bitta taqdimotga kerakli tartibda joylashtirish imkoniyati mavjud. Onlayn tarzda yoki dasturni Windows operatsion tizimiga yuklahan holda ishlash mumkin.




2.6.rasm. *Projeqt*

Projeqt dasturida taqdimotni jonlantiruvchi internetdan har qanday turdagi ma'lumotlarni qo'yish imkoni mavjud, ya'ni RSS lentasi, Google haritasi, onlayn savol-javob, Youtube dan video lavhalarni yoki SaundCloud dan musiqalarni jaylashtirish mumkin. Slides dasturiga o'xshab Projeqt dasturida slaydlar harakatini har qanday yo'nalshda joylashtirish imkoni mavjud. Eng asosiysi Projeqt dasturida hosil qilingan taqdimotlarni har qanday internetga ulangan qurilmalarda yuklash va o'zgartirish mumkin.

Interfeysi juda ham qulay, unda ishlash qiyin emas. Qiziqarli hususiyatlari: yaratilgan taqdimotlarni Power Point dasturiga va PDF hujjatlariga import qilish mukin va taqdimotlarni internetga joylashtirish juda qulay.

Projeqt talim sohasida va ko’rgazmalarda keng qo’llanalmoqda.



2.7.rasm. Flowboard

Interfeysi juda oson, funksiyalari yetarlicha ko’p. Qiziqarli qurilmalari: Facebook, YouTube, Dropbox kabi veb sahaifalaridan rasmlar va videolarni taqdimotga joylashtirish kabi imkoniyatlarga ega. PowerPoint dasturi bu toifadagi dasturlar ichida eng yaxshilaridan biridir. Moslashuvchan interfeysning mavjudligi, choklarsiz ko’chirib qo’yish funktsiyasi va ko’p (murakkab) vazifalarni bajarish rejimida barqaror ishlash imkoniyati bu dasturni yangi avlod taqdimotli grafika mahsulotlari orasida lider darajasiga chiqardi.

PowerPoint dasturining birinchi afzalligi yaxshi sozlanuvchi interfeysidir. Ekranga dasturiy oynada ettitagacha turli instrumentlar panelini chiqarish mumkin.

PowerPoint xizmat, ijodiy seans va hatto “noxush xabarlar” yo’nalishlarini qamrab oluvchi ko’p turdagi slaydlar to’plamini taklif etadi. Ushbu tiplarning har biri materiallarni joylashtirishning muayyan strategiyasiga ega bo’lib, AutoContent har bir slaydni taqdimotning dastlabki maqsadlari bilan bog’lashni taklif etadi. (Masalan, agar siz “noxush xabarlar”ni namoyish qilayotgan bo’lsangiz, AutoContent sizning ikkinchi slaydingizda “bizning holatimiz” Muhokama qilinishi va ma’ruzachi “bu qanday sodir bo’lgan”ligini tushuntirishini mo’ljallab turadi.)

PowerPoint dasturida ko’p martalab orqaga qaytish "multiple undo" imkoniyati juda yaxshi amalga oshiriladi. Masalan, 150 ta o’zgartirishlarni ketma-ket yoki birdaniga 149 ta o’zgarishga orqaga sakrab amalga oshirish mumkin. Agar siz jarayonlarga chuqur kirishib, ikki va undan ortiq dialog oynalariga murojaat etgan va Cancel tugmasini bosgan bo’lsangiz, dastur sizni dastlabki holatga qaytarib qo’yadi, lekin bajarilgan ishlarni umuman o’chirib yubormaydi. Ma’lumotlar jadvali o’lchamlarini o’zgartirish va unda turli shriftlarni ishlatish mumkin. Agar siz Microsoft Excelda ishlash bo’yicha katta tajriba egasi bo’lsangiz, unda PowerPointdagi Graph ilovasi ham xuddi shunday diagramma turlari va ularni to’g’rilash usullaridan foydalanadi.

Microsoft PowerPoint 2016 dasturi intefeysi

Microsoft PowerPoint 2016 dasturining interfeysi oldingi versiyalariga nisbatan sezilarni o’zgargan bo’lib, oynasining ko’rinishi quyidagilarni o’z ichiga oladi.

1- Kerakli buyruqlarni topish – menyular tanlab lentadan shu buyruqlar va tugmalaridan foydalanish imkoni.

2- Taqdimotni boshqarish – fayl menyusi orqali hujjatni saqlash, chop etish, ochish va boshqarish.

3- Kontektli menyulardan foydalanish - tasmaning ba’zi bir menyulari faqat ular kerak bo’lgan hollarda ko’rinadi. Masalan, rasm tanlaganda Rabota s risunkami — Format menyusi hosil bo’ladi.

4- Qo’shimcha xususiyatlarni ko’rish – qo’shimcha xususiyatlar ko’rish va o’zgartirish uchun ushbu kichkina yo’nalishli tugmani tanlash orqali ishga tushirish.

5- Ma’lumotlar tizimini ko’rish –ushbu tugmani bosish yoki F1 klavishini tanlash orqali ishga tushirish.

6- Qo’shimcha – ushbu tugma orqali tasmani ko’rish va berkitish yoki CTRL+F1 klavishini tanlash orqali ishga tushirish.

7- Formatlash qismini ko’rish – bu qulay vosita yordamida rasmlar, videorolik, SmartArt grafik elementlarni, shakllarni formatlash mumkin

8- Karakli ko’rish rejimini tanlash - ko’rish rejimini o’zgartirish, razmetka va primechaniylarni ko’rsatish va yashirish.

9- Masshtabni o’zgartirish – maxsus tugmani chap va o’nga surish orqali oyna o’lchamini kattalashtirish va kichiklashtirish.



2.8.Rasm. Power Point oynasi

1- Mavzu va shablonlarni internetdan qidirish - mos keladigan mavzu va shablonlarni **Office.com** saytidan qidirish, qidirish maydonida kalit so'zni kiritish kerak.

2- Oxirgi taqdimotlarni ochish – oxiri ishlatilgan taqdimotlarni tezda kirish.

3- Boshqa fallarni topish – kompyuterda mavjud bo'lgan taqdimotlarni topish.


4- Yangi ish varog'idan boshlash – bosh bo'lgan taqdimotnni yaratish uchun **Pustaya prezentastiya** bo'limini tanlang.

5- Tayyor mavzularni ishlatish – taqdimot yaratish uchun berilgan mavzulardan birini tanlash.

6- Shalonlar kategoriyalarini tanlash - **PowerPoint ba'zi bir** eng ommabop shablonlarni ko'rish uchun kategoriyalardan birini tanlash.

7- **Vxod v Office**

Lentada sozlanadigan menyu(vkladka) va guruhlarni yaratish. Lentada sozlanadigan menyu (vkladka) va guruhlarni yaratish mumkin va kerakli tugma buyruqlarni qo'shish mumkin. menyuning (vkladka) ixtiyoriy joyga sichqoncha o'ng tugmasini bosing va hosil bo'lgan menyudan **Nastroyka lenty** ni tanlang.




2.9.Rasm. Power Point oynasi

Parametry PowerPoint oynasidan kerakli buyruqni tanlang. Masalan, **Chasto ispolzuemye** menyusini yaratish mumkin va sozlanadigan guruhdan ko'p ishlatiladigan buyruqlarni qo'shish mumkin. Xato bo'lgan xollarda esa standart parametrlarga **Sbros** tugmasi yordamida qaytish mumkin.


Tasmada PowerPoint dasturinging oldingi versiyalarida ishlatilgan buyruqlar ko'rinmaydi, lekin ular bu versiyada ham mavjud. **Parametrы PowerPoint** muloqot oynasidan **Nastroyka lentы** kategoriyasini tanlan, **Vыbrat komandы** ruyxatidan **Komandы ne na lente** bo'limini tanlang. Kerakli buyruqni tanlang va sozlanadigan menyuga yoki guruhga qo'shing.

Tez-tez ishlatiladigan buyruqlar kirish.



2.10. Rasm.

Agar kerakli buyruq ruyxatda mavjud bo'lmasa, u holda kontekstli menyudan **Dobavit na panel bыstrogo dostupa bo'imini** tanlash orqali sozlash mumkin.



Uskunlalarning sezuvchanlik tushunchasi

E'tibor bersangiz ba'zi bir jarayonlarda menyularni hosil bo'lishi va yo'qolishini kurzatishimiz mumkin bo'ladi.

Masalan, vidioroliklarni slaydga joylashtirganda va belgilanganda avtomatik tarzda **Rabota s video — Vosproizvedenie** i **Format menyusi** hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan menyu yordamida videorolikni sozlash va parametrlarini o'zgartirish mumkin.

Huddi shu kabi kontekstli meyular (vkladka) rasmlar, diagrammalar, jadvallar, qo'yish va belgilash uchun, WordArt matnlar va boshqa ob'yetlarda ham qo'llaniladi.

Slayd bilan ishlayotga vaqtingizda fon ustiga o'ng tugmani bossangiz turli bo'limlardan iborat bo'lgan konteksli menyu hosil bo'ladi. Bundan tashqari matn ustida qandaydir amalni bajarmoqchi

bo’lsangiz masalan matn ko’rinish, joylashish o’zgartirishni tanlaganingizda kichik panel avtomatik tarzda hosil bo’ladi.




Mavzuni o’zgartirish.

Agar siz mavjud mavzularni tanlab uning ranglarini o’zgartirmoqchi bo’lsangiz, **Dizayn** menyusidagu biror bir mavzu ko’rinishni tanlash orqali amalga oshirishingiz mumkin.

Agar birorta ham taklif etilayotgan variantlarning hech biri maqul kelmagan holatda Obrazest slaydov rejimi orqali mavzu shrifti, rangi va effektlarini tanlashingiz mumkin.

Vid menyusidan (vkladka) Obrazest slaydov tugmasini tanlang, Fon guruhida Stveta, Shriftы va Effektы parametrlari hosil bo’ladi.




2.11.rasm.

Ma’ruzachi rejimini avtomatik sozlash

PowerPoint dasturning oldingi versiyalarida ma’ruzachi rejimini qo’llash bir qancha qiyinchiliklar tug’tdirar edi. PowerPoint 2013 versiyasida esa bunday muammolarga duch kelmaydi.

Proektor yoki monitorni ichga tushiring PowerPoint dasturidan kerakli parametrni avtomatik tarzda ishga tushiradi. Zarurat bo’lganda uni o’zingiz sozlashiringiz mumkin.




2.12.rasm.

PowerPoint sensorli qurilmalarda.
PowerPoint 2013 sensorli qurilmalarda ishlash imkoniyatir mavjud bolib, taqdimotdagi slaydlarni ketma-ket ko'rish, tanlash va mashtabini o'zgartirish mumkin.




2.13.rasm.

Sahifa parametrlarini o`zgartirish.



Sahifa parametrlarini o`zgartirish uchun Dizayn menyusidan Parametrы stranistы guruhidagi Parametrы stranistы va orientastiya slayda tugmalaridan foydalanish mumkin.



2.14.rasm.

Slaydlarga matn kiritish.

Yangi slayd yaratishda POWERPOINT har bir slaydni namunaviy matn bilan to'ldiradi. Bu matnlarni siz o'zingizning matningiz bilan almashtirishingiz lozim.
Kerak bo'lgan formatni tanlang
O'z matningizni kiritish uchun bu maydonlardan biri ustida sichqoncha tugmasini bosing. POWERPOINT matnning kiritilishini ta'minlaydi. Keyin esa quyidagini bajaring:


Oxirida esa matnning kiritilganligiga amin bo’lish uchun maydonning tashqaridagi istalgan joyida sichqoncha tugmasini bosing.
Siz matnga har xil formatlash elementlarini qo’llashingiz mumkin. Sizda quyidagi imkoniyatlar mavjud:
1. shrift yoki uning o’lchamini o’zgartirish;
2. shriftning ustiga chizish yoki maxsus effekt qo’llash;
3. rangini o’zgartirish;
4. matnni tekislash;
5. satrlar orasining intervalini o’zgartirish

Formatlashni qo’llash

Kerakli matn ustiga kelib sichqoncha yordamida formatlash kerak bo’lgan qismini ajrating. Glavnaya menyusidan shiriftlarni quyuq, og’ma, chizilgan ko’rinishda yozish, ranglarini o`zgartirish, joylashuvini o`zgartirish mumkin.
Matn belgilangandan so’ng qo`shimcha Format manyusi hosil bo’ladi. Hosil bo’lgan menyudan matn uchun qo’shimcha o’zgartirishlar kiritish mumkin: zalivka qo’yish, og’ish, soyalar qo’yish, sahifaga tekislash va k.z.

MS PowerPoint dasturida taqdimotga grafik ob’ektlar qo’shish

Power Point dasturida grafik ob’yektlar qo’shish uchun Vstavka manyusidan Izobrajenie va Illyustrastii guruhlaridan foydalaniladi.



2.16.rasm


Power Point dasturida grafik ob’yektlar sifatida kompyuterda mavjud grafik ob’yektlar, rasmlar,tasvirlar, shakllar, diagrammalar qo’shish mumkin.
POWERPOINT ko’p zamonaviy grafik tasvirlarni o’zgartirishi mumkin. Grafik ob’yektlarni slaydga qo’yganingizdan so’ng siz oddiy usul bilan uning o’lchami va joyini o’zgartirishingiz mumkin.

Boshqa dasturdan rasm joylashtirish

Kompyuterda mavjud grafik ob’yektlarni joylashtirsh uchun Vstavka manyusidan Izobrajenie guruhidan Risunok tugmasinidan foydalanamiz.

Taqdimotni namoyish qilish.

Taqdimotlarni tuzib bo’lgandan so’ng ularning namoyishini ko’rish vaqti keldi. Bundan oldin namoyish parametrlarini o’rnatish kerak. Agar xohlasangiz, POWERPOINTni slayddan slaydga sizning buyrug’ingizsiz o’tmaydigan qilib moslashtirishingiz mumkin. Bu, agar siz taqdimot davomida uzilishlar bo’lishi mumkin, deb o’ylasangiz foydadan xoli emas. Shu usul bilan siz butunlay taqdimotni boshqarishingiz mumkin. Aksincha, agar xohlasangiz, slaydlarni POWERPOINT o’zi ketma-ket ko’rsatadigan qilib moslashtirishingiz mumkin. Perxodы menyusidagi Vremya pakaza slaydov guruhidagi Po щelchku tugmasi tanlanganda slaydlarni ketma – ket o`tishini boshqarasiz, Posle tugmasi tanlangan belgilangan vaqtda slaydlar avtomatik o`tadi.



2.17.rasm

MS POWERPOINT dasturida taqdimot ob’yektlarida animatsiya

Slaydlarga maxsus effektlar qo’shish

PowerPoint slaydlariga turli animatsion effektlarni o’rnatish mumkin. Slaydlarga animatsion effektlarni qo’llash orqali slaydlarning rang-barangligi oshiriladi. PowerPoint slaydlariga animatsion slaydlar quyidagicha Animastiya menyusidagi foydalaniladi. PowerPoint dasturida to’rt turdagi animatsiya effektlari bo’lib, bular:


-Vxod (chiqish) effekti. ob’yektni ekranni turli qismalaridan va turli ko’rinishlarida chiqishi.

-Vыxod (chiqib ketish) effekti. ob’yekt slayddan turli ko’rinishlarda chiqib ketadi.

-Vыdelenie (alohida ajratish) effekti. Misol sifatida ob’ekt o’lchamlarini kattalashtirish va kichiklashtirish, ranglarini o’zgartirish, ob’ektni o’z atrofidan aylanishi keltirish mumkin.


Microsoft Power Point 2016 va yangi versiya Microsoft Power Point 2019 dagi o`zgarishlarni keltirib o`tamiz:

Office 2019-da siz foydalanishda yangi murakkab vositalar, ma'lumotlar turlari, xususiyatlari, tarjima qilish va tahrirlash vositalari, animatsiyalar va boshqalarni topasiz.



2.18.rasm.


SVG rasmlarini qo'shish va ularga filtrlarni qo'llash orqali hujjatlaringizga, varaqlaringizga va taqdimotlaringizga ta'sir qo'shing.



2.19.rasm.

Til to'sig'ini yo'q qilish

Microsoft Translator yordamida so'zlarni, iboralarni va butun matn parchalarini boshqa tilga tarjima qiling.



2.20.rasm.

LaTeX tenglamasini qo'llab-quvvatlash

Hammasi siz so'raganidek! Matematik formulalarni endi LaTeX sintaksisidan foydalanib yaratish mumkin.



2.21.rasm.

Transform effekti bilan animatsiya qo'shish

Transformatsiyalar yordamida silliq animatsiya effektlari, o'tish va harakatlanuvchi moslamalarni slaydlar orasiga qo'shing.



2.22.rasm.

Tarkibi bilan qulay navigatsiya


Mundarija slaydlar orasida istalgan tartibda harakatlanish imkonini beradi. Slayd-shouning muhim bo'lmagan qismlarini o'tkazib yuborishingiz yoki taqdimotni buzmasdan muhim qismlarga qaytishingiz mumkin.



2.23.rasm.

Raqamli qalam bilan slayd-shou *

Slaydlarni o'zgartirish uchun Surface qalamidan yoki Bluetooth tugmachasi bo'lgan boshqa qalamdan foydalaning.



2.24.rasm.

Qo'l yozuvi

Barmog'ingiz yoki qalamingiz bilan siyohni shakllarga o'tkazing, murakkab matematik xatolarni chiqaring, matnni ajratib ko'ring va hokazo. Sichqoncha ishlamayapti!

G'oyalarni hayotga tatbiq etish

Yangi veb-sayt shablonlari maketni tuzish uchun juda mos keladi. Shu tarzda siz rivojlanishni boshlashdan oldin o'z g'oyalaringizni tasavvur qilishingiz mumkin.

Ko'zi ojiz foydalanuvchilar uchun tovushlar

Ish paytida sizga ko'rsatma berish uchun audio ko'rsatmalarni yoqing. Siz ularni va boshqa tovush effektlarini **Variantlar** > **Maxsus imkoniyatlar** ostida topishingiz **mumkin** .

TOPSHIRIQLAR

1. MS POWERPOINT dasturiga kiring.
2. MS POWERPOINT dasturi menyulari bilan tanishing.
3. Taqdimot uchun Dizayn menyusidan tanlang:

a) Dizayn menyusidan Темы guruhidan taqdimot dizaynini uchun tayyor shablonlarni tanlash.

b) Dizayn menyusidan Ctili fona tugmasidan komyuterdagi mavjud maxsus orqa fonlarni joylashtirish.

4. Zagolovok slayda (slayd sarlavhasi) satriga taqdimot nomini va Tekst slayda (slayd matni) satriga unga qo’shimcha yozuvni kiriting.
5. Sarlavha satriga kiritilgan matnning o’lchamini 48 pt va rangini belgilang.
6. Sarlavha tagidagi yozuvning hajmini 44 pt va rangini o’rnating.
7. Matn ko`rinishlarini o’zgartiring.
7. Taqdimotga yangi slayd qo`shing. Glavnaya menyusidan Sozdat slayd (Slayd yaratish) farmoyishini yoki Ctrl+M tugmalar majmuasini tanlash orqali.

8. Slaydga kompyuterda mavjud grafik ob’yektlarni joylashtiring.
Vstavka manyusidan Izobrajenie guruhidan Risunok tugmasinidan foydalangan holda.
9. Slaydga shakllar kiriting. (Orqaga va oldinga yo`nalgan yo’nalishlar).
Vstavka manyusidan Illyustrastii guruhidagi Figurы tugmasidan foydalaniladi.
10. Slaydlarni matn, grafik ob’yektlari barchasini joylashtiring.

3-MAVZU. ELEKTRON DARSLIK

1.Elektron ta’lim resurslari haqida tushuncha.
2.O’quv maqsadli elektron vositalar yaratish bosqichlari. Elektron darslik tushunchasi va ishlab chiqish bosqichlari.
3. Elektron o’quv kurslarini loyihalashtirish.
4.Elektron darsliklar yaratish dasturiy vositalari.
5.CoursLab dasturlari va uning imkoniyatlari.

3.1.Elektron ta’lim resurslari haqida tushuncha

Ta'rif: Rasmiylashtirilgan o'qitishga asoslangan, ammo elektron manbalar yordamida ta'lim tizimi E-learning deb nomlanadi. O'qitish sinf xonalarida yoki undan tashqarida bo'lishi mumkin bo'lsa-da, kompyuter va Internetdan foydalanish elektron ta'limning asosiy tarkibiy qismidir. Elektron o'qitish, shuningdek, ko'nikma va bilimlarni uzatuvchi tarmoq deb nomlanishi mumkin va ta'lim bir xil yoki turli vaqtlarda ko'plab oluvchilarga etkaziladi. Ilgari, bu tizimda o'rganishda talab qilinadigan insoniy element yo'qligi taxmin qilinganligi sababli chin dildan qabul qilinmadi.

Elektron ta'limning qiymati nimada?

Onlayn ta'lim an'anaviy ta'lim usullariga nisbatan juda ko'p afzalliklarga ega. Ulardan ba'zilari talabalar uchun mustaqil ravishda o'qitishdan foydalanish va o'zlarining o'rganish muhitlarini tanlash imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, elektron ta'lim ham an'anaviy, ham an'anaviy sinflar va ta'lim bilan bog'liq bo'lgan geografik to'siqlarni olib tashlaganligi sababli ham iqtisodiy, ham tejamkor hisoblanadi.

Onlayn ta'lim resurslari nima?

1. Bosma manbalardan emas, balki Internetda mavjud bo'lgan o'quv manbalarini o'rganish.
2. Onlayn ta'lim muhitida Internetda mavjud bo'lgan har qanday manba. Kurs yoki bobning maqsadi, ma'ruza matnlari, topshiriqlar yoki bob savollariga javoblar kabi HTML hujjatlar bo'lishi mumkin. Bu audio yoki video darslar, interaktiv mashqlar yoki imtihonlar yoki boshqa veb-saytlarga havolalarni taqdim etuvchi hujjatlar bo'lishi mumkin.
3. Bir nechta etkazib berish modellarida taqdim etilgan talabalarning bilimlarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladigan har qanday raqamli materiallar.
4. Talabalarning bilimlarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladigan har qanday raqamli materiallar, bir nechta etkazib berish modellarida.
5.Raqamli ta'lim mazmuni, materiallar va / yoki vositalar onlayn ravishda o'quvchilar uchun mavjud.
Flipped Classroom - bu an'anaviy ravishda sinf ishi va uy vazifasi deb hisoblanadigan narsalarni o'zgartiradigan o'rganishning aralash modeli. Shu sababli, ilgari yuzma-yuz sozlashda bo'lgan ma'ruzalarga o'rniga onlayn texnologiyalar orqali kirish mumkin, va yuzma-yuz dars vaqtini muhokama qilish, muammolarni hal qilish va hamkorlikda ishlash uchun foydalanish mumkin. O'qishning ushbu o'zgaruvchan shakli Internetda o'qitishning ekologik tizimlarida, xususan, ishtirok etish sharti bilan ijtimoiy texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash va o'rganish tajribalarini o'zgartirishga qaratilgan ko'plab pedagogik yondashuvlarni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Shu munosabat bilan, Internet-resurslardan (masalan: ijtimoiy tarmoq saytlari, vikilar, bloglar saytlari yoki mikro-bloglash vositalari) shaxsiy o'rganish muhiti (PLE) yoki ta'limning onlayn jamoalari kabi ochiq, tarqatilgan va joylashgan ekologiyalarni qo'llab-quvvatlash uchun foydalanilmoqda. Internet-resurslardan, shu jumladan Web 2.0 va ijtimoiy media-saytlardan shaxsiy o’rganish va onlayn ta'lim jamoalarida o'quvchilar va o'qituvchilar birgalikda tarkib yaratish va nashr etish, odamlar bilan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, fikr almashish, va mavjud o'quvchilar hamjamiyati ichida yoki undan tashqarida boshqalar bilan hamkorlik qilish mumkin.

Texnologiya o'quv jarayonlariga yordam beradigan turli xil asboblar va vositalarni ishlab chiqdi. Asosiy o'zgarishlar internet-resurslarga tegishli. O'quvchilar tanqidiy fikrlash va tanlangan metodikalarni qo'llash orqali resurslarning barcha imkoniyatlaridan

foydalanishlari kerak. Turli sabablarga ko'ra Internet resurslaridan o'quv jarayonida to'liq foydalanib bo'lmadi. Innovatsion va konstruktiv qidirish usullarini o'quvchilar o'z o'quv jarayonlarida Internet-resurslardan foydalanishni aniq anglay olmadilar. Rivojlangan davlatlar o'quvchilarni maktab darajasidanoq onlayn-resurslardan foydalanishga aniq yo'naltirmoqdalar. Ammo, rivojlanayotgan va rivojlanmagan davlatlarga ushbu resurslardan ta'lim jarayonlarida, xususan o'quv jarayonlarida foydalanishda biron bir nuqta etishmayapti.



3.1.Rasm. Elektron ta’lim resurslari

3.2.O’quv maqsadli elektron vositalar yaratish bosqichlari. Elektron darslik tushunchasi va ishlab chiqish bosqichlari.

O’quv adabiyotlari muayan ta’lim turi o’quv rejasida qayd etilgan fanlar bo’yicha tegishli o’quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o’zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan manba bo’lib, ikki shaklada tayyorlanadi: an’anaviy (bosma) o’quv adabiyotlari va elektron o’quv adabiyotlari.

An’anaviy (bosma) o’quv adabiyotlari – ta’lim oluvchilarning yoshi va psixo- fiziologik xususiyatlari, ma’lumotlar hajmi, shriftlari, qog’oz sifati, muqova turi va boshqa ko’rsatkichlarni hisobga olgan qog’ozda chop etiladigan manbadir.

Elektron o’quv adabiyotlari – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo’lgan manbadir.

Uzluksiz ta’lim tizimi o’quv-tarbiyaviy jarayonida o’quv adabiyotlarining

quyidagi turlari qo’llaniladi: darslik, o’quv qo’llanma, lug’at, izohli lug’at, ma’lumotlar to’plami, lekstiyalar kursi, lekstiyalar to’plami, metodik ko’rsatma, metodik qo’llanma, sharh, dayjest, elektron dasrlik, ma’lumotlar banki va boshqalar.

Darslik-o’quv fani, uning biror yo’nalishi yoki tarkibiy qismining davlat standartlariga va o’quv dasturiga mos holda, yuqori ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan sistemali ravishda bayon etilgan o’quv maxsulotidir.

Elektron darslik - yangi axborot-kompyuter texnologiyalari asosida va yuqori ilmiy va metodologik darajada yaratilgan Davlat ta’lim standarti mutaxassisliklari va yo’nalishlarining mayyan o’quv fani (yoki bir necha fan)ga to’la mos kelgan asosiy o’quv elektron maxsuloti hisoblanadi.

O’quv qo’llanma - darslikni qisman yoki to’la o’rnini bosuvchi, yoki to’ldiruvchi va qo’llanma sifatida ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan mahsulotdir.

Elektron o’quv qo’llanma - darslikni qisman yoki to’la o’rnini bosuvchi, yoki to’ldiruvchi va qo’llanma sifatida ta’lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan elektron maxsulot hisoblanadi.

Elektron o’quv adabiyotlari eng asosiy vakili elektron darslik hisoblanadi. Elektron darslik – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o’quv uslubini qo’llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o’quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama samarador o’zlashtirilishiga mo’ljallangan bo’lib:

- o’quv va ilmiy materiallar faqat verbal (matn) shaklda;
- o’quv materiallar verbal (matn) va ikki o’lchamli grafik shaklda;
- multimedia (multimedia- ko’p axborotli muhit) qo’llanmalar, ya’ni ma’lumot uch o’lchamli grafik ko’rinishida, ovozli, video, animastiya va qisman verbal (matn) shaklda;
- taktil (his qilinuvchi, seziluvchan) xususiyatga ega, ta’lim oluvchini kompyuter ekrani olamida o’zining stereo nusxalari tasvirlangan real olamga kirib borishi va undagi ob’ektlarga nisbatan tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi.

Elektron darslikning bosma darsliklardan farqli belgilari quyidagilardan iborat:

- Har bir bosma darslik o’qitish jarayonining ma’lum boshlang’ich va yakuniy darajasini tavsiflaydi. Aniq bir o’quv fani bo’yicha elektron

darslik murakkablikning bir necha darajasidagi materialni o’z tarkibida saqlashi mumkin. Bunda ular har bir daraja uchun interfaol tartibotda bilimlarni tekshirish uchun ko’p variantli topshiriqlarni o’z tarkibida saqlagan bo’ladi.

- Elektron darslikda ko’rgazmalilik bosma darslikdagidan ko’ra yuqoriroqdir. Elektron darsliklarda ko’rgazmalilik animastiyalar, tovush kuzatishlar, giperjo’natishlar, videolavhalar va boshqa multimediyali texnologiyalardan foydalanish bilan ham ta’minlanadi.
- Elektron darslik sinov topshiriqlari va testlarining ko’p variantliligi, ko’pdarajaliligi va xilma-xilligini ta’minlaydi. Elektron darslik barcha topshiriq hamda testlarni interfaol va ta’lim beruvchiga tartibli berilishga imkoniyat yaratadi. Noaniq javob paytida tushuntirishlar va izohlar orqali aniq javob berishga erishish mumkin.
- Elektron darslikni yaratish va tarqatishda bosmaxona ishlari bajarilmaydi. Elektron darsliklar o’zining tuzilishi bo’yicha ochiq tizim bo’lib hisoblanadi. Ularni ishlatish jarayonida to’ldirish va takomillashtirish mumkin.
- Elektron darslikning ta’lim oluvchilar bilan yaqinlashuvi bosma ko’rinishdagi darsliklardan ko’ra yuqoriroq. Elektron darslikka talab oshganda uning adadini osongina oshirish mumkin, tarmoq bo’yicha jo’natish mumkin.

Elektron darsliklarning har bir kategoriyasiga alohida o’z talablar mavjud. Lekin, bir qator talablar borki, ular barcha kategoriyalarga tegishlidir. Ular quyidagilardan iborat:

- modullarning (paragraf va temalarning) matni 4-5 monitor ekranidan oshmasligi kerak (2 ta bet, ma’qulroq);
- giperilovalar 3 bosqichdan oshmasligi ma’qul, chunki asosiy temadan chiqib ketish mumkin emas;
- maxsulot sistemasi kompyuter texnologiyasi talablariga mos kelishi kerak;
- turli rangdagi sahifalarni yaratishda psixolog va ergonomika mutaxassislari tavsiyalariga rioya qilish.

Hozirgi kunda elektron darsliklar yartishning 4 bosqichli kategoriyasi mavjud:

1 - bosqich elektron darsliklar bu gipermatn shaklida bo’lib, bunda o’quv
materiallar bir-biri bilan gipermurojaatlar orqali bog’lanadi. Unda ikki

o’lchovli ko’rsatish qurollaridan, masalan suratlar, jadvallardan foydalanish mumkin.

2 - bosqichli elektron darsliklar o’zida qisman gipermatn va ikki o’lchovli
animastiyani jamlashtiradi. Bu turdagi elektron darsliklarni ko’pincha virtual stendlar deb atash mumkin.

3 - bosqichli elektron darsliklar o’zida bir vaqtda ham animastiya, ham gipermatnni jamlashtirib, bu turdagi elektron darsliklar ovozlashtiriladi. Ulardan multimedia vositalari orqali foydalanganligi uchun multimediyali elektron darslik deb atash mumkin.

4 - bosqich elektron darsliklar zamonaviy tarmoq texnologiyalari asosida
yaratilib, masofaviy o’qitish mezonlariga mos bo’lishi shart.

Elektron darsliklar yaratish jarayonida bir necha pirnstip va yondashishliklarni ishlatmoq zarur. Ularni quyidagilar:

Kvantlash prinstipi: materialni minimal xajmdagi modullardan iborat bo’limlarga bo’lish.

To’lalik prinstipi: Har bir modulda kompanentlar mavjud bo’lishi kerak:

- nazariy yadro;
- nazariy savollar;
- misollar;
- mustaqil echish uchun masala va misollar;
- butun modul bo’yicha javoblari keltirilgan savollar;
- nazorat ishi;
- yordamchi ma’lumotnomalar;
- kommentariylar.

Ochiqlik prinstipi: Har bir modulda matnlarni yangi tushuncha va usullarni o’zlashtirishni engillashtiruvchi vizual kadrlar bo’lishi kerak.

Tarmoqlanish prinstipi: Har bir modul gipertekst ilovalar bilan boshqa

modullar bilan bog’langan bo’lib, axborotlarni o’zlashtirish ketma-ketligini nazarda tutadi.

Boshqarish prinstipi: o’quvchi kadrlar almashinishi o’zi boshqaradi, kerakli murakkablik darajadagi misollarni ochib, o’zini tekshirish mumkin.

Adaptastiya prinstipi: elektron darslik o’quv jarayonining ma’lum paytdagi o’quvchi eHtiyojini qondirish lozim.
Qompyuter yordami prinstipi: elektron darslikni ishlatayotgan Har bir paytda kompyuter yordamini olish mumkinligi (murakkab matematik hisob, lug’at, o’z bilim savyasini tekshirish va boshqalar).
To’plash prinstipi: yagona elektron komplekslarda va bibiliotekalarda joylashtirish va ularga yangi bo’lim va temalar bilan kengaytirish formatida bajarilgan bo’lishi lozim.

Elektron darslik kunduzgi, sirtqi va masofaviy tarzdagi o’quvchilarning mustaqil ishlash uchun zarur, chunki:

- o’qilayotgan materiallarni chop etilgan o’quv darsliklardan o’zga, boshqa usullar (qabul etish yo’llari oshishi) qo’llash munosabati bilan o’zlashtirishni engillashtiriladi;
- o’quvchining talablari va tayyogarlik, intellektual darajasiga moslanadi;
- murakkab Hisob-kitoblarda vaqtning tejalishi hisobiga fanni chuqurroq o’zlashtirishga sharoit yaratiladi;
- ishning har bir bosqichida o’zini tekshirish uchun keng sharoitlar yaratiladi;
- bajarilgan ishni zamonaviy shaklda fayl yoki printerda chop qilishga sharoit yaratiladi;
- chegaralanmagan sonli tushuntirish, takrorlash va yordamchi materiallar taqdim etib, sabrli murabbiy vazifasini bajaradi.



3.2.rasm.

3.3.Elektron o’quv kurslarini loyihalashtirish.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o’qitish usullariga qo’shimcha ravishda yangi o’qitish shakli - *masofaviy o’qitish yaratilishiga* omil bo’ldi.

Masofaviy ta’lim – zamonaviy axborot kommunikastion texnologiyalari vositasida masofadan turib ma’lumotlarni uzatish, qabul qilish orqali ma’lum fan yoki soha bo’yicha o’qitish shakli bo’lib, an’anaviy ta’limga nisbatan o’ziga xos avzalliklarga ega. U bir vaqtning o’zida jamoaning keng qatlamiga ta’lim berishda qo’l keladi. Fan-texnika rivojlanishi tufayli o’quvchilarga berilishi zarur bo’lgan axborot miqdori nihoyat darajada ko’payib bormoqda. Bu axborotlarni talabalarga an’anaviy usul va vositalar yordamida etkazib berish murakkab vazifalardan biri bo’lib olmoqda. Yaqin kunlargacha ko’pgina davlatlarda bunday o’qitish turi qo’lllanilmagan edi, sababi, davlatlardagi informastion va telekommunikatstion texnologiyalarning etarli darajada rivojlanmaganligidir. Lekin hozirgi davrga kelib onlayn rejimida ta’lim olish jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Odatda barcha e-learningning iborasini internet yoki intranet orqali elektron tarzda o’qitiladi deb biladilar. e-**learning** dasturiy ta`minoti oddiy HTML sahifalaridan tortib murakkab bo’lgan LMS yoki SMS gacha boradi.

LMS nima? Bu tizim har bir talabaga shaxsiy imkoniyatlarni kengaytirib materiallar bilan ishlashga yordam beradi. O’qituvchilarga esa o’quv dasturini tashkillashtirishda zarur jihozlar bilan ta’minlash, ta’lim samaradorligi to’g’risida hisobotlarni tashkillashtirish, guruh va o’qituvchi o’rtasida hamkorlikni yo’lga qo’yish kabi imkoniyatlarni beradi. Talaba LMS dan o’quv portaliga ruxsat oladi, bu ruxsat unga yuboriluvchi nuqta vazifasini o’tab, barcha o’quv jarayoni kontentini etkazib berish, taxminiy va testlash asosida kerakli o’quv proektini tanlash, maxsus ssilkalar yordamida qo’shimcha materiallardan foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari — bu ta’lim oluvchi va pedagog xodimning to’liq yoki qisman masofadan o’zaro faoliyatida asosan axborot va telekommunikastiya texnologiyalarini qo’llab amalga oshiriladigan ta’lim texnologiyalari tushuniladi.

Masofaviy o’qitish. “Masofaviy o’qitish” atamasi, yuqorida aytilganlarning eng birinchi bo’g’ini bo’lib, Viskonsin shtati

Universiteti tomonidan 1892 yildan boshlab sirtqi (korrespondentlik) kurslarda qo'llanilgan. Masofaviy deb masofadan turib tashkil qilingan ta'lim tushunilgan. Unga "korrespondentlik o'qitish", "uyda o'qish" va boshqalar sinonim hisoblangan.

Masofaviy ta'lim texnologiyalari kunduzgi, sirtqi, kunduzgi-sirtqi; eksternat shakllarida; ta'limning ma'lum bosqichlarida; asosiy va qo'shimcha ta'lim dasturlarini amalga oshirishda qo'llanilishi mumkin. Masofaviy ta'lim texnologiyalarida qo'llaniladigan aloqa usuli har turli bo'lishi mumkin. Ular elektron pochta orqali yozishmalar, shaxsiy saytlar/bloglar orqali muloqotlar, materiallarni turli elektron resurslar yordamida o'rganish va boshqalardan iborat

Masofaviy ta'limda talaba va o'qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o'zaro maxsus yaratilgan *o'quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari* yordamida doimiy muloqotda bo'ladilar. Internet texnologiyasini qo'llashga asoslangan masofaviy o'qitish jahon axborot ta'lim tarmog'iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o'zaro aloqa tamoyiliga ega bo'lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi.

Bugungi kunda insonlar uchun quyidagi ta'lim shakllari taklif etilmoqda:

1. Kunduzgi ta'lim.
2. Distansion ta'lim.
3. Onlayin ta'lim.
4. Ochiq ommaviy onlayn kurslar (OOOK).

Masofaviy ta'lim an'anaviy ta'lim turlaridan farqli ravishda keng aholi ommasini qamrab oladi. Masofaviy ta'limning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

• ikkinchi oliy yoki qo'shimcha ta'lim;
• ixtiyoriy yoshdagi insonlarning ta'lim olishi;
• jismoniy va oilaviy holatidan qat`iy nazar ta'lim olish;
• ishdan ajralmagan holda ta'lim olish;
• mustaqil ta'lim olish imkoniyatining ko'pligi;
• geografik manzildan qat'iy nazar ta'lim olish;
• tezkorlik imkoniyatlari va boshqalar.

Masofaviy ta'lim – eng yaxshi an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va shakllari-ni o'z ichiga olgan, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'limdir. U ta'lim oluvchiga ma'lum standartlar va ta'lim qonun-qoidalari asosida o'quv

shart-sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizim.

Elektron ta’lim quyidagi imkoniyatlarga ega:

- shaxsiy kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar, MP4-pleyerlar, DVD-pleyerlar, televizorlardan foydalanib elektron materiallar bilan mustaqil ishlash;
- masofaviy hamkorlik imkoniyati, ya’ni olisdagi ekspertdan (o‘qituvchi) konsultatsiya, maslahat, baho olish;
- fikrlari bir-biriga mos keledigan foydalanuvchilar jamiyatini (ijtimoiy tarmoqlar) yaratish;
- masofaviy ta’lim vositalari, elektron o‘quv materiallari va texnologiyalarining standartlari hamda ilovalarini o‘z vaqtida kechayu-kunduz yetkazish;
- tashkilotdagi rahbar va xodimlarning axborot madaniyatini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash;
- innavatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va mmaviylashtirish;
- o‘quv veb-resurslarni rivojlantirish imkoniyat;
- dunyoning istalgan nuqtasidan istalgan vaqtda va istalgan joydan zamonaviy bilim olish;

Elektron ta’limga elektron kitoblar, ta’lim texnologiyalari va xizmatlari kiradi. Aslida electron ta`lim – ta’limda kompyuterlardan foydalanishdan boshlangan.

Elektron ta’limning shakllanishini uch etapga bo‘lish mumkin:

1. CD-ROM disklardagi kurslar;
2. Mutaxassis o‘qituvchilarning masofaviy ta’limi;
3. Maxsus interaktiv dasturlardan, elektron kitoblardan foydalaniladigan elektron ta’lim.

Masofaviy o’qitish barcha ta’lim olish istagi bo’lganlarga o’z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o’qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o’quv-uslubiy materiallarni o’zlashtiradi, nazoratdan o’tadi, o’qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertual o’quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo’ladi.

Ma’lum sabablarga ko’ra, ta’lim muassasalarining kunduzgi bo’limlarida tahsil olish imkoniyati bo’lmagan, masalan, sog’ligi

taqoza etmaydigan, mutaxassicligini o’zgartirish niyati bo’lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo’lgan kishilar uchun masofaviy o’qitish qulay o’qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o’qitishda turli xil *axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi,* ya’ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog’liq. Masalan, an’anaviy bosma usuliga asoslangan o’qitish vositalari (o’quv qo’llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, *interaktiv audio va video konferentsiyalar ma’lum vaqt orasida o’zaro muloqotda bo’lishga, elektron pochta to’g’ri va teskari aloqa o’rnatishg*a, ya’ni xabarlarni jo’natish va qabul qilishga mo’ljallangan.

Oldindan yozilgan **videoma’ruzalar** talabalarga ma’ruzalarni tinglash va ko’rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o’zaro teskari aloqa orqali o’qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta’lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta’riflarni keltirish mumkin.

Masofaviy o’qitish – eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o’qitish vositalari va formalarini o’z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir.

Masofaviy o’qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o’quv shart- sharoitlari va o’qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o’quvchidan ko’proq mustaqil ravishda shug’ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o’qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo’lishiga bog’liq emas.

Masofaviy ta’lim – masofadan turib o’quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o’qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko’rsatuvchi ta’lim majmuaidir.

Masofaviy o’qitish tizimi – masofaviy o’qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o’qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o’qitish tizimi o’zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Nima uchun masofaviy ta’lim

kerak bo’lib qoldi? – degan savol tug’ilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o’tish mumkin:

- ✓ Ta’lim olishda yangi imkoniyatlar (ta’lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog’liqmasligi va boshqalar).
- ✓ Ta’lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi.
- ✓ Ta’lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.
- ✓ Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo’lishi va rivojlanishi.
- ✓ Xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Yuqorida sanab o’tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o’qitishga ehtiyoj borligini ko’rsatadi.

Masofaviy ta’lim modellari

Masofaviy o’qitishning ta’lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo’lib, ular quyidagi qo’llanish shartlari bilan farqlanadi:

- geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);
- mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;
- kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;
- ta’lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo’llanish darajasi;
- ta’limda qo’llaniladigan an’analari;
- masofaviy o’qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

Umuman olganda masofaviy ta’limning maqsadiga quyidagilar kiradi:

- ✓ Mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagi barcha o’quvchilar, talabalar, ta’lim olishni xohlovchilarga birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.
- ✓ Etakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta’lim muassasalarining ilmiy va ta’lim berish potentsiallaridan foydalanish evaziga ta’lim berishning sifat darajasini oshirish.
- ✓ Asosiy ta’lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo’shimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.
- ✓ Ta’lim oluvchilarni ta’lim olishga bo’lgan ehtiyojini qondirish va ta’lim

muhitini kengaytirish.

- ✓ Uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini yaratish.
- ✓ Ta’lim sifatini saqlagan holda yangi printsipal ta’lim darajasini ta’minlash.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta’lim elementlarini ta’lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta’lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart - sharoitlar mavjud.

Ommaviy ochiq onlayn kurslar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son 08.10.2019 yildagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasini tasdiqlash to’g’risidagi” farmonining O’zbeksiton Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasida Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishga alohida e’tibor qaratildi. Bunda ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “Blended learning”, “Flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga joriy etish masalalari ilgari surildi.

Erkin va ochiq manbali dasturiy ta'minot (FOSS) - bu bepul dastur va ham ochiq manbali dastur sifatida tasniflanishi mumkin bo'lgan dastur. Ya'ni, har kim biron-bir tarzda dasturni ishlatish, nusxalash, o'rganish va o'zgartirish uchun erkin litsenziyaga ega, va manba kodi ochiq bo'lib, odamlar dasturiy ta'minot dizaynini ixtiyoriy ravishda yaxshilashga da'vat etiladilar. Bu xususiy dasturiy ta'minotdan farqli o'laroq, dasturiy ta'minot cheklangan va boshlang'ich kod odatda foydalanuvchilar tomonidan berkitilgan.

Ommaviy ochiq onlayn kurs (MOOC) bu cheksiz ishtirok etishga va Internet orqali ochiq kirishga qaratilgan onlayn kursdir. Oxirgi bir necha yillarda elektron ta’limda yangi-ommaviy ochiq onlayn kurslarini(ingliz tilidan Massiv Open Online Courses, MOOC) yaratish tendensiyasi paydo bo’ldi. MOOC – internetdan ochiq foydalana olishda tinglovchilarning yirik masshtabli interaktiv ishtirokiga tuzilgan kursdan iborat. “Ommaviy ochiq kurs” atamasi Brayn Aleksandr va Deyv Korme tadqiqotchilarning “Connectivism &Connektive knowledge” kursi ustida ish olib borilgan ishlar natijasida kiritildi. MOOC atamasi to’rtta aloqa atamadan iborat:

-Massive (ommaviy) –kursga butun dunyodan ishtirokchilarning katta sonini o'qitilishini bildiradi.

-Open(ochiq) –har bir kurs bepul hisoblanadi va har bir shaxs istalgan vaqtda kursga ulanishi mumkin.

-Online(onlayn)- barcha kurslar Internet tarmog'ida ochiq foydalana olishi mumkin. Kursda ta'limning asinxron metodidan foydalanish mumkin, bunda o'qish uchun xamma ma'suliyat tinglovchilar zimmasida bo'ladi va ta'limning sinxron metodida o'qish jarayoni o'qituvchi bilan real vaqt rejimida amalga oshiriladi;

-Course (kurs) –har bir kurs har bi ishtirokida moslashtirilgan holda o'z qoidalariga, o'z strukturasiga va o'z maqsadiga ega bo'ladi.

G'arb matbuoti birinchi marta 2011 yili MOOC ga Stenford professori Sebastyan Trun internet tarmog'ida g'ayritabiiy intellekt to'g'risida bepul kursni muvaffaqiyatli o'qiganidan keyin e'tibor qaratgan. Trun talabalari safida 190 mamlakatdan 160 ming kishi kirdi. AQShdagi universitetlari Trun eksperimentidan keyin yangi to'lqinda ishlab daromad orttirish maqsadida, ketma-ket MOOC kursini yaratishda ishtirok eta boshladi.

Elektron o'quv kurslarida masofaviy ta'lim olish sistemasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- Ta'lim berish jarayoniga tayyorgarlik
- Ta'lim berish jarayoni

Sistemada foydalanuvchi huquqlarini aniqlovhchi quyidagi asosiy rollar mavjud.

- Administrator- barcha ishni bajara oladigan shaxs
- Kurs yasovchisi(sozdatelkursov(course creator)) – sistemada kursni tahrirlash, royxatga olish va o'qituvchi tayinlash huquqiga ega
- O'qituvchi (teacher)-o'z kursini tahrirlash va unga assistentlarni , talabalarni tayinlash huquqqiga ega
- Yordamchi(Assistent(non-editing teacher)) – kursni tahrirlash huquqqiga ega bo'lmagan, ammo talabarning baholarini, kursning topshiriq va test natijalarini kuzatib boorish huquqiga ega
- Talaba(Student (Student))- O'ziga tegishli bo'lgan kursda ishlash, kurs materiallarini ko'rish, topshiriqlarni tekshirishga yuborish, testlarni bajarish, forum va chatlarda ishtirok etish huquqiga ega
- Mehmon (Gost(guest))- kurs kategoriyalari bilan tanishuvchi menmon sifatida kirish huquqiga ega shaxs.

Elektron o’quv kurslarida o’qitishning avzalliklari

Elektron o’qitishning avzallik tomonlari:

- **kursdan ixtiyoriy vaqtda foydalanish imkoniyati mavjudligi**. Elektron texnologiyalar yordamida kursdan 24 soat, 7 hafta, 365 kun mobaynida foydalanish mumkin, yani 24/7/365-prinstipining mavjudligi;
- **kursga dunyoning istalgan burchagidan (qachonki u erda Internet mavjud bo’lsa) kirish imkoniyati mavjudligi**. Buning uchun ko’pchilik kurslarga katta tezlikdagi internetga ulanish shart emas. Bu oddiy Dial-Up modem orqali ham kirish imkoniyatini beradi.
- **beriladigan ma’lumotlarning kengligi.** Kurs ishtirokchisi o’quv jarayonida materialllarni o’rganish vaqtida dunyodagi turli electron kurslardan va electron kutubxonalardan foydalanishi mumkin.
- **ma’lumotlarning tezlik bilan etkazib berilishi**. An’anaviy ta’limda o’quv jarayonining asosiy ma’lumotlari kitobdan olinadi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida bir qator fanlardan yangiliklarkun-sayin yangilanib boradi, statistik ma’lumotlar o’zgaradi, kitobdagi ma’lumotlar eskirib boradi. Internet orqali olingan ishonchli ma’lumotlar doimiy ravishda yangilanib turiladi.
- **o’quv jarayonining avtomatlashtirilishi.** O’quv jarayoni avtomatik holda boshqarilib turiladi, ya’ni o’qituvchi bir xil variantdagi testlarni nazorat o’tkazish masadida berib, avtomatik tarzda nazorat olishi va kompyuter yordamida baholashi mumkin.
- **Ta’limning multimedialigi.** Matnli va grafik ma’lumotlar an’anaviy ta’limda qog’oz ko’rinishida namoyish etilsa, elektron ta’limda bu ma’lumotlar animastiya, video, tovush va ranglar bilan boyitilib tushuntiriladi. Bu esa talabaga ma’lumotlarni to’liq o’zlashtirish imkonini beradi.
- **O’qitiladigan ma’lumotlarning kengligi va hajm jihatdan kattaligi.** An’anaviy ta’lim berish jarayonida vaqtning cheklanganligi sababli beriladigan ma’lumotlarning hajmi kattaligi jihatidan asosiy qismlarning darsda o’tilishiga to’g’ri keladi. Elektron ta’limda esa bu muammo butunlay echimini topadi va mavzuga doir bir qancha qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanish imkonini ham yaratadi.

O’quv muassasasida masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirishga qo’yiladigan texnik va dasturiy talablar:

MT jarayonini amalga oshirishda qo’yida ko’rsatilgan bosqichlar asosida
amalga oshirish mumkin:

1 -bosqich: Tahlil
2-bosqich: Loyihalashtirish
3-bosqich: Joriy qilish
4-bosqich: O’quv kontentlarini yaratish
5-bosqich: Ishga tushirish
6-bosqich: Rivojlantirish

1 -bosqichda o’quv muassasining masofaviy ta’lim jarayoniga bo’lgan ehtiyojlari, ta’lim jarayonida qatnashayotgan foydalanuvchilarning soni,
o’qitish usullari va shakllari, loyihani amalga oshirishdakerak bo’ladigan
texnik, dasturiy va inson resurslari,loyihani iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi.

2-bosqichda tahlillar natijasida amalga oshiriladigan ishlar ko’lami va texnik topshiriqloyihalashtiriladi.

3-bosqichda esa tanlangan masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuaa tegishli serverda o’rnatiladi, tizimga tegishli domen tanlanadi. Masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuasidan foydalanish va unga texnik qo’llab quvvatloshchi ishchi xodimlarni o’rgatish bo’yicha o’quv mashg’ulotlar tashkillashtiriladi.

4-bosqichda masofaviy ta’lim jarayonining asosiy elementlaridan biri bo’lmish o’quv kontentlar o’quv bo’limi va soha mutaxasislari bilan hamkorlikda yaratiladi. Yaratilgan o’quv kontentlar eskpertlar tomonidan tekshiriladi.

5-bosqichda masofaviy ta’lim jarayoni ishga tushiriladi. Ta’lim jarayonida o’quv jarayoni doiymi nazoratda bo’lib turadi. Tizimdagi havfsizlik choralari monitoring qilib boriladi.

6-bosqichda yuqorida keltirilgan bosqichlarda mavjud bo’lgan kamchiliklar
to’g’rilanadi, yangi o’quv kurslar yaratiladi, texnik imkoniyatlar kengaytiriladi, tizimning rivojlanishiga tegishli bo’lgan ishlar ko’lami bajariladi.

3.4.Elektron darsliklar yaratish dasturiy vositalari

Elektron darslikni yaratish texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

1.Ishlab chiqishning maqsad va vazifalarini aniqlash.

2. Elektron darslikning tuzilmasini ishlab chiqish.

3.Darslikning bo’limlar (modullar) va mavzular bo’yicha mazmunini ishlab chiqish.

4. Elektron darslikning alohida tuzilma sahnalarini tayyorlash.

5. Dasturlashtirish.

6. Sinovdan o’tkazish.

7.Elektron darslik mazmunini sinov natijalari bo’yicha takomillashtirish.

8. Foydalanish uchun uslubiy qo’llanma tayyorlash.

Elektron darsliklar yaratishda hammaga ma’lum bo’lgan **Microsoft Word** matn prostessoridan ham unumli foydalanish mumkin. Har qanday elektron darsliklarning asosiy mazmuni albatta, matnli ma’lumotlardan iborat bo’ladi. Bu matnlarni esa Word dasturida kiritish juda oson va qulaydir. Bu joyda biz Word dasturining matn ustida ishlashdagi imkoniyatlari haqida to’xtalib o’tmoqchi emasmiz. Word dasturining imkoniyatlari bilan barchamiz tanishmiz. Wordda elektron qo’llanma yaratishda ma’lumotlar avvalo, tayyorlanib, unda *giperaloqalar*, *gipermurojaatlar* o’rnatilib, matn gipermatn ko’rinishiga keltiriladi.

Gipermatn-boshqa matnli hujjatlarga yo’l ko’rsatuvchi matndir. Bu esa boshqa matnli fayllarga tezda o’tish imkonini beradi. Gipermatnlar yordamida WWW (World Wide Web-butunjahon o’rgimchak to’ri) hujjatlariga ya’ni halqaro kampyuter tarmog’iga kirish va ulardagi ma’lumotlar bilan tanishish mumkin. Gipermatn yordamida nafaqat matnli ma’lumotlarni rangli harakatdagi tasvirlarni, turli videoko’rinishlarni, umuman multimedia ma’lumotlarini ham ko’rish mumkin. Gipermatnlarda *kalit so’zlar* deb ataluvchi ajratilgan so’zlar mavjud bo’lib, ular orqali boshqa ma’lumotlarga murojaat qilish va u orqali ma’lumotlarni topish *gipermurojaat* deb ataladi.

Elektron darsliklar to’rt toifa bo’yicha klassifikastiyalanadi. Elektron darsliklar toifasi «*» (yulduzcha) bilan belgilanadi. Yulduzchalar soni elektron darslikning murakkabligi va sifati ortishi bilan ko’payib boradi:

I toifa – «*»

II toifa – «**»

III toifa – «***»
IV toifa – «****»
Elektron darsliklar 4 toifaga bo'linadi:

I toifa – o'quv materiallari asosan giperizoh va glossariyalar, shuningdek, ikki o'lchamli grafik diagrammalar, rasmlar, chizmalar hamda
ikki o'lchamli 2D grafikning ilovalari o'quv materialining 25% qamrab olgan verballi matn shaklida ifoda etiladi.

II toifa – o'quv materiallari asosan giperizoh va glossariyalar, shuningdek, ikki o'lchamli grafik diagrammalar, rasmlar, chizmalar hamda
ikki o'lchamli 3D grafikning ilovalari o'quv materialining 25% qamrab olgan, ko'pincha verballi matn shaklida ifoda etiladi.

III toifa – o'quv materiallari asosan giperizoh va glossariyalar, shuningdek, ikki o'lchamli grafik diagrammalar, rasmlar, chizmalar hamda ikki o'lchamli 3D grafikning ilovalari o'quv materialining 50% qamrab olgan, ko'pincha verballi matn shaklida ifoda etiladi.

IV toifa – elektron darslik, masofaviy mashg'ulot o'tkazish imkonini berishi bilan birga, yuqori darajada sifatli bo'lishi, zamonaviy texnologik tarmoqlar talabiga mos bo'lishi kerak.

Mualliflik vositalari (authoring tools)

Mualliflik vositalari – bu o'quv kontenti ishlanmalarining vositalari. Ular yordamida ta'limni boshqarish tizimining (LMS) ma'lumotlar bazasiga joylashtiriladigan o'quv materiallar (elektron o'quv qo'llanmalar, prezentastiyalar, simulyatorlar, videotreninglar, testlar) yaratiladi.

Mualliflik vositalarini bir nechta turlarga ajratish mumkin:

1. O'quv kurslarning redaktorlari (tahrirchilar);
2. Prezentastiyalarni yaratish uchun vositalar;
3. Testlar, so'rovnomalar va anketalarni yaratish uchun vositalar;
4. Monitordagi tasvirlarni qamrab olish uchun vositalar;
5. Onlayn seminarlarni o'tkazish uchun vositalar.

Articulate Studio elektron o'quv kurslarni yaratish uchun imkoniyatlarning keng to'plamlarini taqdim etadigan kuchli dasturiy instrumentlar paketini o'z ichiga oladi. Articulate Studio yordamida interaktiv kontent, viktorina, so'rovlar, baholash va shu kabilardan foydalangan holda taqdim etilayotgan axborotning ko'rgazmaliligiga erishish mumkin.

Articulate Studio – to’liq funkstional va yuqori sifatli interaktiv o’quv resurslarni yaratish uchun instrumentlar paketi hisoblanadi. Ushbu dastur elektron kurslar ishlanmalari kabi test va imtihon materiallarni ham vositalarning bitta blokida birlashtiradi. Articulate Studio foydalanishda kuchli va oddiy instrumentlarni o’z ichiga oladi, ular yordamida elektron o’qitiluvchi va test materiallarni ishlab chiqish va rasmiylashtirish amalga oshiriladi. Articulate Studio ishlab chiqilayotgan elektron o’quv kurslarga turli xildagi interaktiv ob’ektlarni kiritish, Flash-formatning funkstional imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi, shu bilan birga, elektron ta’lim uchun mo’ljallangan materiallarning yuqori sifatiga va ko’rgazmaliligiga erishish mumkin.

Paketlar tarkibiga quyidagi dasturlar kiradi:

Articulate Presenter - flesh-prezentastiyalarni va elektron o’quv kurslarni tez yaratadi.

Articulate Quizmaker - flesh-viktorinani tez yaratadi.

Articulate Engage – elektron kursga interaktiv kontentni oson qo’shib

qo’yadi.

Video Encoder – videoni ommaviy flesh formatga konvertastiyalaydi.

eXe learning –elektron ta’lim uchun materiallarning XHTML redaktori. U Web-ishlanma uchun HTML redaktorni yoki murakkab ilovalarni o’rganish zaruriyatisiz o’quv va metodik Web materiallarni loyihalash, ishlab chiqish va nashr qilish uchun o’qituvchilar va olimlar uchun instrumentlarni o’z ichiga oladi.

Veb-avtoringning ko’pgina dasturlari ta’lim jarayonini o’zlashtirish uchun etarlicha ko’p hajmli kursni o’qish talab etadi, o’quv materiallarni nashr qilish uchun intuitiv-tushunarli yoki moslashtirilgan bo’lib hisoblanadi. Shuning uchun o’qituvchilar va olimlar o’quv materialni onlayn nashr qilish uchun ushbu texnologiyalarni qabul qilishmadi. eXe o’qituvchilarga malakali rasmiylashtirilgan o’qitiluvchi veb-sahifani nashr qilish imkonini beradigan instrumentlarning intuitivliligini va ulardan foydalanishning oddiyligini ta’minlaydi. Ko’plab CMS, shu jumladan, LCMS yagona veb-serverga ulanadigan mualliflik materiallarni yaratish uchun talab etiladigan markazlashtirilgan modeldan foydalanadi. Bu bog’lanishning eng kichik o’tkazish imkoniyatiga ega yoki umumiy

ulanish mavjud bo’lmaganda mualliflarni cheklaydi. eXe serverga ulanish zarur bo’lmagan holda ishlanmalarning avtonom instrumenti sifatida ishlab chiqilgan.

3.5.CoursLab dasturlari va uning imkoniyatlari.

CourseLab - bu Internetda, masofaviy o'qitish tizimlarida, CD-ROM-da yoki boshqa vositalarda foydalanish uchun interaktiv o'quv materiallarini (elektron kurslar) yaratish uchun kuchli, ammo ishlatish uchun qulay vosita.

CourseLab-ning asosiy xususiyatlari:

• WYSIWYG muhitida o'quv materiallarini yaratish va tahrirlash - natijada ko'rgan narsangiz.

• Material muallifidan HTML yoki biron bir dasturlash tillarini bilishni talab qilmaydi.

• Ob'ektiv yondashuv, bolalar bloklari singari, deyarli har qanday murakkablikdagi o'quv materialini yaratishga imkon beradi.

• Ssenariylardan foydalanish murakkab ko'p ob'ektli shovqinlarni yaratishni sezilarli darajada soddalashtirishga imkon beradi.

• Ichki sinovlarni qurish mexanizmi.

• Ochiq ob'ektlar interfeysi sizga ob'ektlar va shablonlar kutubxonalarini, shu jumladan foydalanuvchi tomonidan yaratilgan to'plamlarni osonlikcha kengaytirishga imkon beradi.

• Ob'ektlarning o'rnatilgan animatsiya mexanizmlari.

• Kurslarga har qanday Rich-media tarkibini kiritish imkoniyati - Macromedia® Flash®, Shockwave®, Java®, turli formatdagi video va boshqalar.

• Ovozni qo'shish va sinxronlashtirish uchun oddiy mexanizmlar.

• Microsoft® PowerPoint® formatidan o'quv materiallariga taqdimotlarni import qilish imkoniyati.

• Sizga turli xil dasturiy mahsulotlar ishlarining simulyatsiyalarini osongina yaratishga imkon beruvchi o'rnatilgan ekranni tortib olish mexanizmi.

• Amallarni tavsiflash uchun oddiy ichki til.

• Ilg'or foydalanuvchi uchun muharrir ob'ekt xususiyatlariga va kurs pleyerining funktsiyalariga to'g'ridan-to'g'ri JavaScript-dan foydalanish orqali qo'shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi.

• eLearning kurslarini o'ynash uchun Java® talab qilinmaydi.

CourseLab bilan yaratilgan eLearning kursi buyurtma qilingan o'quv modullari to'plamidir. O'quv materialining tuzilishiga qarab,

modullar bo'limlarga birlashtirilishi mumkin. O'z navbatida, bo'limlar ham ierarxiyaning yuqori darajadagi bo'limlariga birlashtirilishi mumkin.

CourseLab-da yaratilgan kursning o'quv modullarini o'quv modullarini tematik ravishda birlashtirgan bo'limlarga birlashtirish mumkin. Bo'limlar, o'z navbatida, bo'limlarga birlashtirilishi mumkin, shuning uchun juda murakkab kurs iyerarxiyasi tuzilishi mumkin. Biroq, bo'limlarning soni va uyalashi texnik jihatdan hech qanday tarzda cheklanmagan bo'lsa-da, amalda talabaning kurs tuzilishini tushunishini osonlashtirish uchun ierarxiyaning keraksiz asoratlaridan saqlanish kerak.

Slayd (interaktiv sahifa) - bu o'quv modulining asosiy tarkibiy bo'limi. Kurs muallifi slaydlarda o'quv va ma'lumotnomalarni, mashqlarni, testlarni joylashtiradi. O'quv jarayonida talaba muallif tomonidan belgilangan ketma-ketlikda slayddan slaydga o'tadi.

Slayd bir yoki bir nechta freymlardan iborat (murakkab animatsiyalar va dasturiy ta'minotni simulyatsiya qilishda ularning soni juda katta bo'lishi mumkin). Har qanday slaydda kamida bitta kadr mavjud.

Kadr - bu o'quv modulining eng kichik tarkibiy bo'limi, slaydning ajralmas qismi.

Moduli yaratishda muallif foydalangan ob'ektlar aynan shu kadrlarga joylashtirilgan.

E'tibor bering, garchi texnik jihatdan bitta slayddagi kadrlar soni hech narsa bilan cheklanmagan bo'lsa-da, amalda har slaydda 30-40 kadr chegarasidan oshib ketish tavsiya etilmaydi - shunchaki talabaning barcha kadrlardagi moslamalarni yuklashini kutish vaqti berilgan slaydda noqulay bo'lishi mumkin.

Masofaviy o'qitish tizimi uchun xodimlar, shuningdek slaydlar alohida mavjud emas - bu tizim boshqarishi mumkin bo'lgan eng kichik birlik o'quv moduli.

Slayd-splash ekrani - bu modulning o'ziga xos "qopqog'i", o'quv moduli ochilgandan so'ng darhol talabaning kompyuterida ko'rsatiladigan maxsus slayd. Bosh ekran ko'rsatilayotganda, asosiy modul kodi yuklanmoqda, shuning uchun ekran ochilishi kodni yuklash jarayonini deyarli ko'rinmas holga keltiradi.

CourseLab muharririni ishga tushiring. Tahrirlovchini ishga tushirgandan so'ng darhol "Ishga kirishish" oynasi ochiladi. "Yangi

kurs yaratish" havolasini tanlang (agar muharrir allaqachon ishlayotgan bo'lsa, Fayl - Yangi - Kurs menyusi buyrug'i, "Kurs yaratish" belgisi yoki Ctrl-Shift-N tugmalar birikmasi yordamida yangi kurs yaratishingiz mumkin). Yangi bitim ustasi ochiladi.

Yangi kurs yaratishni boshlash uchun Keyingi tugmasini bosing. Yangi Kurs sehrgarining keyingi sahifasi ochiladi.

Sehrgarning keyingi sahifasida:

• kurs nomini kiriting,

• kurs papkasining nomini kiriting,

• kurs papkasi yaratiladigan joyni tanlang va "Keyingi" tugmasini bosing.

Odatiy bo'lib, bitta modul bilan kurs yaratiladi. Sehrgarning keyingi sahifasida:

• birinchi modul nomini kiriting,

• unga dizayn shablonini tanlang va "Keyingi" tugmasini bosing.

Kurs yaratilgan. Yangi kurs ustasini yopish uchun Yopish tugmachasini bosing. Keyinchalik kursga yangi modullarni va agar kerak bo'lsa bo'limlarni qo'shishingiz mumkin.

Har bir yangi yaratilgan modul uchun siz tahrirlash parametrlarini o'zgartirishingiz mumkin:

modulning kengligi va balandligi, barcha matn bloklarida ishlatiladigan standart shrift uchun sozlamalar, shuningdek slaydlar, ramkalar va moslamalarni identifikatorlari uchun prefikslar.

Biroq, bu imkoniyatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak. Modulning kengligi va balandligini o'zgartirish ushbu ekranning ekrani va slaydini keyinchalik tahrirlash zarurligini keltirib chiqarishi mumkinligini anglash muhim, shuning uchun bu parametrlarni keraksiz o'zgartirish tavsiya etilmaydi.

Oddiy slaydni tahrirlash rejimiga o'tish uchun Ko'rish -> Oddiy menyu buyrug'i yoki slayd panelidagi tez almashtirish tugmasi ishlatiladi.

Slaydni tahrirlash paytida siz quyidagilarni o'zgartirishingiz mumkin:

• Slayd nomi

• Slaydni o'zlashtirish uchun suratga oling

• Slaydlar tarkibi

• Keyingi slaydga o'tish variantlari

Kursni tahrirlash tugagandan so'ng, darslik nashr etilishi kerak.

Internet orqali ta'lim olish shakllanib borayotgan bir vaqtda xorijda MOOC(ommaviy ochiq onlayn kurslar)ning tashkil etilishi 24 soat davomida mustaqil ta'lim olishning imkoniyatini yanada kengaytirdi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirining eng qulay va innovastion usullaridan biri bu internet texnologiyalaridan foydalanishdir. Talabalar internet resurslardan foydalangan holda mustaqil ravishda o'rganib, topshiriqlarni mustaqil bajarish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bunday texnologiyalarga bulutli texnologiyalar(could texnologiyes), ta'lim veb-qidiruvlari, tarmoq ta'lim loyihalari, LMS tizimlari va boshqalar kiradi. Bulutli

texnologiyalar asosida tashkillashtirilgan ishlarni barchasini serverlar bajaradi. Bulutda joylashgan vertikal serverlarda saqlangan ma’lumotlar mijoz tomonidan noutbuklarda, netbuklarda vaqtincha saqlanadi. Google xizmatlari ta’lim uchun bepul uskunalar paneliga ega bulib, talabalar va o’qituvchilar uchun samarali ta’lim jarayonini ta’minlaydi. Bulutli hisobning asosiy onlayn tizimlaridan talabalarning mustakil ishlarini tashkillashtirish va qabul qilishda foydalanish mumkin.

Gmail ko’p funkstiyali pochta xizmati ma’lumotlarni etkazish, videochatlar yordamida axborot almashish, mobil aloqalarini ta’minlashga xizmat qiladi. Gmail pochta serverining asosiy xususiyatlaridan biri pochta xabarlari uchun kuchli qidiruv algoritmining mavjudligidir. Xabarlarning uylangan ierarxiyasi Gmailda xabarni kontekstda kurish imkoniyatini yaratib, matnni taxrirlashga yuborilgan va kabul kilingan xabarlarni avtomatik ravishda ketma-ket joylashtiradi. Bu esa xabarlarni bir joyda muxokama kilish va taklif kiritish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim jarayonida foydalaniladigan bulutli hisoblash texnologiyalariga asoslangan eng keng tarqalgan xizmatlar tizimi Google Drive, Google Calendar va Google Docs (Jadvallar, Taqdimotlar, Shakllar). Ular o'quv jarayoni qatnashchilariga aloqa va hamkorlik samaradorligini oshirish uchun mo'ljallangan vositalar bilan ta'minlaydigan veb-ilovalardir.

Asosiy afzalligi shundaki, ushbu xizmat barcha foydalanuvchilar uchun mavjud va talabalar, ota-onalar va o'qituvchilarning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish mumkin. Ma'lumotni tezda nashr qilish va undan foydalanish, mustaqil ish, loyihalarni bajarish va boshqa ko'p narsalar mumkin. Shuningdek, ushbu texnologiyalar yordamida yakuniy natijani ham, vazifalarni bajarish jarayonini ham boshqarish mumkin.

Sinfda Google Docs xizmatidan foydalanish o'quvchilarga hujjatlar, prezentatsiyalar, jadval jadvallari va diagrammalar tayyorlashda guruh vazifalarini bajarishga imkon beradi; onlayn ravishda suhbatlar, forumlar, videokonferentsiyalar va chiqish natijalarini tashkil eting. Google xizmatining imkoniyatlari ofis texnologiyalari deb ataladigan narsalarni o'rganishda oshkor etila boshlaydi. Shunday qilib, matnli hujjatni yaratish, uni keyinchalik tuzatish va tahrirlash uchun Google Docs xizmatidan foydalanish talab etiladi. Hujjatni tahrirlash orqali talabalar bunday ommabop format

nafaqat Microsoft tomonidan qabul qilingan Microsoft Word formatidan kam emas, balki bir qator afzalliklarga ega, masalan, ular Google tomonidan yaratilgan hujjatlardan istalgan vaqtda va Internetga ulangan har qanday kompyuterdan foydalanishlari mumkin. , hujjat matni olinadigan vositalarga nusxalanmasdan. Xuddi shunday, ular elektron jadvallar, taqdimotlar va ma'lumotlar bazalari bilan tanishganlarida, bir vaqtning o'zida Google-ning ushbu yo'nalishdagi imkoniyatlarini ko'rib chiqadilar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Web 1.0 texnologiyasi imkoniyatlari va kamchiliklari nimalardan iborat?
2. Web 2.0 texnologiyasi imkoniyatlari va kamchiliklari nimalardan iborat?
3. Web 3.0 texnologiyasi imkoniyatlari nimalardan iborat?
4. Web – servislar haqida malumot bering.
5. AJAX nima? Uning vazifasi nimadan iborat?
6. Web-sindikatsiya vazifasi nimadan iborat?
7. RSS va Atom texnologiyalari vazifasiga nimalar kiradi?
8. Mashup nima? Web Mashuplarning vazifasi nimadan iborat?
9. Mashuplar guruhlari haqida malumot bering.
10. Folksonomiya qanday amaliyot?
11. Microsoft Silverlight qanday platforma?
12. Microsoft Popfly va uning uskunalari vazifalari nimadan iborat?
13. WYSIWYG Web Builder qanday dastur?
14. WYSIWYG Web Builder dasturi ishchi oynasi va imkoniyatlarini tushuntirib bering.
15. WebSite X5 Free dasturida sayt tayyorlash bosqichlari nimalardan iborat?
16. WordPress platformasi haqida malumot bering.
17. WordPress platformasi menyu qismlari vazifasini tushuntiring.

10-MAVZU. GOOGLE TA’LIM VEB-XIZMATLARI

1. Veb muhitida Google apps (Google Disk, Google Hujjatlar (matn, elektron jadval, taqdimotlar, grafik muharirlari).
2.Google taqvim (kalendar), Google Hangouts (messenjer) Google+, Google Blogger (saytlar yaratish) va Google Scholar orqali o’quv jarayonini tashkillashtirish va boshqarish).

10.1.Veb muhitida Google apps (Google Disk, Google Hujjatlar (matn, elektron jadval, taqdimotlar, grafik muharirlari),

Ta’lim jarayonini yuqori pedagogik texnologiyalar yordamida tashkillashtirish ta’limning sifat va samaradorligiga o’z hissasini qo’shadi. Respublikamiz prezidenti “Yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o’z vaktida ishlab chiqish va joriy etishni ta’minlashni nazorat ostiga olish zarur”ligini alohida ta’kidlab keladilar.Bugungi ta’lim tizimini zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkillashtirish uchun pedagoglar va olimlar tomonidan ilg’or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni, uni ta’lim sohasida qo’llashni asosiy vazifalardan biri deb hisoblashlari shart. O’quv jarayonini loyihalashtirishda ta’lim mazmunini, ta’lim maqsadini, kutilayotgan natijani aniq belgilash, ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini to’g’ri tanlash, talabalarning bilim, ko’nikma va malakalarini baxolashni real mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg’ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni samarali amalga oshirish va bir-biri bilan uyg’unlashuviga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Ta’lim jarayonida innovastion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llashga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o’rgatilgan bo’lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarini o’zlari qidirib topishiga, mustaqil o’rganib tahlil qilishlariga, mavzu yuzasidan xulosalar chiqarishiga o’rgatadi. Pedagog innovastion ta’lim berish jarayonida shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo’naltiruvchanlik qunkstiyasini bajaradi. Ta’lim jarayonida talaba asosiy o’rinni egallaydi. Innovastion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o’qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o’zgartirish kiritish bo’lib, uni ta’lim tizimida

amalga oshirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interaktiv metodlar asosida jamoa bo'lib fikr yuritish, pedagog va talabalarning birgalikdagi maqsadli faoliyati bo'lib hisoblanadi.

Internet orqali ta'lim olish shakllanib borayotgan bir vaqtda xorijda MOOC(ommaviy ochiq onlayn kurslar)ning tashkil etilishi 24 soat davomida mustaqil ta'lim olishning imkoniyatini yanada kengaytirdi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirining eng qulay va innovastion usullaridan biri bu internet texnologiyalaridan foydalanishdir. Talabalar internet resurslardan foydalangan holda mustaqil ravishda o'rganib, topshiriqlarni mustaqil bajarish ko'nikmasiga ega bo'ladilar. Bunday texnologiyalarga bulutli texnologiyalar(could texnologiyes), ta'lim veb-qidiruvlari, tarmoq ta'lim loyihalari, LMS tizimlari va boshqalar kiradi. Bulutli texnologiyalar asosida tashkillashtirilgan ishlarni barchasini serverlar bajaradi. Bulutda joylashgan vertikal serverlarda saqlangan ma'lumotlar mijoz tomonidan noutbuklarda, netbuklarda vaqtincha saqlanadi. Google xizmatlari ta'lim uchun bepul uskunalar paneliga ega bulib, talabalar va o'qituvchilar uchun samarali ta'lim jarayonini ta'minlaydi. Bulutli hisobning asosiy onlayn tizimlaridan talabalarning mustakil ishlarini tashkillashtirish va qabul qilishda foydalanish mumkin.

Bulutli hisoblash shaxsiy ma'lumotlarni saqlash bilan bog'liq bosh og'rig'ini bartaraf qiladi. Birgalikda ishlatiladigan infratuzilma yordamchi dastur kabi ishlaydi: Bulutga asoslangan ilovalar kunlar yoki haftalar ichida yangilanishi mumkin va ular kamroq xarajat qiladi. Bulutli ilova yordamida siz shunchaki brauzer ochasiz, tizimga kirasiz, dasturni sozlashingiz va undan foydalanishni boshlaysiz.

Nima uchun bulutli hisoblash yaxshiroq:


- Istalgan joydan kirish mumkin - Ilovalar va ma'lumotlar qurilmaga ulanmagan. Ularga istalgan joydan kirish mumkin, bu masofaviy guruhlar tomonidan real vaqtda hamkorlik qilish imkoniyatini beradi.
- Moslashuvchan va kengaytiriladigan - bulutga asoslangan ilovalar cheksiz sozlanishi. Foydalanuvchilarning ehtiyojlari o'zgarishi bilan quvvatni, saqlashni va o'tkazish qobiliyatini oshirish oson.

- Iqtisodiy jihatdan tejamkor - korxonalar faqat foydalanganliklari uchun haq to'laydilar, odatda oyiga, bitta o'rin uchun. Joyni egallab turgan va 24/7 elektr energiyasidan foydalanadigan hech qanday apparat yo'q.
- Tovushsiz yangilanishlar - Internetga asoslangan dasturlar doimiy ravishda yangilanib turadi. Sotuvchi texnik xizmat ko'rsatish, zaxira nusxalarini yaratish va muammolarni bartaraf etish bilan shug'ullanadi.
- Fast - xizmat yuqori darajadagi samaradorligi va ishlashi uchun doimiy ravishda takomillashtirib turiladigan xavfsiz ma'lumot markazlarining global tarmog'i orqali talabga binoan etkazib beriladi.
- Xavfsiz - ma'lumot bitta joyda suv toshqini, yong'in, tabiiy ofat yoki uskunaning ishdan chiqishiga qarshi emas. Xavfsizlik protokoli va infratuzilma doimiy ravishda yangi tahdidlarni bartaraf etish uchun tahlil qilinadi va yangilanadi.

Gmail ko’p funkstiyali pochta xizmati ma’lumotlarni etkazish, videochatlar yordamida axborot almashish, mobil aloqalarini ta’minlashga xizmat qiladi. Gmail pochta serverining asosiy xususiyatlaridan biri pochta xabarlari uchun kuchli qidiruv algoritmining mavjudligidir. Xabarlarning uylangan ierarxiyasi Gmailda xabarni kontekstda kurish imkoniyatini yaratib, matnni taxrirlashga yuborilgan va kabul kilingan xabarlarni avtomatik ravishda ketma-ket joylashtiradi. Bu esa xabarlarni bir joyda muxokama kilish va taklif kiritish imkoniyatini yaratadi.

Veb muhitida Google apps (Google Disk, Google Hujjatlar (matn, elektron jadval, taqdimotlar, grafik muharirlari), Google taqvim (kalendar), Google Hangouts (messenjer) Google+, Google Blogger (saytlar yaratish) va Google Scholar orqali o’quv jarayonini tashkillashtirish va boshqarish.


Kalendar Google – bu shunday veb-instrumentki, talabalarning tadbirlarini, diplom ishlari va kurs ishlarining kalendar rejasini, konsultastiya va darslarni rejalashtirish uchun ishlatiladi. Talabalar tomonidan topshiriladigan mustaqil ishlarning kunlarini kalendarga belgilab qo’yish va shu asosda ishlarni qabul qilish mumkin.



10.1-rasm. Kalendar Google ko'rinishi

Google guruhi- modulli forumlarda guruxli ishlashni ta'minlaydi. Zamonaviy ta'limda birinchi o'rinda internet tarmog'ida ishlash, xamkorlikda ishlash, loyixa va tadqiqotlarni olib borish kunikmasini, ta'limda internet –ta'limni shakllantirish turadi. **Google guruhi –** barcha urganuvchilarni ta'lim jarayonidan xabardor qilishni, loyixalar ustida birgalikda ishlashni, konsultastiyalarni tashkillashtirish va muloqot qilishni ta'minlaydi. Bunda yuqori kurs talabalarining kurs va loyixa ishlarini mustaqil ravishda tashkillashtirish mumkin.


Google hujjatlari – bepul veb-servislar to'plami bo'lib, u fayllarni bulutli saklash imkonini yaratadi. Foydalanuvchi tomonidan yaratilgan hujjatlar maxsus Google serverida saqlanadi. Google hujjat o'zida onlayn matnli xujjatlarni, test yaratuvchi uskunalarni, elektron tablistalarni, kurgazmali materiallarni, PDF fayllar va prezentastiyalarni va ularni birgalikda ishlashini ta'minlaydi. Google xujjatlar talabalar va o'qituvchilarga birgalikda loyixalar ustida birgalikda ishlashini ta'minlaydi, o'qituvchilarga esa ishlar ustida nazorat qilish va boshqarish imkonini beradi.



10.2-rasm. Google hujjat oynasi ko'rinishi

Google servis sayt xizmati – bu saytlar konstruktori bulib, videolarni, tasvirlarni va hujjatlarni publikastiya qilish imkonini beradi. Servisni maqsadi – foydalanuvchilar ma'lumot almashadigan

yagona internet muxitni yaratishdan iborat. Sayt xizmatining vazifasi ta’lim masalalarini katta masshtabda muxokama qilish imkoniyatini yaratadi. Bu yopiq metodik komissiyadan iborat yopiq sayt bo’lishi mumkin. Hujjatlarni saqlash va hujjat almashtirish **Google disk** va bulutli offis yordamida amalga oshiriladi. Bulutli hujjatlar va papkalarga murojaat qilishda xujjatlar va loyixalarni birgalikdagi guruxli ishlashini ta’minlaydi.




10.3-rasm. Google servis sayt xizmati oynasi ko’rinishi

Bu xizmatdan talabalar mustaqil ta’lim topshiriqlarini google hujjatlarda, google jadval yoki google prezentastiyalarda tayyorlab, yakka xolatda yoki guruh bo’lib ishlash imkoniyatini beradi. Bunda bir nechta talabalar prezentastiya tayyorlashning bir necha qismlarga bo’lib olib, xar bir talaba o’ziga tegishli qismini tayyorlaydi va so’ng prezentastiyalar umumiy birlashtiriladi. Talaba hamkorlikda ishlash jarayonida o’ziga berilgan ma’suliyatli ishni mukammal bajarishga xarakat qiladi. Pedagog esa har bir talabaning ishini o’rganib chiqqan xolda guruxga umumiy balni qo’yadi va bahosini izoxlab beradi. Bu esa talabalarning yashirin qobiliyatlarini yuzaga chiqishiga imkon yaratadi.

GOOGLE Disk. Google Disk fayllarni saqlash uchun kulay va xavfsiz joydir. Mijozning videolari, fotosuratlari va hujjatlari xech kachon yo’qolmaydi. Bu xujjatlarni olish uchun telefon, kompyuter yoki planshetingizdan olishingiz mumkin. Bundan tashqari, boshqa foydalanuvchilarning fayl va papkalarini ko’rish, taxrir qilish yoki sharxlashga ruxsat berish mumkin.

Google Disk foydalanuvchilarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

-Hujjatlarni xavfsiz joyda saqlash va ularni xar kanday kurilmada ochish;
- ularni nomi va mazmuni buyicha fayllarni topish;
- boshqa foydalanuvchilarning fayl va papkalariga ruxsatli kirish;
- Kurish, taxrir qilish va sharhlash huquqini ta’minlash;
- yaqinda ochilgan fayllarni tezlik bilan topish;
- Fayllar va ularning o’zgarish tarixi haqida ma’lumotni ko’rish;
- internetga ulanmasdan fayllar bilan ishlash;
- qurilma ustida kameradan foydalanib, bosilgan hujjatlarni skanerlash;
- Google Photosdan rasm va videolarni ko’rish;




10.4-rasm. Google disk xizmati oynasi ko’rinishi

GOOGLE diskning imkoniyatlaridan kelib chiqib, talabalar va pedagog xodimlar o’zlariga tegishli fayllarni, hujjatlarni shu erda saqlash imkoniyatiga ega bo’ladi.

Google Talk dasturi. Google Talk dasturi Google kompaniyasi tomnidan ishlab chiqilgan tezkor real vaqt tizimida xabarlarni almashish dasturi hisoblanadi. Google Talk dasturi matn ko`rinishidagi xabarlarni almashish, va tovushli so`zlashish imkoniyatini taqdim etadi. Bundan tashqari Google Talk dasturi Gmail elektron pochta tizimining

xizmatchi dasturi bo`lib pochta qutisini boshqarish vazifasini ham bajaradi. Google Talk dasturidan foydalanish uchun albatta Gmail tizimidi elektron pochta qutisiga ega bo`lish kerak.



10.5-rasm.

ICQ- hozirgi kunda eng ommabop bo`lgan internet muloqot dasturi hisoblanadi. Bu dasturning foydalanuvchilar soni 38 mln. dan oshib ketgan. Bu dasturda xar bir foydalanuvchi shaxsiy raqamiga ega bo`ladi. Qidiruvni amalga oshiradigan vaqtda ham ICQ raqamidan foydalaniladi. Foydalanuvchilar Internetga ulangan kompyuterda ushbu dasturni ishga tushiradi, shundan so`ng dastur avtomatik ravishda ICQ xizmati serveri bilan bog`lanadi. Bog`lanish amalga oshirilgandan so`ng xabarlar almashish mumkin.

**Tvitter ommaviy axborotlarni jo`natish tizimi, undan to`g`ri foydalanish.** Internet tarmog`ida Blog degan tushuncha ko`p uchraydi.



Bu blogda har bir foydalanuvchi o`z fikrini qoldirishi va shu fikriga

10.6-rasm.

tahlillarni olishi mumkin. Tvitter fikr almashish uchun mo`ljallangan kichkina blog hisoblanadi. Kichkina blog deyilishiga sabab belgilar soni 140 tani tashkil etadi, ya`ni siz 140 tadan ortiq belgini kirita olmaysiz. SHundan qilib Tvitter axborotlarni jo`natish tizimi web sayt orqali matn xabarlarni, SMS xabarlarni, tabriklarni, minnatdorchiliklarni hamda shunga o`xshash turli ma`lumotlarni jo`natish mumkin. Shuni unutmang - siz jo`natgan xabar yoki ma`lumot barchaga Internet orqali ko`rinadi va imkonli bo`ladi. Shuning uchun, xabarlarni yozishda va jo`natishda axborotlardan foydalanish va ishlash madaniyati qoidalariga rioya qiling.

1. Akkaunt ochish
2. Google Mail ochish va interfeys bilan tanishish

3. Shahsiylashtirish (Personalizasiya)
4. Xatlar bilan ishlash
5. Chat, Qo‘ng‘iroqlar, Aloqalar

10.2.Google taqvim (kalendar), Google Hangouts (messenjer) Google+, Google Blogger (saytlar yaratish) va Google Scholar orqali o’quv jarayonini tashkillashtirish va boshqarish). Google Blogger bilan ishlash

Brauzerda Googlening asosiy sahifasiga kiring. Tepadan o’ng tarafdagi to’rt burchak tugmani bosing va ochilgan darchada **Blogger** ilovasini tanlang.

2. Yangi sahifa paydo bo’ladi. **Nastroyki** (Sozlash) bo’limida Blogni yaratishning ikki yo’li mavjud: s**ozdat profil Google+ (Google+** profilini yaratish – bunday profilni tarmoqdan topish, boshqalarga uni tavsiya etish osonroq) yoki s**ozdat profil Blogger** (**Blogger** profilini yaratish – bunday profilni psevdonim (boshqa nomingiz) orqali olib borishingiz mumkin, lekin Bolgingiz Googlening boshqa ilovalari bilan to’g’ridan-to’g’ri bog’langan bo’lmaydi). Siz s**ozdat profil Google+** ni tanlang.

3. Profilingizga fotosuratni yuklab joylashtirish uchun **Dobavit foto** tugmasini bosing. Pastroqdagi matn maydoniga o’zingiz to’g’ringizdagi ma’lumotlarni kiriting. **Obnovit (Yangilatish)** tugmasini bosing.

4. Sizga tanish bo’lgan odamlarning e’lon qilayotgan yangilik va postlari bilan lentada tanishib borish maqsadida paydo bo’lgan sahifada pochtangizdagi **Kontakty** dan davra xosil qilishingiz mumkin. Buning uchun **Dobavit vsex (Hammani qo’shish)** tugmasini bosing. **Dobavit krugi (Davrani qo’shish**) bo’limida pochtangizdagi **Kontakty** dan profillar paydo bo’ladi. Mavjud davraga qo’shishi uchun profilning qarshisidagi **Dobavit (Qo’shish)** tugmasiga bosing. Ochilgan darchada tanlangan davra a’zosini qaysi davraga qo’moqchi bo’lsangiz, o’sha davra (krug) qarshisiga sichqon tugmasini bosib bayroqcha o’rnating. Yangi davrani yaratib unga yangi ishtirokchini qo’shish uchun **Sozdat (Yaratish)** tugmasini bosing va davraga nom bering. Pochtangizdagi mavjud bo’lmagan odamlarni ham davrangizga qo’shmoqchi bo’lsangiz, **Poisk lyudey v Google+ (Google+ da odamarni qidirish)** qidiruv maydonida ularning ismlarini kiriting va **Primenit (Ishga tushurish)** tugmasini bosing.

5. **(Ro’yxatdan o’ting! Bu qiziqarli!)** deb nomlangan yangi sahifada qiziqishlar bo’yicha bloglarning ro’yxati keltirilgan. Yoqtirgan bloglarni tanlang va **Podpisatsya (Ro’yxatdan o’tish)** so’ng **Primenit (Ishga tushurish)** tugmalarini bosing.

6. **Dobavte svoyu fotografiyu (Rasmingingizni qo’shing)** deb nomlangan yangi sahifa ochiladi. Agar profilingizda fotosuratingizni joylashtirmagan bo’lsangiz, veb-kameradan rasmga tushish uchun S**fotografirovatsya (Rasmga tushish)** tugmasini bosing yoki **Zagruzit fotografiyu (Rasmni yuklash)** orqali kompyuterdagi papkadan rasmingizni yuklang. Pastroqdagi matn maudonida o’zingiz haqingizda ma’lumotlarni kiriting va **Gotovo (Tayyor)** tugmasini bosing.

7. Tashqaridan profilingizni ko’rish uchun **Prosmotret profil (Profilni ko’rish)** tugmasini bosing. **Vernutsya k profilyu Blogger (Blogger profiliga qaytish)** orqali profilingizning tipini o’zgartirishingiz mumkin. **Pereyti k Blogger (Blogger ga o’tish)** tugmasini bosing.

Google Blogger interfeysi bilan tanishish.

1-interfeysning tilini o’zgartirish; 2-sozlash; 3-siz yozilgan bloglar ro’yxatini ko’rish; 4-siz yozilga bloglar; 5-siz yozilgan blog yangiliklari tasma(lenta)si; 6-yangi bloglarga yozilish; 7-yangi blog yaratish.

2. Tepada o’ng tarafdagi **Nastroyki (Sozlah)** tugmsini bosing. Ochilgan ro’yxatdan **Izmenit nastroyki polzovatelya (Foydalanuvchining sozlanmalarini o’zgartirish)**ni tanlang. Ochilgan yangi darchada **Chernovik** funktsiyasini faollashtirish uchun **Obщie (Umumiy)** bo’limida bayroqcha o’rnating. Google Blogger to’g’risida yangi funktsiya, maslaxat va tavsiyalar bo’yicha Gmail dagi pochtangizga ma’lumotlar olish uchun **Uvedomlenie** bo’limida bayroqcha o’rnating.

Blog yaratish

1. Google Blogger ning asosiy ish maydoniga o’tiladi.

2. Ekranning chap tarafidagi **Novыy blog** (Yangi blog) tugmasini bosiladi.

3. Ochilgan yangi oynada **Zagolovok (Sarlavha)** matn maydonida blogingizning nomini bering. Pastroqda joylashgan **Adres** nomli matn maydonida blogingizning yangi adresini o’ylab toping va kiriting (unda kirilcha harf va ochiq joylar bo’lishi mumkin emas; blog adresi blogspot.com domeni bilan tugashi kerak). Taklif qilingan blog

shablonlaridan yoqtirganingizni tanlang (keyinchalik uni o’zgartirish mumkin). Oynaning pastki qismidagi **Sozdat blog (Blog yaratish)** tugmasini bosiladi.

Blog bilan ishlash sohalari

1. Blog bilan ishlash sohalarining interfeysi bilan tanishib chiqiladi..

1-blog bilan ishlash qoidalari; 2-joylashmalar; 3-blogda xabarlar yaratish.

2. **Soobщeniya (Xa,arlar)** joylashmasidagi xabarlar ustida muayyan harakatlar bajarmoqchi bo’lsangiz, ularning qarshisiga bayroqcha o’rnating. Yuqorida joylashgan asboblar panelida **Dobavit yarlık (Yorliq qo’shish)** tugmasini bosing va xabarlar yorliq bilan belgilanadi. Blogingizni nashr qilish uchun **Publikastiya (Nashr etish)** tugmasini bosing (xabarlaringiz tarmoqdagi barcha foydalanuvchilarga ko’rinadi). **Publikastiya (Nashr etish)** rejimidan qaytish uchun **Vernuttsya k chernoviku** tugmasini bosing (xabarlar faqat sizga ko’rinadi). **Udalit (O’chirib tashlash)** tugmasini bosish orqali belgilangan xabarlar o’chiriladi.

3. **Stranistы (Sahifalar)** joylashmasida sahifalarni yaratish, **Chernovik**ka qaytarish yoki o’chirish mumkin (sahifalar orqali blogda joylashmalar sifatida “O’zim haqimda”, “Asosiy sahifa” kabi bir qancha bo’limlar yaratilishi mumkin).

4. **Komentariy** (Izoh) joylashmasida siz belgilagan izohlarni tegishli tugmalar orqali o’chirish yoki spam qilib belgilash mumkin.

5. **Google+** joylashmasida rasmingiz tagidagi bo’lim tugmachasini bosing va Google+ bilan bog’lanishni o’chiring yoki, aksincha, u yerdagi tegishli punktlarga parametrlar o’rnatish orqali blogingizni Google+ bilan bog’lashingiz mumkin.

6. **Statistika** joylashmasida blogingizga boshqa foydalanuvchilar tomonidan tashrifini ko’rishingiz mumkin (**Soobщeniya (Xabarlar), Istochniki trafika (Trafik manbalari), Auditoriya**).

7. **Pribыl (Daromad)** joylashmasidagi **Podrobnee (Batafsilroq)** ishora (ssilka)sida **Google Adsense** xizmatining shartlari bilan tanishingiz mumkin (blog mualliflariga sahifalarida relevant reklamalarni joylashtirish hisobiga daromad keltirishi mumkin bo’lgan bepul xizmat). Yana **Pribыl (Daromad)** joylashmasiga qayting va siz agar Google Adsense xizmatining shartlariga rozi bo’lsangiz

Zaregistrirovatsya v Adsense (Adsense da ro’yxatdan o’tish) tugmasini bosing.

8. **Google Adwords** (reklama xabarlarni yaratishga yordam beradigan pullik servis) xizmati to’g’risida batafsil ma’lumot olish uchun **Kompaniya** joylashmasida **Podrobnee (Batafsilroq)** tugmasini bosing. **Kompaniya** joylashmasiga qayting va **Google Adwords** shartlariga rozi bolsangiz **Nachat (Boshlash)** tugmasini bosing.

9. **Dizayn** joylashmasiga bosing. Bu yerda blogingizning xaritasi (nomi, asosiy qismlari, yon qismlari. Navigatsiya paneli va h.k.z.) joylashgan. Xaritada blogingizning o‘zgartirmoqchi bo‘lgan qismini tanlang va **Izmenit (O’zgartirish)** tugmasini bosing. Paydo bo‘lgan darchadan taklif etilgan variantni tanlang va **Soxranit (Saqlash)** tugmasini bosing. Agar xaritada blogingizdagi siz tanlagan joyga gadjetni (blog arxivi, blog statistikasi, video paneli va h.k.z.) kiritmoqchi bo‘lsangiz **Dobavit gadjeta (Gadjet qo’shish)** ishorasi (ssilka)ni bosing.

10. **Shablonы** joylashmasida blogingizning shablonini o‘zgartirishingiz mumkin. Blogingiz joriy sahifasi ostidagi **Nastroit (Sozlash)** tugmasini bosing va kerakli o‘zgartirishlar kiriting.

11. **Nastroyka** joylashmasini bosing va joylashmaning ichidagi **Osnovnoe** joylashmasini tanlang. **Izmenit (O’zgartirish)** ishorasiga kirib blogning nomini, tafsilotini adresi va boshqalarni o‘zgartirishingiz mumkin. **Razresheniya (ruxsat)** bo‘limida **Dobavit avtorov (Mualliflarni qo‘shish)** ishorasi orqali blog ustida ishlashda hammualliflarni jalb etishingiz mumkin. **Chitateli bloga (Blog o‘quvchilari)** bo‘limidagi **Izmenit (O’zgartirish)** ishorasiga bosing va blogingizni kim ooqishi mumkinligini ko‘rsating. Agar siz **Lichnoe-tolko eti chitateli (Shaxsiy – faqat shu o‘quvchilar)** punktini tanlasangiz **Dobavit chitateley** (O**‘quvchilarni qo‘shish)** ishorasini bosing va paydo bo‘lgan matn maydonida blogingizni o‘qishga ruxsat bergan foydalanuvchilar elektron manzillarini kiriting yoki ularni **Vыbrat iz spiska kontaktov (Kontaktы dan tanlash)** dan tanlang. **Soxranit (Saqlash)** tugmasini bosing. **Soobщeniya i kommentarii (Xabar va izohlar)** joylashmasidagi matn maydoniga nechta xabar necha kun davomida ko‘rinishini kiriting. **Shablon** matn maydonida xabarlar yaratilganda avtomatik ravishda paydo bo‘ladigan matnni kiriting. **Pokazыvat izobrajeniya v Lightbox** (**Lightbox tasvirlarini**

ko‘rsatish) bo‘limidagi ro‘yxat ichidan taklif etilayotgan ikki variantdan bittasini tanlang. **“Da”** (Ha) variant tanlanganda blogingizga joylashtirilgan tasvirlarni bosganingizda sahifaning ustida ochiladi. **Raspolojenie kommentariya (Izohning joylashuvi)** bo‘limida taklif etilayotgan variantni tanlang. **Kto mojet ostavlyat kommentarii? (Izohni kim qoldirish mumkin?)** bo‘limida tanlagan puktingiz qarshisiga bayroqcha o‘rnating. **Elektronnaya pochta** joylashmasidagi **Publikastiya s pomoщyu elektronnoy pochты (Elektron pochta yordamida nash qilish)** bo‘limining mtn maydonida sooz va raqamlar kiritish orqali elektron pochtangizning adresini yaratishingiz mumkin. Gmail da yaratilgan elektron manzilni blogga joylashtirib, 10 MBgacha xabar olish mumkin. Buning uchun parametrlarning biriga bayroqcha oornating. **Opoveщenie o kommentarii po elektronnoy pochte** (**Izoh to‘g‘risida e****lektron pochta orqali xabar berish)** bo‘limida Gmail ga keladigan xabarlarni hoxlagan odamlaringizga yetkazish maqsadida ularning adreslarini kiriting (10 tagacha). **Otpravlyat soobщeniya po elektronnoy pochte (Xabarni e****lektron pochta orqali jo‘natish)** bo‘limi orqali blogingiz nashr qilinishi bilanoq bundan xabar topishi kerak boolgan odamlarning elektron pochtasini kiriting (10 tagacha). **Yazыk i formatirovanie (Til va formatlash)** joylashmasida soat va interfeys tillarini o‘rnating. **Nastroyki poiska (Qidiruvni sozlash)** joylashmasidagi **Metategi** bo‘limining **Izmenit (O‘zgartirish)** ishorasini bosing. Unda paydo bo‘lgan **Vklyuchit opisanie dlya poiskovых sistem? (Qidiruv tizimlari uchun tafsilot kiritilsinmi?)** savoliga bayroqcha kiritish orqali **Da** (Ha) deb javob bering. Matn maydonida tafsilotingiz qanchalik yaxshi yozilgan bo‘lsa, qidiruv tizimi blogingizni shunchalik birinchilar qatorida taqdim qilishi mumkin. **Soxranit izmeneniya** (O**‘zgartirishlarni saqlash)** tugmasini bosing. Blogni umuman o‘chirish uchun **Udalit blog** (Blogni o**‘chirib tashlash)** bo‘limida **Udalit** tugmasini bosing. **Tolko dlya vzroslых (Faqat yoshi kattalar uchun)** bo‘limida **Net (Yo‘q)** variantini tanlash orqali blogingizni barcha yoshdagi foydalanuvchilarga namoyish qilasiz.

Ta’lim sohasida ilmiy ishlarni bajarish jarayonida adabiyotlarni (NPL) har qanday ish uchun topish ularning ishining katta qismidir. Ma'lumotlar bazalari, omborxonalar, kataloglar, ularda mavjud bo'lgan fayl turlari va formatlarining to'liq doirasini ko'rib chiqish to'liq bo'lishi mumkin. Endi qidiruvni qaerdan boshlashni bilmasangiz, ilmiy ish

topish oson emas. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bir qator ma'lumotlar bazalari va tadqiqot ma'lumotlari va maqolalarining omborlari birma-bir o'tish uchun juda ko'p. Google Scholar bunday ilmiy ishlarning barchasini bitta joyda olib keladi va shu bilan butun jarayonni osonlashtiradi. Bu nafaqat patent vakillari, balki talabalardan tortib professor va tadqiqotchilargacha bo'lgan hamma uchun amal qiladi. Google Scholar yordami aynan shu erda. Tajribali IP mutaxassisingiz yoki ushbu sohada yangi ish boshlaganingizdan qat'i nazar, Google Scholar sizga tegishli patentlarga oid bo'lmagan adabiyotlarni topish oson yordam beradigan vositadir.

Google Scholar nima?

Google Scholar bu bepul ilmiy tadqiqotlar kutubxonasi bo'lib, u barcha o'quv adabiyotlarini Internetda birlashtiradigan, Google tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan ilmiy.google.com-da joylashgan qidiruv tizimiga birlashtiradi.



Uning keng ilmiy manbalariga ilmiy nashrlar, kollejlar, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, jurnallar, konferentsiyalar, tezislar, dissertatsiyalar va boshqa onlayn-omborlar kiradi. U akademik, texnik va huquqiy tadqiqot maqsadlari uchun (nomzodlik dissertatsiyasi, ilmiy hisobotlari, ilmiy ishlari, sud hujjatlari va boshqalar uchun) javob

10.7.rasm

beradi. Bundan tashqari, u Google Patentsning qobiliyatini birlashtiradi va natijada patentga oid adabiyotlarni beradi. Bu Scopus va arXiv.org kabi onlayn tadqiqot vositalariga o'xshash va ko'pincha to'ldiruvchidir. Universitetning onlayn kutubxonalari yagona universitet yozuvlaridagi hujjatlar o'rtasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish uchun mo'ljallangan. Xuddi shunday, har qanday boshqa adabiyotlar bazasining ko'lami ko'pincha o'z ma'lumotlari bilan chegaralanadi. Google Scholar shunga o'xshashdir, uning qidiruv ma'lumotlar bazasida barcha universitetlarning tegishli fayllari va boshqa barcha onlayn ma'lumot manbalari mavjud. Google Scholardan foydalanib talabalarga mustaqil ish sifatida mavzuga doir ilmiy maqolalarni qidirib toppish? Ularni tahlil qilish vazifalari berilishi mumkin. Talaba Google Scholardan istagan mavzudagi maqolalarni izlab topadi va shu asosda mavzuni to’liq o’zlashtiradi.

Innovastion ta’lim texnologiyalarini talabalarning mustaqil ishlarini tashkillashtirishda qo’llashning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:
- masofaviy ta’lim texnologiyalari;
-interfaol texnologiyalar;
- loyixa ishlari;
- keys texnologiyalar;
-partfolio;
-muammoli o’qitish.

Zamonaviy jamiyatning turli sohalarida axborot texnologiyalari keng tarqalishiga qaramay, bulutli texnologiyalar imkoniyatlaridan universitetlarni o'qitish amaliyotida kam foydalanilmoqda. Maqola talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish jarayonida Google dasturlaridan foydalanish samaradorligini asoslaydi. Metodika. Muammoni o'rganayotganda, ilmiy va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda matematika va informatika o'qitishning ilg'or tajribasini o'rganish, bulutli texnologiyalarni o'qitishda foydalanishning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish, Google ilovalari yordamida informatika kurslarini o'tkazish, O'sh davlati birinchi kurs talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etish bulut texnologiyalaridan foydalangan holda universitet. Natijalar. Google.docs, Google.tables, Google.presentation va Google.forms ixtisoslashtirilgan xizmatlarining hujjat, taqdimot, elektron jadval, onlayn anketalar va onlayn testlarni yaratish imkoniyatlari ochib berildi. O'qitish amaliyotida Google xizmatlaridan foydalanish talabalarning bulutli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga olib keladi, talabalar bulutli texnologiyalarni yuqori, o'rta va past darajadagi uchta darajaga ega. Xulosa. Bulutli texnologiyalar bilan ishlash orqali AKT talabalarining ko'nikmalarini, o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin. Google ilovalari orqali mustaqil ishlarning, talabalar loyihalarining bajarilishini ham topshiriqlarni bajarish jarayonida, ham yakuniy natijada kuzatib borish mumkin, natijada o'qituvchining ish jarayoni yaxshilanadi, vaqt tejaladi.

Coursera.org va khanacademy.org distant ta’lim portalarida sifatli va bepul ta’lim olish.

Coursera - bu ommaviy onlayn ta'lim sohasidagi Stenford universiteti kompyuter fanlari professori Endryu Eun va Dafne Koller

tomonidan asos solingan loyiha. Uning doirasida Internet kurslari shaklida o'quv materiallarini Internetda nashr etish loyihasi mavjud.

Loyiha tizimdagi turli bilimlar bo'yicha kurslarni nashr etadigan va o'tkazadigan universitetlar bilan hamkorlik qiladi. Talabalar kurslarda qatnashadilar, kursdoshlar bilan aloqa o'rnatadilar, sinov va imtihonlarni to'g'ridan-to'g'ri Coursera veb-saytida olishadi va iPhone va Android uchun rasmiy mobil ilova ham tarqatiladi. 2017 yil fevral holatiga ko'ra Coursera-da 24 million foydalanuvchi va 149 ta ta'lim muassasalarining 2000 dan ortiq kurslari va 160 ixtisosliklar ro'yxatga olingan.

Loyihada fizika, muhandislik, gumanitar va san'at, tibbiyot, biologiya, matematika, informatika, iqtisodiyot va biznes bo'yicha kurslar mavjud. Kurslar olti kundan o'n haftagacha davom etadi, haftada 1-2 soatlik video-ma'ruzalar, kurslar topshiriqlar, haftalik mashqlar va ba'zan yakuniy loyiha yoki imtihonni o'z ichiga oladi. Academic Earth kabi loyihalardan farqli o'laroq, loyiha individual ma'ruzalarni taklif qilmaydi, ammo subtitrlar, matnli xulosalar, uy vazifalari, testlar va yakuniy imtihonlar bilan video ma'ruzalarni o'z ichiga olgan to'liq kurslar. Kurslarga kirish vaqti cheklangan; Har bir uy vazifasi yoki test faqat ma'lum bir vaqt ichida bajarilishi kerak. Kursni tugatgandan so'ng, oraliq topshiriqlarni va yakuniy imtihonni muvaffaqiyatli bajarish sharti bilan talabaga bitiruv to'g'risida sertifikat beriladi. 2014 yildan boshlab kurslarning aksariyati ingliz tilida bo'lib, xitoy, ispan, frantsuz, rus, portugal (o'ndan ortiq) tillarida darslar mavjud, bir nechta kurslar boshqa tillarda ham mavjud. Shu bilan birga, dunyoning ko'plab tillarida subtitrlar faol qo'shilib, ular talabalar tomonidan ixtiyoriy ravishda yaratilgan. Subtitrlarni rus tilida yaratish uchun "Translate Coursera" loyihasi ishga tushirildi, unda 2015 yil boshida 15 ming ishtirokchi ro'yxatga olindi va 30 ta kurs tarjima qilindi.

Loyihada nashr etilgan taniqli ma'ruzachilarning kurslari orasida: "Mashinasozlik" (Endryu Eun), "Ehtimoliy grafik modellar" (Dafne Kohler), "Avtomatika nazariyasi" (Djefri Ullman), "Skala tilida funktsional dasturlash asoslari" (Martin Oderskiy), "Irrasional xulq-atvor bo'yicha boshlang'ich qo'llanma" (Dan Ariely), "Jazz improvizatsiyasi" [en] (Gari Burton).

Coursera hozirgi kunda onlayn-resurslarni joylashtirish va o’tash uchun nisbatan masshtabli va yo’lga qo’yilgan loyihadir. Bu erda Yel,

Stenford, Djon Xopkins va Edinburg kabi universitetlar kabi 140 dan ortiq etakchi universitetlar to’plangan. Coursera da rus tilidagi kurslar ham kam emas. Portalda jami bo’lib etti tilda 1300 dan ortiq kurslar mavjud. Mashxur o’qituvchilarni eshitish, uy vazifalarini bajarish va boshqa tinglovchilar bilan birgalikda o’quv loyihalarini muhokama qilish mumkin. Eng intiluvchilar tamomlagandan so’ng sertifikat olishlari mumkin.

Ushbu ingliz tilidagi loyiha har xil bilimlar bosqichi bo’yicha kurs tizimlarini o’tkazadigan universitetlar bilan hamkorlik qiladi.

Coursera – bugungi kunda 2012 yil avgustda asos solingan, MOOS xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha yirik platformalardan biri hisoblanadi. Ish boshlaganidan keyin bir necha oy o’tkandan keyinuning xizmatlaridan millionlab foydalanuvchilar foydalana boshlashgan, o’n ming foydalanuvchilar 200dan ortiq qulay kurslarda tinglovchi bo’lish uchun har oyda loyihaga qo’shilib borishgan. Bir yildan kam vaqt davomida platforma venchur investorlardan 20 milliondan ortiq AQSh dollarini yig’di. Udacity millionga yaqin inson qo’llaydi, ishlash davomida bir necha oyda loyiha moliyalashtirishning 15 million AQSh dollarini jalb qilishga erishildi. Harvard va MIT 30 millionni edX loyihani (bu yagona non-for-profit – loyiha)

Khan academy. Rasmiy sayti: https://www.khanacademy.org

Bir kuni MIT va Garvardni bitirgan qobiliyatli talaba Salmanxan boshqa shaharda yashaydigan kichkina amakivachchasini matematika fanidan qiynalishini bilib qoladi. U «YouTube» saytiga videodarslarni joylashtirib, unga yordam bermoqchi bo’ladi va mashhur bo’lib ketadi. Endi **Khan academiyasi s**aytida har xil mavzudagi 42000 dan ortiq bepul mikroma’ruzalar bor. Ulardan ko’pchiligi rus tilida ham mavjud. Xon - bu so'nggi besh yil ichida imkonsiz bo'lib tuyulgan narsalarga erishgan ajoyib odamning ismi: bepul asosda dunyodagi 20000 ta sinflarda darslari o'quv dasturining qismiga aylangan dunyodagi eng katta onlayn maktabni yaratish.

Xon akademiyasi (www.khanacademy.org) bugungi kunda 3500 dan ortiq video darslarni taklif qiladigan va dunyoning 10 millionga yaqin talabalarini birlashtiradigan bepul ta'lim tarmog'idir. Bularning barchasi 2006 yilda Salman Xon amakivachchasi Nadyaga matematikaga yordam berishga qaror qilganida boshlangan edi. Mening singlim boshqa shaharda yashar edi, shuning uchun Salmonga videoni yozib, uni tarmoqqa o'rnatish kerak bo'ldi. YouTube-dagi o'quv videolari

hammaga ochiq edi va ularni har kim ko'rishi mumkin edi. Salmon uning darslarini ko'rgan va tomosha qilgan odamlardan minnatdorchilik xatlarini qabul qila boshlaganida, bu hayratlanarli narsa edi. Ular: "O'ylaymanki, so'nggi uch hafta ichida men o'rta maktabdagi to'rt yillikdan ko'ra matematika haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'ldim", "Videoni ko'rsangiz, sizga hamma narsa ayon bo'ladi", "Akademiyaning videolari tufayli men bir nechta testlardan o'tdim" ... Salmon Xonning darslari qisqa, 5 daqiqadan 15 daqiqagacha davom etadi. Ular arifmetika va algebra asoslaridan saylov kolleji va Frantsiya inqilobigacha bo'lgan ajoyib mavzularni qamrab oladi.

Video ketma-ketlik "oddiydan murakkabgacha" tamoyiliga asoslangan bo'lib, u "ikki, ikkita, to'rt" misolidan oliy matematikada universitet kursiga qadar. Xonning har bir video darsligi bitta aniq muammoga bag'ishlangan bo'lib, uni hal qilish orqali talaba keyingi, yanada murakkabroq masalaga o'tishi mumkin. Interfaol ma'ruzalar shu tarzda yoritilgan materiallar muntazam ravishda takrorlanib turadigan qilib yaratilgan.

Saytdagi mashg'ulotlar kompyuter o'yinini shakllantiradi - bu erda ballar beriladigan darajalar mavjud, maslahatlar mavjud va barcha vazifalar modullarga bo'lingan. Xon akademiyasining veb-saytidagi mavzular xaritasi yulduzli osmon shaklida berilgan. O'quv jarayonida har kim o'z yutuqlari uchun "nishonlar" oladi. Siz "Meteorit", "Yer", "Oy", "Quyosh" va hatto "Qora tuynuk" ni olishingiz mumkin (Aytgancha, bu belgi faqat eng tejamkor bo'ladi). Ammo motivatsiya ishlaydi!



10.9.rasm



10.10.rasm. Khan academy oynasi ko'rinishi.

Garvard Universiteti hamda Massachuses Texnologiya Instituti birgalikda "barcha yoshdagilar va turli millat vakillari uchun tekin, internet orqali interfaol ta'lim olishlari uchun" notijoriy tashkilot tashkil qilishdi.

Khan akademiyasi saytida quyidagi yo'nalishlarda kurslar mavjud

Kriptografiya, ilmiy dasturlash, NASA, Biologiya, Modda va uning xolati, Molekulyar kinetik kimyo nazariyasi , din tarixi, jahon tarixi va boshqa fanlar. Kurslar 3500 dan ortiq videotasmalarni taqdim etadi va dunyoning turli burchaklaridan o'zida 10 milliondan ortiq talabani birlashtiradi. Ta'limga tegishli videolar YouTube Akademiyasi kanalida mavjud.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1.Google va Microsoft vositalari va xizmatlaridan foydalangan holda o'quv jarayonini va axborot ta'lim maydonini loyihalash qanday amalga oshiriladi?

2.Veb muhitida Google apps (Google Disk, Google Hujjatlar (matn, elektron jadval, taqdimotlar, grafik muharirlari)ning ishlash prinstipi haqida ma'lumot bering?

3.Google taqvim (kalendar), Google Hangouts (messenjer) Google+ ning vazifalari nimadan iborat?

4. Google Blogger (saytlar yaratish) va Google Scholar orqali o'quv jarayonini tashkillashtirish va boshqarish qanday amalga oshiriladi?

5. Coursera.org va khanacademy.org distant ta'lim portalarida sifatli va bepul ta'lim olish haqida ma'lumot bering?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar:

1.Veb muhitida Google apps (Google Disk, Google Hujjatlar (matn, elektron jadval, taqdimotlar, grafik muharirlari) foydalanib ko'ring. Buning uchun quyidagi ketma-ketlikni bajaring.

1-qadam. Drive.google.com-ga o'ting

Kompyuteringizda drive.google.com-ni oching. "Mening diskim" bo'limida quyidagilarni topasiz:

- yuklab olingan yoki sinxronlangan fayllar va papkalar;
- Google hujjatlari, jadvallar, taqdimotlar va siz yaratadigan shakllar.
- Google Drive-ni kompyuteringizga o'rnatish haqida ko'proq ma'lumot oling.

2-qadam. Fayllarni yuklab oling yoki yarating. Siz fayllarni kompyuteringizdan yuklab olishingiz yoki ularni Google Drive-da yaratishingiz mumkin.

- Google Drive-ga fayl va papkalarni qanday yuklash kerak.
- Office fayllari bilan qanday ishlash kerak.
- Google hujjatlari, jadvallari va taqdimotlarini yarating, tahrirlang va formatlang.

3-qadam. Almashishni sozlang. Siz boshqa foydalanuvchilarga fayllar va papkalarni ko'rish, sharhlash yoki tahrirlashga ruxsat berishingiz mumkin.

- Fayllarni Google Drive-ga ulashing
- Google Drive-da papkalarni ulashing
- Fayl yoki papka egasini qanday o'zgartirish kerak

Topshiriklarni bajarib natijasini ko’rib chiqing.

11-MAVZU. ELEKTRON TA’LIM VA UNI TAShKIL ETISh ASOSLARI

1.Elektron ta’lim va uning bosqichlari.
2.Elektron ta’limni tashkil etishning dasturiy vositalari. Elektron ta’limni boshqaruv tizim (LMS)lari va ularning imkoniyatlari.
3.Elektron ta’limni boshqaruv tizimlari: Moodle, Canvas, Blackboard va Google Classroom veb-xizmati.
4. Ommaviy ochiq onlayn kurslar.

11.1.Elektron ta’lim va uning bosqichlari.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o’qitish usullariga qo’shimcha ravishda yangi o’qitish shakli - *masofaviy o’qitish yaratilishiga* omil bo’ldi.

Masofaviy ta’lim – zamonaviy axborot kommunikastion texnologiyalari vositasida masofadan turib ma’lumotlarni uzatish, qabul qilish orqali ma’lum fan yoki soha bo’yicha o’qitish shakli bo’lib, an’anaviy ta’limga nisbatan o’ziga xos avzalliklarga ega. U bir vaqtning o’zida jamoaning keng qatlamiga ta’lim berishda qo’l keladi. Fan-texnika rivojlanishi tufayli o’quvchilarga berilishi zarur bo’lgan axborot miqdori nihoyat darajada ko’payib bormoqda. Bu axborotlarni talabalarga an’anaviy usul va vositalar yordamida etkazib berish murakkab vazifalardan biri bo’lib olmoqda. Yaqin kunlargacha ko’pgina davlatlarda bunday o’qitish turi qo’lllanilmagan edi, sababi, davlatlardagi informastion va telekommunikatstion texnologiyalarning etarli darajada rivojlanmaganligidir. Lekin hozirgi davrga kelib onlayn rejimida ta’lim olish jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Odatda barcha e-learningning iborasini internet yoki intranet orqali elektron tarzda o’qitiladi deb biladilar. e-**learning** dasturiy ta`minoti oddiy HTML sahifalaridan tortib murakkab bo’lgan LMS yoki SMS gacha boradi.

LMS nima? Bu tizim har bir talabaga shaxsiy imkoniyatlarni kengaytirib materiallar bilan ishlashga yordam beradi. O’qituvchilarga esa o’quv dasturini tashkillashtirishda zarur jihozlar bilan ta’minlash, ta’lim samaradorligi to’g’risida hisobotlarni tashkillashtirish, guruh va o’qituvchi o’rtasida hamkorlikni yo’lga qo’yish kabi imkoniyatlarni beradi. Talaba LMS dan o’quv portaliga ruxsat oladi, bu ruxsat unga yuboriluvchi nuqta vazifasini o’tab, barcha o’quv jarayoni kontentini etkazib berish, taxminiy va testlash asosida kerakli o’quv proektini tanlash, maxsus ssilkalar yordamida qo’shimcha materiallardan foydalanish imkoniyatlarini beradi.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari — bu ta’lim oluvchi va pedagog xodimning to’liq yoki qisman masofadan o’zaro faoliyatida asosan axborot va telekommunikastiya texnologiyalarini qo’llab amalga oshiriladigan ta’lim texnologiyalari tushuniladi.

Masofaviy o’qitish. “Masofaviy o’qitish” atamasi, yuqorida aytilganlarning eng birinchi bo’g’ini bo’lib, Viskonsin shtati Universiteti tomonidan 1892 yildan boshlab sirtqi (korrespondentlik) kurslarda qo’llanilgan. Masofaviy deb masofadan turib tashkil qilingan ta’lim tushunilgan. Unga “korrespondentlik o’qitish”, “uyda o’qish” va boshqalar sinonim hisoblangan.

Masofaviy ta’lim texnologiyalari kunduzgi, sirtqi, kunduzgi-sirtqi; eksternat shakllarida; ta’limning ma’lum bosqichlarida; asosiy va qo’shimcha ta’lim dasturlarini amalga oshirishda qo’llanilishi mumkin. Masofaviy ta’lim texnologiyalarida qo’llaniladigan aloqa usuli har turli bo’lishi mumkin. Ular elektron pochta orqali yozishmalar, shaxsiy saytlar/bloglar orqali muloqotlar, materiallarni turli elektron resurslar yordamida o’rganish va boshqalardan iborat

Masofaviy ta’limda talaba va o’qituvchi fazoviy bir-biridan ajralgan holda o’zaro maxsus yaratilgan *o’quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va Internetning boshqa texnologiyalari* yordamida doimiy muloqotda bo’ladilar. Internet texnologiyasini qo’llashga asoslangan masofaviy o’qitish jahon axborot ta’lim tarmog’iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o’zaro aloqa tamoyiliga ega bo’lgan muhim bir turkum yangi funktsiyalarni bajaradi.

Bugungi kunda insonlar uchun quyidagi ta’lim shakllari taklif etilmoqda:

1. Kunduzgi ta’lim.
2. Distansion ta’lim.
3. Onlayin ta’lim.
4. Ochiq ommaviy onlayn kurslar (OOOK).

Masofaviy ta’lim an’anaviy ta’lim turlaridan farqli ravishda keng aholi ommasini qamrab oladi. Masofaviy ta’limning quyidagi imkoniyatlari mavjud:

• ikkinchi oliy yoki qo‘shimcha ta’lim;
• ixtiyoriy yoshdagi insonlarning ta’lim olishi;
• jismoniy va oilaviy holatidan qat`iy nazar ta’lim olish;
• ishdan ajralmagan holda ta’lim olish;
• mustaqil ta’lim olish imkoniyatining ko‘pligi;
• geografik manzildan qat’iy nazar ta’lim olish;
• tezkorlik imkoniyatlari va boshqalar.

Masofaviy ta’lim – eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o‘qitish vositalari va shakllari-ni o‘z ichiga olgan, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’limdir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shart-sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o‘quvchidan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizim.

Elektron ta’lim quyidagi imkoniyatlarga ega:

- shaxsiy kompyuterlar, planshetlar, smartfonlar, MP4-pleyerlar, DVD-pleyerlar, televizorlardan foydalanib elektron materiallar bilan mustaqil ishlash;
- masofaviy hamkorlik imkoniyati, ya’ni olisdagi ekspertdan (o‘qituvchi) konsultatsiya, maslahat, baho olish;
- fikrlari bir-biriga mos keledigan foydalanuvchilar jamiyatini (ijtimoiy tarmoqlar) yaratish;
- masofaviy ta’lim vositalari, elektron o‘quv materiallari va texnologiyalarining standartlari hamda ilovalarini o‘z vaqtida kechayu-kunduz yetkazish;
- tashkilotdagi rahbar va xodimlarning axborot madaniyatini oshirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash;
- innavatsion pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtirish va mmaviylashtirish;
- o‘quv veb-resurslarni rivojlantirish imkoniyat;
- dunyoning istalgan nuqtasidan istalgan vaqtda va istalgan joydan zamonaviy bilim olish;

Elektron ta’limga elektron kitoblar, ta’lim texnologiyalari va xizmatlari kiradi. Aslida electron ta`lim – ta’limda kompyuterlardan foydalanishdan boshlangan.

Elektron ta’limning shakllanishini uch etapga bo‘lish mumkin:

1. CD-ROM disklardagi kurslar;
2. Mutaxassis o‘qituvchilarning masofaviy ta’limi;
3. Maxsus interaktiv dasturlardan, elektron kitoblardan foydalaniladigan elektron ta’lim.

Masofaviy o’qitish barcha ta’lim olish istagi bo’lganlarga o’z malakasini uzluksiz oshirish imkonini yaratadi. Bunday o’qitish jarayonida talaba interaktiv rejimda mustaqil o’quv-uslubiy materiallarni o’zlashtiradi, nazoratdan o’tadi, o’qituvchining bevosita rahbarligida nazorat ishlarini bajaradi va guruhdagi boshqa «vertual o’quv guruhi» talabalari bilan muloqotda bo’ladi.

Ma’lum sabablarga ko’ra, ta’lim muassasalarining kunduzgi bo’limlarida tahsil olish imkoniyati bo’lmagan, masalan, sog’ligi taqoza etmaydigan, mutaxassicligini o’zgartirish niyati bo’lgan yoki yoshi katta, malakasini oshirish niyati bo’lgan kishilar uchun masofaviy o’qitish qulay o’qitish shakli hisoblanadi.

Masofaviy o’qitishda turli xil *axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalaniladi*, ya’ni har bir texnologiya maqsad va masala mohiyatiga bog’liq. Masalan, an’anaviy bosma usuliga asoslangan o’qitish vositalari (o’quv qo’llanma, darsliklar) talabalarni yangi material bilan tanishtirishga asoslansa, *interaktiv audio va video konferentsiyalar ma’lum vaqt orasida o’zaro muloqotda bo’lishga*, *elektron pochta to’g’ri va teskari aloqa o’rnatishg*a, ya’ni xabarlarni jo’natish va qabul qilishga mo’ljallangan.

Oldindan yozilgan **videoma’ruzalar** talabalarga ma’ruzalarni tinglash va ko’rish imkonini bersa, faksimal aloqa, xabarlar, topshiriqlarni tarmoq orqali tezkor almashinish talabalarga o’zaro teskari aloqa orqali o’qitish imkonini beradi.

Yuqoridagilarga asoslanib, ta’lim jarayonida ayni vaqtda qayta-qayta tilga olinayotgan ayrim terminlar tavsifi va ta’riflarni keltirish mumkin.

Masofaviy o’qitish – eng yaxshi an’anaviy va innovatsion metodlar, o’qitish vositalari va formalarini o’z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta’lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta’lim formasidir.

Masofaviy o’qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o’quv shart- sharoitlari va o’qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, o’quvchidan ko’proq mustaqil ravishda shug’ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o’qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtda va qaysi joyda bo’lishiga bog’liq emas.

Masofaviy ta’lim – masofadan turib o’quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o’qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko’rsatuvchi ta’lim majmuaidir.

Masofaviy o’qitish tizimi – masofaviy o’qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o’qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o’qitish tizimi o’zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega. Nima uchun masofaviy ta’lim kerak bo’lib qoldi? – degan savol tug’ilishi tabiiy. Bu savolga javob tariqasida quyidagilarni sanab o’tish mumkin:

- ✓ Ta’lim olishda yangi imkoniyatlar (ta’lim olishning arzonligi, vaqt va joyga bog’liqmasligi va boshqalar).

- ✓ Ta’lim maskanlariga talaba qabul qilish sonining cheklanganligi.
- ✓ Ta’lim olishni xohlovchilar sonining oshishi.
- ✓ Sifatli axborot texnologiyalarining paydo bo’lishi va rivojlanishi.
- ✓ Xalqaro integratsiyaning kuchayishi.

Yuqorida sanab o’tilgan sharoit va imkoniyatlar masofaviy o’qitishga ehtiyoj borligini ko’rsatadi.

11.2.Elektron ta’limni tashkil etishning dasturiy vositalari. Elektron ta’limni boshqaruv tizim (LMS)lari va ularning imkoniyatlari

Masofaviy ta’lim modellari

Masofaviy o’qitishning ta’lim tizimida bir-biridan farqlanuvchi model va shakllari mavjud bo’lib, ular quyidagi qo’llanish shartlari bilan farqlanadi:

- geografik shartlar (masalan, mamlakat territoriyasi, markazdan uzoqlikda joylashuvi, iqlimi);
- mamlakatning axborotlashuvi va kompyuterlashtirish umumiy darajasi;
- kommunikatsiya va transport vositalarining rivojlanish darajasi;
- ta’lim jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining qo’llanish darajasi;
- ta’limda qo’llaniladigan an’analari;
- masofaviy o’qitish tizimi uchun ilmiy pedagog kadrlar mavjudligi va ularning salohiyati va boshqalar.

Umuman olganda masofaviy ta’limning maqsadiga quyidagilar kiradi:

- ✓ Mamlakat miqyosidagi barcha hududlar va chet eldagi barcha o’quvchilar, talabalar, ta’lim olishni xohlovchilarga birdek ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.
- ✓ Etakchi universitetlar, akademiyalar, institutlar, tayyorlov markazlari, kadrlarni qayta tayyorlash muassasalari, malaka oshirish institutlari va boshqa ta’lim muassasalarining ilmiy va ta’lim berish potentsiallaridan foydalanish evaziga ta’lim berishning sifat darajasini oshirish.
- ✓ Asosiy ta’lim va asosiy ish faoliyati bilan parallel ravishda qo’shimcha ta’lim olish imkoniyatini yaratib berish.
- ✓ Ta’lim oluvchilarni ta’lim olishga bo’lgan ehtiyojini qondirish va ta’lim muhitini kengaytirish.

- ✓ Uzluksiz ta’lim imkoniyatlarini yaratish.
- ✓ Ta’lim sifatini saqlagan holda yangi printsipal ta’lim darajasini ta’minlash.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, masofaviy ta’lim elementlarini ta’lim muassasalariga joriy etilishi har tomonlama foyda keltiradi. Oliy ta’lim tizimida bu kompleksni joriy qilish uchun barcha shart - sharoitlar mavjud.

Ommaviy ochiq onlayn kurslar.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son 08.10.2019 yildagi “O’zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasini tasdiqlash to’g’risidagi” farmonining O’zbeksiton Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konstepstiyasida Ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etishga alohida e’tibor qaratildi. Bunda ta’lim jarayonini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “Blended learning”, “Flipped classroom” texnologiyalarini amaliyotga joriy etish masalalari ilgari surildi.

Erkin va ochiq manbali dasturiy ta'minot (FOSS) - bu bepul dastur va ham ochiq manbali dastur sifatida tasniflanishi mumkin bo'lgan dastur. Ya'ni, har kim biron-bir tarzda dasturni ishlatish, nusxalash, o'rganish va o'zgartirish uchun erkin litsenziyaga ega, va manba kodi ochiq bo'lib, odamlar dasturiy ta'minot dizaynini ixtiyoriy ravishda yaxshilashga da'vat etiladilar. Bu xususiy dasturiy ta'minotdan farqli o'laroq, dasturiy ta'minot cheklangan va boshlang'ich kod odatda foydalanuvchilar tomonidan berkitilgan.

FOSS dasturiy ta'minot foydalanuvchisining fuqarolik huquqlariga ega. FOSS-dan foydalanishning boshqa afzalliklari dasturiy ta'minot narxining pasayishi, xavfsizlik va barqarorlikning oshishi (ayniqsa zararli dasturlarga nisbatan), shaxsiy hayotni himoya qilish, ta'lim berish va foydalanuvchilarga o'zlarining shaxsiy uskunalari ustidan ko'proq nazoratni o'z ichiga olishi mumkin. Linux va BSD avlodlari kabi bepul va ochiq manbali operatsion tizimlar bugungi kunda millionlab serverlar, ish stoli kompyuterlari, smartfonlar (masalan, Android) va boshqa qurilmalarga quvvat beradi. Erkin dasturiy ta'minot litsenziyalari va ochiq manbali litsenziyalar ko'plab dasturiy paketlar tomonidan qo'llaniladi.

Oxirgi bir necha yillarda elektron ta’limda yangi-ommaviy ochiq onlayn kurslarini(ingliz tilidan Massiv Open Online Courses, MOOC) yaratish tendensiyasi paydo bo’ldi. MOOC – internetdan ochiq foydalana olishda tinglovchilarning yirik masshtabli interaktiv ishtirokiga tuzilgan kursdan iborat. “Ommaviy ochiq kurs” atamasi Brayn Aleksandr va Deyv Korme tadqiqotchilarning “Connectivism &Connektive knowledge” kursi ustida ish olib borilgan ishlar natijasida kiritildi. MOOC atamasi to’rtta aloqa atamadan iborat:

-Massive (ommaviy) –kursga butun dunyodan ishtirokchilarning katta sonini o’qitilishini bildiradi.

-Open(ochiq) –har bir kurs bepul hisoblanadi va har bir shaxs istalgan vaqtda kursga ulanishi mumkin.

-Online(onlayn)- barcha kurslar Internet tarmog’ida ochiq foydalana olishi mumkin. Kursda ta’limning asinxron metodidan foydalanish mumkin, bunda o’qish uchun xamma ma’suliyat tinglovchilar zimmasida bo’ladi va ta’limning sinxron metodida o’qish jarayoni o’qituvchi bilan real vaqt rejimida amalga oshiriladi;

-Course (kurs) –har bir kurs har bi ishtirokida moslashtirilgan holda o’z qoidalariga, o’z strukturasiga va o’z maqsadiga ega bo’ladi.

G’arb matbuoti birinchi marta 2011 yili MOOC ga Stenford professori Sebastyan Trun internet tarmog’ida g’ayritabiiy intellekt to’g’risida bepul kursni muvaffaqiyatli o’qiganidan keyin e’tibor qaratgan. Trun talabalari safida 190 mamlakatdan 160 ming kishi kirdi. AQShdagi universitetlari Trun eksperimentidan keyin yangi to’lqinda ishlab daromad orttirish maqsadida, ketma-ket MOOC kursini yaratishda ishtirok eta boshladi.

LMS tizimlari va ularning ahamiyati

XXI asrni bemalol texnologiyalar va u bilan bog’liq bilimlar asri deya olamiz. Bilimlarni o’rganish turlari, yo’llari, usullarini kengaytirib yuborgan asr. AShning Stenford universiteti, Massachuses Texnologiya instituti (MTI) kabi bir necha nufuzli oliy o’quv yurtlari bepul “onlayn” kurslarini taqdim etmoqda. Tajriba tariqasida ilk bor tashkil etilayotgan mazkur darslar dunyoning barcha davlatlaridagi talabalar uchun ochiq. Ushbu kurslarda o’qish mutlaqo bepul va ularni muvaffaqiyatli tamomlaganlarga diplom (sertifikat) ham beriladi (ayrim kurslar tekin sertifikat berishadi, lekin ko’p kurslarda ma’lum bir tulovdan keyin sertifikat olish mumkin). Internet orqali o’quv materiallarini bepul va erkin tarqatishga mo’ljallangan “Ochiq darsxona” (Open courseware)

deya nomlanuvchi elektron tizim bundan o’n yilcha muqaddam tashkil etilgan edi. Shundan so’ng yuzlab boshqa kollej va universitetlar ham o’quv materiallarini internetga barcha uchun bepul va ochiq tizimini yo’lga qo’ydi. Bugunga kelib TI va Stenford universiteti ushbu amaliyotni yangi bosqichga ko’tarishga qaror qildi.

Dunyoning nufuzli universitetlari taqdim etayotgan ushbu bepul “onlayn” kurslari:

- Coursera.org – https://www.coursera.org/
- EdX – https://www.edx.org/
- Udemy – https://www.udemy.com/ LinguaLeo – http://lingualeo.ru/ busuu – http://www.busuu.com/enc/
- TED – http://www.ted.com
- Coursera. Rasmiysayti: www.coursera.org

LMS/LCMS tizimlari elektron ta’limni (**masofaviy ta’lim jarayonini**) tashkil etishning **asosiy funktsiyalarini o’z ichiga oladi.**

Bunday funktsiyalarga –

– o’quvchilarning (o’qituvchilarning, kurs yaratuvchi pedagoglarni va boshqa roldagilarni) ro’yihatga olishi,
– foydalanuvchilarni o’quv kurslardan chetlashtirish,
– o’quvchilarning mustaqil ta’lim olish muhitini yaratish,
– o’quvchi va o’qituvchilarning o’zaro individual yoki/va guruh bo’lib hamkorlikda ishlashini (**Web2** elementlarini ishlatish orqali) tashkil etish,
– guruhlar yaratish va ularni boshqarish,
– oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni tashkillashtirish va elektron azorat turlarini yaratish (elektron nazorat turlariga *yopiq turdagi test, ochiq turdagi nazorat, moslikni topishga oid, ketma-ketlikni to’g’ri joylashtirish, bo’sh qoldirilgan joyni to’ldirish* va boshqa turlari kiradi),
– har-xil turdagi **ijtimoiy so’rovlar** tashkillashtirish,
– o’quvchilarning bilim darajasini **monitoring** qilish,
– elektron axborot resurslarini (*elektron kutubxonalar*) tashkillashtirish,
– elektron o’quv resurslarini eksport/import qilish imkoniyatlari,
– tizimda mavjud fodalanuvchilarning aktivligini *maxsus grafiklar orqali monitoring* qilish imkoniyati,

– o’qituvchi(tyutor) (yoki elektron kurs yaratuvchi pedagoglar) tomonidan *elektron o’quv resurslarni yaratishi,*
– **TinCan** yoki boshqa standartlar asosida yaratilgan *elektron o’quv resurslarini yuklashi*,
– o’quvchilarning boshqa o’quvchilar/o’qituvchilar bilan (*Chat, Forum, videokonferentsiya, umumiy elektron doskalar yoki tizimning ichki/tashqi xabarlar almashish moduli orqali)* muloqatini tashkillashtirish,
– o’quv jarayonida bo’ladigan yangiliklarni barcha foydalanuvchilarga *ommaviy xabar yuborib turuvchi modullarning mavjudligi*,
– iqtisodiy va marketingga oid operatsiyalarni boshqarish va
– boshqa imkoniyatlarni sanab o’tish mumkin.

Masofaviy ta’lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli LMS dasturiy majmualarning nomlari va ularning asosiy imkoniyatlari bo’yicha quyidagilar mavzud:.

Atutor–Ochiq kodli, veb muhitida ta’lim jarayonini boshqaruvchi LMS tizimi hisoblanadi. Tizimda mavjud o’qitish modullari:

– Forums,
– Materials,
– Messenger,
– Chat,
– Exercises,
– Group work,
– Student tracking va boshqa modullari mavjud.

Tizim bir nechta standartlarni qo’llab quvvatlaganligi sababli, **Internet orqali jismoniy nuqsonga ega bo’lgan o’quvchi-talabalar tizim orqali o’quv resurslardan foydalanishlari mumkin.**

Claroline – Erkin va ochiq kodli, masofaviy o’quv kurslarni tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi Webga orientatsiyalangan dasuriy majmua hisoblanadi. Tizim Luvenadagi (Belgiya) katolik universitetining pedagogika va mul’timedia institutida yaratilgan. Dasturiy majmuadan foydalanish GNU (General Public License)asosida amalga oshiriladi ya’ni bepul foydalanish mumkin.

Tizim ishlashi uchun serverda **PHP/MySQL/Apache** larni o’rnatilishi talab qilinadi.

Claroline dasturiy majmuasidan 80 dan ortiq davlatlarda foydalanishadi va 30 dan ortiq tillarga (dastur interfeysi) tarjima qilingan. Tizim 2000 dan ortiq talabalarni bir vaqtning o'zida qabul qilishi mumkin.

Claroline dasturiy majmuasi masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish uchun talab qilinadigan barcha talablarga javob beradi *xususan,*

– foydalanuvchilarni ruyihatdan o'tkazish,

– tizimda foydalanuvchilarning (fan o'qituvchisi, o'quvchi va mehmon) rollarini administrator tomonidan belgilashi,

– o'quv kurslarni yaratish,

– ularning tarkibini tahrirlash,

– talabalar bilimini nazorat qilish,

– monitoring olib borish,

– nazorat natijalarini tahlil qilish,

tizim ichida foydalanuvchilar o'rtasida kommunikatsiya elementlaridan (*chat, forum, qisqa xabarlar jo'natish modullaridan)* foydalanish va boshqarish imkoniyatini beradi.

Dokeos – Claroline ning 1.4.2 versiyasidan ajralib chiqqan yangi dasturiy majmua hisoblanadi.

Dokeos Claroline platformasini ishlab chiqqan dastlabki ishchi guruhning bir necha a'zolarining ish mahsuli bo'lib, ular ta'lim muassasalari uchun yaratilgan Claroline dan farqli ravishda davlat korxonalarining ishchi xodimlariga moslashtirishni maqsad qilishdi va amalga oshirishdi.

Dokeos dasturiy majmuasining rasmiy Web saytiga tashrif buyursangiz, u erda dasturning 2 ta versiyasini ko'chirib olishni taklif qilinadi:

– **Dokeos FREE –** bepul va

– **Dokeos PRO** – bepul bo'lmagan, qo'shimcha modullari mavjud bo'lgan dastur paketi taklif etiladi.

Lekin Dokeos FREE versiyasida ta'lim jarayonini tashkillashtirish uchun kerak bo'ladigan barcha o'quv modullari mavjud.

Tizimning imkoniyatlarini va unda mavjud o'quv elementlarni qo'yida ko'rsatilgan **aql xaritasi** orqali ko'rish mumkin. Tizimda mavjud o'qitish modullarini ta'lim muassasalarida ham foydalanish mumkin. Hozirgi vaqtda LMS larining ko'pchiligi ijtimoiy tarmog'lardagi mavjud g'oya asosida o'zlarining ishchi muhitlarini

shunday tarmog'larga moslashtirmoqda. Shunga ko'ra, bu tizimda ham ijtimoiy tarmog' elementlari keng kiritilgan. Yuqorida keltirilgan **LMS** tizimlari singari **Dokeos** dasturiy majmuasi ham **SCORM** standartini qo'llab quvvatlaydi. Bu esa bu standartni qo'llab quvvatlaydigan *boshqa LMS tizimlariga o'quv kurslarini eksport/import qilish imkoniyatini beradi*. Dokeos dasturiy majmuasi o'quv modulini yozish vaqtidagi ohirgi barqaror versiyasi Dokeos 2.2 RC2. Tizimning rasmiy Internet manzili: http://www.dokeos.com

LAMS – elektron o'quv resursini vizual ravishda o'quv kontentlarni o'zgartirish boshqarish va yaratishdagi imkoniyatlarining mavjudligi sababli, yangi revolyutsion ilova hisoblanadi. U o'qituvchiga o'quv kontentini yaratishda *intuitiv tushunarli interfeys taqdim qiladi.* Bu interfeys o'z ichiga har-xil individual vazifalar, guruhli o'qitishda frontal vazifalarni berishini o'z ichiga oladi. O'quv modulini yozish vaqtidagi tizimning barqaror versiyasi

Tizimning rasmiy Internet manzili:http://lamsfoundation.org/


11.3.Elektron ta'limni boshqaruv tizimlari: Moodle, Canvas, Blackboard va Google Classroom veb-xizmati. Ommaviy ochiq onlayn kurslar.

Bugungi kunda talabalarga bilim berish jarayonida masofadan turib o'qitish juda zarur vositalardan biri bo'lib, jahon miiyosida bu sohada katta yutuqlarga erishilmoqda. Bunga misol tariqasida **Moodle** tizimida masofadan ta'lim berishni misol qilib olish mumkin.

Moodle -bu sayt tarkibiga kiruvchi boshqarish tizimi bo'lib, o'qituvchining onlayn-kurs yordamida dars berishiga mo'ljallangan sistemadir.


Moodle – inglizcha so'zlarning abbreviaturasi bo'lib Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment (ruschasi "modulnaya ob'ektno-orientirovannaya dinamicheskaya obuchayuщaya sreda") - modulli ob'ektga yo'naltirilgan dinamik o'qitish muhiti. **Moodle tizimi** asosan *mudulli ob'ektga mo'ljallangan dinamik ta'lim muhitini boshqarish tizimi* bo'lib hisoblanadi.

Moodle tizimi yordamida talabalarga fanlarni turli innovastion metodlar yordamida tashkillashtirish mumkin. Buxoro davlat universiteti Moodle tizimida Ta'limda axborot texnologiyalari fanidan elektron o'quv kurslari tarmoqda joylashtirilgan.



11.1-rasm. Ta’limda axborot texnologiyalari o’quv kursi bosh oynasi

Har bir ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarining ishlanmalari, topshiriqlari kursda tuliq shakllantirilgan. Talabalar dars jarayonida kursdan foydalanishda mavzularga tegishli ma’lumotlarni elektron o’quv uslubiy majmuadan, kursga joylashtirilgan adabiyotlardan olib o’rganishadi. Bu talabalarga tizimdan foydalanishga qiyinchilik tug’dirmaydi.Chunki universitet hududida ochiq Wi-Fi tizimlari,xosting xizmatlari tashkillashtirilgan. Qolaversa Moodle tizimining mobil versiyalariga xam tarmoqda ulanishga imkon yaratilgan. Talabalar asosan mobil versiyalardan foydalanib darsga tayyorgarlik ko’rishadi. Mustaqil ta’lim topshiriqlari ham asosan mobil aloqa vositalari yordamida kursga tashlanadi.



11.2-rasm. Ta’limda axborot texnologiyalari fanidan ta’lim topshiriqlarini joylashtirilishi.

Moodle - masofaviy ta’lim olish sistemasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- Ta’lim berish jarayoniga tayyorgarlik

- Ta’lim berish jarayoni
  Sistemada foydalanuvchi huquqlarini aniqlovhchi quyidagi asosiy rollar mavjud.
- Administrator- barcha ishni bajara oladigan shaxs
- Kurs yasovchisi(sozdatelkursov(course creator)) – sistemada kursni tahrirlash, royxatga olish va o’qituvchi tayinlash huquqiga ega
- O’qituvchi (teacher)-o’z kursini tahrirlash va unga assistentlarni , talabalarni tayinlash huquqqiga ega
- Yordamchi(Assistent(non-editing teacher)) – kursni tahrirlash huquqqiga ega bo’lmagan, ammo talabarning baholarini, kursning topshiriq va test natijalarini kuzatib boorish huquqiga ega
- Talaba(Student (Student))- O’ziga tegishli bo’lgan kursda ishlash, kurs materiallarini ko’rish, topshiriqlarni tekshirishga yuborish, testlarni bajarish, forum va chatlarda ishtirok etish huquqiga ega
- Mehmon (Gost(guest))- kurs kategoriyalari bilan tanishuvchi menmon sifatida kirish huquqiga ega shaxs.


MOODLE tizimida o’qitishning avzalliklari

Elektron o’qitishning avzallik tomonlari:

- **kursdan ixtiyoriy vaqtda foydalanish imkoniyati mavjudligi**. Elektron texnologiyalar yordamida kursdan 24 soat, 7 hafta, 365 kun mobaynida foydalanish mumkin, yani 24/7/365-prinstipining mavjudligi;
- **kursga dunyoning istalgan burchagidan (qachonki u erda Internet mavjud bo’lsa) kirish imkoniyati mavjudligi**. Buning uchun ko’pchilik kurslarga katta tezlikdagi internetga ulanish shart emas. Bu oddiy Dial-Up modem orqali ham kirish imkoniyatini beradi.
- **beriladigan ma’lumotlarning kengligi.** Kurs ishtirokchisi o’quv jarayonida materialllarni o’rganish vaqtida dunyodagi turli electron kurslardan va electron kutubxonalardan foydalanishi mumkin.
- **ma’lumotlarning tezlik bilan etkazib berilishi**. An’anaviy ta’limda o’quv jarayonining asosiy ma’lumotlari kitobdan olinadi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida bir qator fanlardan yangiliklarkun-sayin yangilanib boradi, statistik ma’lumotlar o’zgaradi, kitobdagi ma’lumotlar eskirib boradi. Internet orqali olingan ishonchli ma’lumotlar doimiy ravishda yangilanib turiladi.

- **o’quv jarayonining avtomatlashtirilishi.** O’quv jarayoni avtomatik holda boshqarilib turiladi, ya’ni o’qituvchi bir xil variantdagi testlarni nazorat o’tkazish masadida berib, avtomatik tarzda nazorat olishi va kompyuter yordamida baholashi mumkin.
- **Ta’limning multimedialigi.** Matnli va grafik ma’lumotlar an’anaviy ta’limda qog’oz ko’rinishida namoyish etilsa, elektron ta’limda bu ma’lumotlar animastiya, video, tovush va ranglar bilan boyitilib tushuntiriladi. Bu esa talabaga ma’lumotlarni to’liq o’zlashtirish imkonini beradi.
- **O’qitiladigan ma’lumotlarning kengligi va hajm jihatdan kattaligi.** An’anaviy ta’lim berish jarayonida vaqtning cheklanganligi sababli beriladigan ma’lumotlarning hajmi kattaligi jihatidan asosiy qismlarning darsda o’tilishiga to’g’ri keladi. Elektron ta’limda esa bu muammo butunlay echimini topadi va mavzuga doir bir qancha qo’shimcha ma’lumotlardan foydalanish imkonini ham yaratadi.

Moodle tizimida kurs elementlari quyidagi rasmda keltirilgan:



11.3-rasm.

Anketa (So`rovnoma) – elementining uch turdagi anketalari masofaviy ta’lim kurslarini baholash va rag`batlantirish uchun xizmat qiladi.

Chat (Chat) – elementi kurs ishtirokchilari o`rtasida o`zaro yozma muloqot qilish imkonini yaratadi.

Lekstiya (Ma’ruza) – o`quv elementi masofaviy ta’lim tizmining asosiy mazmunini yoritib beruvchi elementlardan biri hisoblanadi.

Vneshniy instrument (**Tashqi uskuna)–** elementi boshqa web-saytlarda joylashgan ta’lim resurslari va faol namunaviy elementlarni kursga bo g`lash imkonini yaratadi.

Forum (Forum) – elementi uzoq vaqt davomida foydalanuvchilar o`rtasida muloqotni tashkil etadi.

Glossariy (**Izohli lug**`at) – elementi foydalanuvchilarga resurs va ma’lumotlarning tizimlashtirilgan hamda faoliyat doirasida foydalaniladigan lug`at tashkil etish imkonini beradi.

Baza данных (Ma’lumotlar ombori)– elementi foydalanuvchilarga barcha joydan yozuvlarni izlash, yaratish va xizmat ko`rsatish kabi imkoniyatlar yaratadi.

Seminar (Seminar) – o`quv elementi talabalar ishini o`zaro baholash, jamg`arish, ko`rib chiqish hamda taqriz berish imkonini yaratadi. Talabalar o`z ijodiy ishlarini har qanday fayl ko`rinishida taqdim etishlari mumkin.

**Opros(So`rov)**– elementi professor-o`qituvchilarga so`rov o`tkazish imkonini beradi.

Zadanie (**Topshiriq**) – o`quv elementi talabalar ishlarini jamlash, baholash va ularni sharxlash hamda o`qituvchilarga kommunikativ topshiriq qo`shish imkonini yaratadi.

Wiki – elementi ishtirokchilarga bog`langan web-sahifa to`plamini yaratish va tahrirlash imkonini beradi.

SCORM (Sharable Content Object Reference Model, «berilgan ob’yektdan hamkorlikda foydalanish uchun namunaviy modeli») – elementi o`quv ob’yektlari uchun muvofiqlikda kelishilgan standart fayllar to`plamini o`zida mujassam etgan bo`lib, ular arxiv fayl ko`rinishida bo`ladi.

Masofaviy o’qitishda test nazorat tizimini o’tkazish, nazoratning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Testga va undan foydalanish usullariga qo’shimcha talablar kiritilishi mumkin. Quyida ularni umumlashgan ko’rinishdagi talablar keltirilgan.

1. Har bir mavzu bo’yicha test topshiriqlari etarli darajada ko’p bo’lishi kerak, testlarning o’zi esa xilma-xil tuzilgan bo’lishi lozim.
2. Testning murakkablik darajasi tizimli bo’lishi kerak.
3. Tekshirishni osonlashtirish uchun test yopiq turda bo’lgani ma’qul.
4. Testlar ochiq holatida bo’lishi, bunda ta’lim oluvchilar test o’tkazish davomida ixtiyoriy manbadan foydalanishlari mumkin.
5. Olingan test natijalari haqida ta’lim oluvchilarga tez xabar berilishi kerak.

Yuqoridagi ta’kidlangan barcha fikrlardan kelib chiqib, masofaviy o’qitishning ta’lim tizimida ustunliklari uyidagilardan iborat:

• masofaviy o’qitish ochiq hisoblanadi, hamma xohlaganlarga ta’lim olish imkoniyatlarini beradi;

• masofaviy o’qitish turli xil darajadagi o’quv dasturlaridan foydalanish imkonini beradi;

• masofaviy o’qitish ta’lim oluvchining bilim olishga bo’lgan ehtiyojini qondirishga, ularning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi;

• masofaviy o’qitish individuallashgan va differenstiastiyalashgan o’qitishning vazifalarini echishga imkoniyat yaratadi;

• masofaviy o’qitish ta’lim oluvchiga yashash joyini o’zgartirmasdan, ishdan ajralmagan holda o’qish imkoniyatini yaratadi;

• masofaviy o’qitish kadrlarni tayyorlashdagi ustunligi, tyutorning kasbiy mahorati darajasini oshirishga imkoniyat yaratadi, xodimlarning etishmasligini kompensastiya qilish va o’quv kursining davrli takrorlanishini qisqartirish imkonini beradi;

• masofaviy o’qitish mahalliy va xorijiy elektron ta’lim resurslaridan keng foydalanish imkoniyatini yaratadi;

Kelajakda o’qitishning masofaviy shaklidan foydalanish kundan-kunga dolzarblashib boradi va u o’zining afzallik jihatlari bilan an’anaviy o’qitishdan sezilarli darajada farqlanadi.

Google classroom

Google Classroom - Google Apps ta'lim foydalanuvchilariga qo'shilishi mumkin bo'lgan maktablar uchun mo'ljallangan o'quv xonasi. Google ta'lim muassasalariga Google Apps bepul nashrini taqdim etadi va Google Classroom o'quvchilarni va o'qituvchilar uchun Google ilovalarini aloqa to'plamiga aylantirish orqali o'rnatishni qo'llaydi.

Maktablarni elektron pochta hisoblari va hujjatlarni saqlash bilan ta'minlash bir narsadir. Talabalar va o'qituvchilar bundan ham ko'proq narsani talab qiladilar. Sinflar topshiriqlari, e'lonlari va eslatmalari bor. Ular sinf xavfsizligi va hujjat almashinuvi uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan o'ziga xos muhitga muhtoj. Bu Google Classroom kiradigan joy.

Google LMS

Google Classroom asosan talabalarni va o'qituvchilarning hamkorliklari uchun Google Apps xizmatidan foydalanadigan **ta'limni boshqarish tizimi** yoki LMS. Google Classroom foydalanuvchilar talabidan so'ng ishlab chiqildi. Ta'limni boshqarish tizimlari qimmat va

ulardan ko'pchiligi foydalanish qiyin. Maydonni Blackboard kompaniyasi egallab turibdi, bu esa o'z navbatida raqobatning ko'p qismini sotib olgan. Google Classroom maktab va o'qituvchilarga sinf a'zolari bilan xavfsiz muhitda bo'lishish va muloqot qilish uchun virtual sinflarni yaratish imkonini beradi. Administrator sozlamalariga bog'liq holda, o'qituvchilar sinflar yaratishlari yoki ular uchun yaratilgan ommaviy klasslarga ega bo'lishlari mumkin.

So'ngra, o'qituvchilar topshiriq va materiallarni alohida yoki bu cheklangan guruhga bo'lishishi mumkin va interfeyslar o'quvchilarning individual harakatlarni kuzatishlariga imkon beradi. Bu LMS uchun standartdir. Google Apps xizmatidan foydalanganligi sababli, topshiriqlar va materiallar Google Drive papkasida joylashgan.

Foydalanuvchilar yangi faoliyat uchun elektron pochta xabarnomalarini oladi, masalan, izohlar yoki topshiriqlar o'zgartiriladi. Administratorlar sinfi standart Google Apps boshqaruv konsolining bir qismi sifatida (Ta'lim uchun Google Apps uchun). Topshiriqlarni baholash uchun hujjatlarni oldindan va keyinroq jo'natadigan yuborish tugmasi bilan ishlov beriladi. Shogird qog'ozni yaratadi va keyinchalik uni "o'qituvchiga" aylantiradi, bu uning docga tahrir qilish imkoniyatini o'chirib qo'yadi, ammo faqatgina ko'rinishga ega bo'ladi. (O'quvchilarning Google Drive papkasida hali ham mavjud.) O'qituvchi hujjatni belgilaydi va sinfni belgilaydi va uni tahrirlashga qaytara oladigan o'quvchiga qaytaradi.

Canvas, Blackboard

Blackboard vs Canvas: asosiy xususiyatlar va xizmatlarni taqqoslash

Blackboard va Canvas - bu o'rta va o'rta ta'lim bozoriga yo'naltirilgan ikkita Ta'limni boshqarish tizimi (LMS). Ikkala echim ham ijtimoiy o'rganish xususiyatlarini baham ko'radi va harakatda o'rganish uchun mahalliy mobil ta'lim dasturlarini taqdim etadi.

Blackboard: Blackboard Learn - bu o'quvchilar va xodimlarning o'quv tajribalarini yaxshilashga yordam berish uchun akademik va ishbilarmonlik muhitida ishlatiladigan veb-ga asoslangan LMS. Tashkilotingiz ehtiyojlariga mos ravishda osonlikcha moslashtiriladi va Microsoft OneDrive, maktab ma'lumot tizimlari va Dropbox bilan birlashadi.

Blackboard Learn to'rt xil bozorga moslashtirilgan: K-12, Oliy ma'lumot, biznes va hukumat. To'rtta bozorning hammasi Blackboard

Learn-ning asosiy funktsiyalari, masalan, sinov / baholash, munozaralar va foydalanuvchi uchun maxsus profil. Biroq, ba'zi xususiyatlar bozorga bog'liq (masalan, korporativ va hukumat bozorlaridagi tahlillar).

Kanvas: Instruction by Canvas - bu ta'lim muassasalari uchun qurilgan ta'limni boshqarish echimi. Canvas 2011 yilda foydalanuvchilarni o'qitish va o'qitishga yaxshiroq jalb qilish uchun ishlab chiqilgan. Canvas yordamida o'qituvchilar, shuningdek, onlayn ta'lim uchun keng qamrovli video platforma bo'lgan Arc-ga kirish huquqiga ega. Arkni Canvas yordamida raqamli sinfda videofilmlarni osongina yuklash va nashr qilish, shuningdek, talabalar va o'qituvchilarga suhbatlar yaratish uchun videolarga izoh qo'shish imkoniyatini berish uchun ishlatish mumkin.

Blackboard: Foydalanuvchilar Blackboard-ni joylashtirishning uchta variantiga ega: bulutli, mahalliy va boshqariladigan xosting. Blackboard shuningdek, maktabning axborot tizimlari (SIS), Dropbox, PowerSchool va Microsoft OneDrive kabi boshqa echimlar bilan birlashadi.

Kanvas: Tuval bulutli platformadir, shuning uchun dastur mahalliy echimdan ko'ra qisqa. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, foydalanuvchilar 14 kunlik bepul sinovda ishtirok etishlari yoki Canvas-dan ochiq manbali echim sifatida foydalanishlari mumkin. Integratsiya uchun Canvas bir marta bosish bilan o'rnatilishi mumkin bo'lgan turli xil o'quv vositalarining kutubxonasi bilan maxsus dastur markazini taklif etadi.

Xulosa: Blackboard - bu o'z ma'lumotlarini joylashtirishi kerak bo'lgan maktab uchun eng yaxshi variant. Biroq, ma'lumotlarni joylashtirish uchun resurslari bo'lmagan maktablar uchun Blackboard ham, Canvas ham bulut asosida tarqatishni taklif qiladi. Bundan tashqari, Canvas turli xil vositalarni taklif qiladi, Blackboard esa faqat Dropbox, PowerSchool va OneDrive (maktab ma'lumot tizimidan tashqari) bilan birlashadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Masofaviy ta’lim va uni tashkil etish asoslari nimalardan iborat?
2. Masofaviy ta’lim modellariga nimalar kiradi?
3. Masofaviy ta’lim elementlarini shakllantirishga qo’yiladigan talablar nimalardan iborat?

4. Masofaviy ta’lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari qaysilar?
5. Ommaviy onlayn ochiq kurslar nima.?
6. Virtual ta’limni boshqaruvchi tizimlarga nimalar kiradi?
7. MOODLE tizimining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Moodle tizimida kurs elementlariga nimalar kiradi?

12-MAVZU. ELEKTRON TA’LIMNI BOShQARUV TIZIMI MOODLEDA KURS YaRATISh.

1.Moodle dasturini sozlash va o’quv kusrlarini yaratish.
2.Moodle elementlari va resurslari.

12.1Moodle dasturini sozlash va o’quv kusrlarini yaratish.

Moodle – Web muhitida o’qitish va on-line rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi vebga yo’naltirilgan dasturiy majmua hisoblanadi.

Moodle –inglizcha so’zlarning abbreviaturasi bo’lib **Modular Object Oriented Dynamic Learning Environment - modulli ob’ektga yo’naltirilgan dinamik o’qitish muhiti**. Tizimda mavjud o’qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va ancha ko’p bo’lgan boshqa modullari mavjud. Boshqa LMS lar singari **IMS, SCORM** va boshqa standartlarni qo’llab quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, boshqa LMS tizimlarga qaraganda eng ko’p qo’shimcha plagin va modullari mavjud bo’lgan dasturiy majmua aynan, Moodle dasturiy majmuasi hisoblanadi.

Tizim asosan *o’qituvchi (lar) va talaba(lar) o’rtasida* o’zaro (bilim olish) **munosabatini** tashkillashtirishga yo’natirilgan. **MOODLE avtori** -Martin Dougiamas.

MOODLE modifikatsiyasiz Unix, Linux, FreeBSD, Windows, Mac OS X, Netware va boshqa PHP ni qo’llab quvvatlovchi operatsion tizimlarda ishlaydi. MOODLE **PHP** dasturlash tilida yozilgan, **SQL**-ma’lumotlar bazasi asosida ishlaydi (MySQL, PostgreSQL, Microsoft SQL Server va boshq.).

MOODLE tizimining asosiy xususiyatlari

MOODLE tizimi masofadan turib o’qitish kurslari va web-saytlarni yaratishni dasturiy ta’minlash paketidan iboratdir. **Tizimning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:**

- Tizim hozirgi zamon pedagogika yutuqlari va o’quvchilar orasidagi hamkorlikka bo’lgan ehtibor, muhokamani hisobga olingan holda loyihalashtirilgan.
- Masofadan turib o’qitish uchun ham, kunduzgi o’qitish uchun ham foydalanish mumkin.
- Oddiy va samarali web-interfeysga ega.
- Dizayn modul strukturasiga ega va osongina modifikatsiya qilinadi.
- Ulanadigan til paketlari to’liq mahalliylashtirish imkoniyatini beradi. Ayni ‘aytda 43 ta til qo’llab-quvvatlanoqda.
- Talabalar o’zlari hisob yozuvlarini tahrir etishlari, fotosuratlar qo’shishlari va ko’plab o’z shaxsiy ma’lumotlar va rekvizitlarini o’zgartirishlari mumkin.
- Har bir foydalanuvchi o’z mahalliy vaqtini ko’rsatishi mumkin. Bunda tizimdagi barcha sanalar uning uchun mahalliy vaqtga o’tkaziladi (forumlarda xabar berish vaqtlari, topshiriqlarni bajarish vaqtlari va boshqalar).
- Kurslarning turli strukturalari (tarkiblari) qo’llab-quvvatlanadi: “kalendarniy” (taqvimiy), “forum”, “tematik”.
- Har bir kurs qo’shimcha ravishda kod so’zi bilan himoyalanishi mumkin.
- Chat, O’ros (So’rov), Forum, Glossariy, Rabochaya tetrad (Ish daftari), Urok (Dars), Test, Anketa, Scorm, Survey, Wiki, Seminar, Resurs (matn yoki web sahifa yoki katalog ko’rinishida) kurslari uchun modul tuzuvchilar boy to’pami mavjud.
- Foydalanuvchi oxirgi marta kirganidan keyingi kursda ro’y bergan o’zgarishlar, kurs birinchi varag’ida aks ettirilishi mumkin.
- Deyarli barcha teriladigan matnlar (resurslar, forumga xabarlar, daftarlarga yozuvlar) ichiga joylashtirib qo’yilgan WYSIWYG Rich Text – muharrir tomonidan tahrir etilishi mumkin.
- Barcha baholar (Forumlardan, Ish daftarlaridan, Testlar va Topshiriqlardan) bitta sahifada to’’lanishi mumkin (yoki fayl ko’rinishida).

– Foydalanuvchining tizimga kirishi va ishi bo'yicha, jadvallar va turli modullar detallari (jihatlari) ustida olib borgan ishlari to'g'risidagi to'liq hisobot (oxirgi kirish, o'qish sonlari, xabarlar, daftarlardagi yozuvlar) ni olish mumkin.

E-mail ni yo'naltirish mumkin – xabarlar, forumlar va o'qituvchilar baho va sharhlarini jo'natish mumkin.

MOODLE da **15 turdagi interaktiv o'quv modullari mavjud** bo'lib, ularning soni oshib bormoqda. Kurs yaratuvchisi tizimning bunday imkoniyatidan foydalangan holda o'qitiladigan fanni talabalarga (bilim oluvchilarga) **interaktiv** ko'rinishda taqdim etish imkoniyatini yaratadi.

Tizimda mavjud o'qitish modullari:

– Forums,
– Materials,
– Messenger,
– Chat,
– Exercises,
– Group work,
– Student tracking va ancha ko'p bo'lgan boshqa modullari mavjud.

12.2.MOODLE tizimi masofaviy o'quv kursiga qo'yiladigan resurs va elementlar

– **Wiki (Viki)** – bir nechta foydalanuvchi tomonidan elektron materiallarni qo'shishi, kengaytirishi va o'zgartirish imkoniyatini beruvchi, Web 2. Kontseptsiyasi asosida yaratilayotgan hujjat ustida bir vaqtda hamkorlikda ishlash imkoniyatini beradi.
– **So'rovlar** – tizimdagi foydalanuvchilar orasida o'quv maqsadidan kelib chiqqan holda har xil ko'rinishdagi so'rovlarni tashkillashtirish imkoniyatini beradi.
– **Ma'lumotlar bazasi** – o'rganilayotgan fan bo'yicha ma'lumotlar bazasini xamkorlikda yoki yakka tartibda shakllantirish imkoniyatini beruvchi modul.
– **Glossariy** – kursning barcha hujjatlari bo'yicha havolalarni avtomatik tashkil qiladigan tahriflar ro'yxati. Agar tahrif glossariyga kiritilgan bo'lsa, u holda agar u kurs matnlarida uchrasa, havola glossariyning yordamchi elementiga avtomatikta'minlanadi. Yaratilgan glossariy orqali elektron nazorat turlarini tashkillashtirish imkoniyatini beradi.

- **Topshiriq** – o’qituvchi javobni elektron ko’rinishda olish uchun ishlatish mumkin (ixtiyoiy formatda).
- **Ma’ruza** – har bir sahifasi talaba javob berishi lozim bo’lgan savol bilan tugaydigan sahifalar to’plami. Javobning to’g’riligiga bog’liq holda, talaba keyingi sahifaga o’tadi yoki oldingi sahifaga qaytadi.
- Bu Ta’lim yo’nalishini aniqlashni va o’qitiladigan fan tushunarsiz bo’lib qolmasligini ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda ta’limni *individulalashtirish* imkoniyatini beradi. Bu turdagi o’quv element orqali bilim oluvchining shaxsiy tayyorgarligidan kelib chiqqan holda o’rganilayotgan o’quv kursi tizim orqali tanlab beriladi.
- **Sharh** – kurs sahifasidagi ixtiyoriy matn va grafika.
- **Ish daftari** – berilgan mavzu bo’yicha talaba fikrini bildiradigan joy.
- **Resurs** – avtomatik tasvirlanadigan turli fayllarni yuklash va tasvirlash vositasi. Masalan, Ma’ruza audioyozuvini yuklashda u mediapleyr sifatida tasvirlanadi.
- **Seminar** – qatnashchilar bir-birining ishini baholaydigan topshiriq.
- **Testlar** – turli variantli testlar to’plami. Savollar bir nechta variantli javoblardan, to’g’ri/noto’g’ri tanlovdan, qisqa matnli javobdan va boshqalardan iborat bo’lishi mumkin.
- **Forum** – forumning 3 ko’rinishi mavjud (savol-javob, hammaning o’z mavzusi, standart muzokara).
- **Chat** – real vaqtdagi muzokara olib borish imkoniyatini beradi.

Topshiriqlar

1. Masofaviy o’qitish kurslarini yaratishning dastlabki jarayoni izohlang.
2. Masofaviy o’qitish kurslarini yaratish maqsadini aniqlang.
3. Masofaviy o’qitishda o’quvchilarni guruhlarga ajrating.
4. Mustaqil o’qish, «birga-bir» pedagogic, «birga-ko’pchilik» va kommunikatsiya asosida «ko’pchilik-ko’pchilik» ta’limi o’qitish usullari yordamida guruhlar tashkillashtiring.
5. Masofaviy ta’lim tizimlarini yaratish bosqichlarini aniqlang.
6. Muayan kursga keys-stadi yarating.
7. Biron mavzuga amaliy mashqulot ishlanmasini tuzung.
8. Biron mavzuga taqdimot yarating.
9. Bir necha tushunchalarga Glossariy yarating.
10. Ko’rgazmali materiallar - sxemalar, jadvallar tuzung .

13-MAVZU. ELEKTRON TA’LIMNI BOShQARUV TIZIMI MOODLEDA FOYDALANUVChILARI BILAN IShLASh.

1.Moodle dasturida foydalanuvchilarni ro’yxatdan o’tkazish va sozlash.
2.Potok va guruxlarni yaratish va ular bilan ishlash.

Moodle dasturida foydalanuvchilarni ro’yxatdan o’tkazish va sozlash.

Moodle –yuqorida keltirilgan ta’rifni takrorlagan holda inglizchaso’zlarning abbreviaturasi bo’lib Modular Object Oriented Dynamic Learning Environment - modulli ob’ektga yo’naltirilgan dinamik o’qitish muhiti. GNU GPL listenziyasi bo’yicha erkin foydalanish mumkin bo’lgan veb (vebga yo’naltirilgan) ilova hisoblanadi. Moodle tizimi “ijtimoiy konstrukstionizm pedagogikasi” asos qilib olingan.


Tizim asosan o’qituvchilar va talabalar o’rtasida o’zaro (bilim olish) munosabatini tashkillashtirishga yo’natirilgan. Moodle avtori - Martin Dougiamas. Moodle PHP dasturlash tilida yozilgan, SQL-ma’lumotlar bazasi asosida ishlaydi (MySQL, PostgreSQL, Microsoft SQL Server va boshq.). Moodle SCO ob’ektlari bilan ishlay oladi va SCORM standartini qanoatlantiradi. Moodle arxitekturasi modulli ishlash prinstipida bo’lganligi sababli, uning imkoniyatlarini qo’shimcha plaginlar orqali kengaytirish mumkin.

Moodle-da ma’ruza, boshqa har qanday element singari, faqat kursga qo’shilishi mumkin, masalan, test yoki video darslik. Aks holda, ma’ruza ishlamaydi. Keling, avval masofaviy kursni yarataylik. **Administrirovanie → Kursы → Upravlenie kursami i kategoriyami → Dobavit kurs** bo’limiga o’ting. Ko’rsatilgan oynada kelajak kursining to’liq va qisqa nomini kiriting. Shaklni to’ldirgandan so’ng, **Soxranit i pokazat** tugmasini bosing.




13.1.rasm

Kurs quyidagi ko’rinishni olgandan so’ng redaktirovat nastroyku tugmasini bosing va xar bir elementni joylashtirib chiqing.




13.2.rasm

Foydalanuvchilarni ro’yxatdan o’tkazish va sozlash uchun chap tarafdagi oynadan **uchastniki** bandini tanlang




13.3.rasm

Bundan sung ochilgan oynadan **zapis polzovateley na kurs** darchasini bosing.




13.4.rasm

zapis polzovateley na kurs oynasi ochiladi va oynadan kerakli guruxlar tanlab olinadi va talabalar guruhga avtomatik ravishda biriktiriladi.




13.5.rasm




13.6.rasm

Guruxlar shu shaklda kursga kushiladi. Taxrirlash tugmasini bosim kuyidagi oynadan talabalarni guruxlarga ajratish, guruxlarga ixtiyoriy tartibda ruyxatdan utish va global guruxlarni shakllantirish mumkin.




13.7.rasm

Talabalarni kuyidagi tartibda guruhga ruyxatdan o'tganini kurish mumkin



13.8.rasm.

Kursda kuyidagi elementlarni joylashtirish mumkin



13.9.rasm

Har bir ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg’ulotlarining ishlanmalari, topshiriqlari kursda tuliq shakllantirilgan. Talabalar dars jarayonida kursdan foydalanishda mavzularga tegishli ma’lumotlarni elektron o’quv uslubiy majmuadan, kursga joylashtirilgan adabiyotlardan olib o’rganishadi. Bu talabalarga tizimdan foydalanishga qiyinchilik tug’dirmaydi.Chunki universitet hududida ochiq Wi-Fi tizimlari,xosting xizmatlari tashkillashtirilgan. Qolaversa Moodle tizimining mobil versiyalariga xam tarmoqda ulanishga imkon yaratilgan. Talabalar asosan mobil versiyalardan foydalanib darsga tayyorgarlik ko’rishadi. Mustaqil ta’lim topshiriqlari ham asosan mobil aloqa vositalari yordamida kursga tashlanadi.

Moodle - masofaviy ta’lim olish sistemasi quyidagi bosqichlardan iborat:

- Ta’lim berish jarayoniga tayyorgarlik
- Ta’lim berish jarayoni

Sistemada foydalanuvchi huquqlarini aniqlovhchi quyidagi asosiy rollar mavjud.

- Administrator- barcha ishni bajara oladigan shaxs
- Kurs yasovchisi(sozdatelkursov(course creator)) – sistemada kursni tahrirlash, royxatga olish va o’qituvchi tayinlash huquqiga ega
- O’qituvchi (teacher)-o’z kursini tahrirlash va unga assistentlarni , talabalarni tayinlash huquqqiga ega
- Yordamchi(Assistent(non-editing teacher)) – kursni tahrirlash huquqqiga ega bo’lmagan, ammo talabarning baholarini, kursning topshiriq va test natijalarini kuzatib boorish huquqiga ega
- Talaba(Student (Student))- O’ziga tegishli bo’lgan kursda ishlash, kurs materiallarini ko’rish, topshiriqlarni tekshirishga yuborish, testlarni bajarish, forum va chatlarda ishtirok etish huquqiga ega
- Mehmon (Gost(guest))- kurs kategoriyalari bilan tanishuvchi menmon sifatida kirish huquqiga ega shaxs.

MOODLE tizimida o’qitishning avzalliklari

Elektron o’qitishning avzallik tomonlari:

- **kursdan ixtiyoriy vaqtda foydalanish imkoniyati mavjudligi**. Elektron texnologiyalar yordamida kursdan 24 soat, 7 hafta, 365 kun mobaynida foydalanish mumkin, yani 24/7/365-prinstipining mavjudligi;

- **kursga dunyoning istalgan burchagidan (qachonki u erda Internet mavjud bo'lsa) kirish imkoniyati mavjudligi**. Buning uchun ko'pchilik kurslarga katta tezlikdagi internetga ulanish shart emas. Bu oddiy Dial-Up modem orqali ham kirish imkoniyatini beradi.
- **beriladigan ma'lumotlarning kengligi.** Kurs ishtirokchisi o'quv jarayonida materialllarni o'rganish vaqtida dunyodagi turli electron kurslardan va electron kutubxonalardan foydalanishi mumkin.
- **ma'lumotlarning tezlik bilan etkazib berilishi**. An'anaviy ta'limda o'quv jarayonining asosiy ma'lumotlari kitobdan olinadi. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida bir qator fanlardan yangiliklarkun-sayin yangilanib boradi, statistik ma'lumotlar o'zgaradi, kitobdagi ma'lumotlar eskirib boradi. Internet orqali olingan ishonchli ma'lumotlar doimiy ravishda yangilanib turiladi.
- **o'quv jarayonining avtomatlashtirilishi.** O'quv jarayoni avtomatik holda boshqarilib turiladi, ya'ni o'qituvchi bir xil variantdagi testlarni nazorat o'tkazish masadida berib, avtomatik tarzda nazorat olishi va kompyuter yordamida baholashi mumkin.
- **Ta'limning multimedialigi.** Matnli va grafik ma'lumotlar an'anaviy ta'limda qog'oz ko'rinishida namoyish etilsa, elektron ta'limda bu ma'lumotlar animastiya, video, tovush va ranglar bilan boyitilib tushuntiriladi. Bu esa talabaga ma'lumotlarni to'liq o'zlashtirish imkonini beradi.
- **O'qitiladigan ma'lumotlarning kengligi va hajm jihatdan kattaligi.** An'anaviy ta'lim berish jarayonida vaqtning cheklanganligi sababli beriladigan ma'lumotlarning hajmi kattaligi jihatidan asosiy qismlarning darsda o'tilishiga to'g'ri keladi. Elektron ta'limda esa bu muammo butunlay echimini topadi va mavzuga doir bir qancha qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish imkonini ham yaratadi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar

1. Moodle dasturida foydalanuvchilarni ro'yxatdan qanday o'tkazish mumkin?
2. Potok va guruxlar Moodle da qanday yaratiladi?
3. Masofaviy ta'lim modellariga nimalar kiradi?

4. Masofaviy ta’lim elementlarini shakllantirishga qo’yiladigan talablar nimalardan iborat?
5. Masofaviy ta’lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari qaysilar?
6. Virtual ta’limni boshqaruvchi tizimlarga nimalar kiradi?
7. MOODLE tizimining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
8. Moodle tizimida kurs elementlariga nimalar kiradi?

14-MAVZU. SMART O’QITISh TA’LIM VOSITALARI

1.Ta’lim jarayonida SMART tushunchasining qo’llanilishi va SMART ta’lim konstepstiyasi.
2. SMART ta’limni tashkil etishda qo’llaniladigan texnik va dasturiy vositalar.
3.Interaktiv ta’lim vositalari va ulardan ta’lim jarayonida samarali foydalanish.

14.1.Ta’lim jarayonida SMART tushunchasining qo’llanilishi va SMART ta’lim konstepstiyasi.

Elektron o’qitish — ma’lumotlar bazasida mavjud bo’lgan va ta’lim dasturlarini amalga oshirishda foydalaniladigan axborot va unga ishlov beruvchi axborot texnologiyalari, texnik vositalar hamda ko’rsatilgan axborotni aloqa liniyalari bo’yicha uzatishni, ta’lim oluvchilar va pedagog xodimlarning o’zaro faoliyatini ta’minlaydigan axborot-telekommunikastion tarmoqlarni qo’llab ta’lim faoliyatini tashkil qilishdan iborat.

Samarali elektron ta'limni tashkil etish talabalarga ikkala ma'lumot manbai va zarur yordamni o'z ichiga oladi. Elektron o'qitish turli shakllarda amalga oshiriladi: bloglar, veb-entsiklopediyalar, onlayn munozara klublari, onlayn o'yinlar va trenajyorlar, Ta'limni boshqarish tizimidagi onlayn kurslar (LMS), ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC) , planshet ilovalari va boshqalar. Elektron ta'lim uchun son-sanoqsiz Internet-resurslar mavjud - pullik va bepul mavjud. Ammo ularning aksariyati o'quvchilarni o'qitish, materiallarni taqdim etish va ma'lum bir texnologiya doirasida ishlash uchun interfeysni tashkil etishning eng yaxshi tajribalari haqida g'oyalarga - rasmiy va empiriklarga tayanmasdan yaratilgan. Elektron o'quv qo'llanmalari va ayniqsa onlayn o'qitish uchun ham xuddi shunday - ular ko'pincha o'rganish nazariyasiga tayanmaydilar. Elektron ta'limni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun asos nazariy tushunchalar va empirik

tadqiqotlar natijalari bo'lishi kerak, shunda o'qitish va o'qitish pedagogik dizaynning sog'lom tamoyillariga asoslanadi va shu bilan bir qatorda, olimlar va tadqiqotchilar bir xil terminologiyadan foydalanishlari va elektron o'quv vositalarining samaradorligi, uning manbalari va uni tashkil etish usullari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishda nimadan boshlash kerakligini tushunishlari muhimdir.

Elektron o'qitish hamjamiyatlariga o'xshab elektron ta'lim amaliyoti an'anaviy o'quv amaliyotidan farq qiladi. Elektron ta'lim talabalarga maxsus onlayn qiziqish guruhlariga a'zo bo'lish, elektron jurnallarga obuna bo'lish, ma'lumotlar bazalari va raqamli arxivlardan foydalangan holda tezkor tadqiqotlar o'tkazish, sinfdoshlar va o'qituvchilar bilan elektron pochta orqali aloqa qilish, bloglar yaratish, onlayn munozaralarda ishtirok etish va ma'lumotni taqdim etish imkonini beradi. boshqa ko'plab imkoniyatlar. Bunday xilma-xillik an'anaviy o'qitish va o'qitish sharoitida mavjud emas.

Mobil o’qitish(Mobile learning) Bunda ta’lim oluvchilar masofaviy o’qitish jarayonida o’zlarining shaxsiy mobil telefonlaridan foydalangan holda o’qishlari nazarda tutiladi.Mobil o’qitish atamasi cho’ntak kompyuterlari PDA(personal digital assistant), mobil telefonlar, noutbuk, planshet kabi mobil va portativ axborot texnologiyalarini o’qitish va ta’lim jarayonlarida qo’llashga nisbatan ishlatiladi. Kompyuter va internet zaruriy o’qitish vositalariga aylanib borayotgan bir vaqtda texnologiyalar foydalanish uchun oddiy, qulay va samarali bo’lib bormoqda.



14.1-rasm. Mobile o’qitish vositalari

